



YOSHLAR  
KUTUBXONASI

Xurshid Do'stmuhammad

# DONISHMAND SIZIF





**Xurshid DO'STMUHAMMAD**

**DONISHMAND  
SIZIF**

*Roman*

YOSHLAR NASHRIYOT UYI  
TOSHKENT – 2019

UO'K 821.512.133-31  
KBK 84(50)6  
D 99

Yoshlar nashriyoti

**Do'stmuhammad, Xurshid.**


Donishmand Sizif [Matn]: / roman / X. Do'stmuhammad. –  
Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 120 b.

*Yunon afsonalarida Olimp ma'budlariga qarshi isyonni sababli toki qiyomatgacha og'ir xarsangni baland cho'qqiga dumalatib chiqarishdek befoyda va og'ir mehnatga mahkum qilingan Korinf hokimi Sizif haqida jahon adabiyotida ko'plab asarlar yaratilgan.*

*Ushbu roman qahramoni bo'lgan Sizif siymosida sabr-toqati, irodasi va kurashi bilan o'tib bo'lmas mashaqqatlardan ustun kelib, cho'qqini zabt etgan muzaffar inson yoki mashaqqatlar mahsuli bo'lgan donishmand gavdalanadi.*

*Zamonaviy nasrimizda paydo bo'lgan yana bir ajoyib romanni o'quvchilarga tavsiya etmoqdamiz.*

UO'K 821.512.133-31  
KBK 84(50)6



ISBN 978-9943-5530-3-3

© Xurshid Do'stmuhammad  
© YOSHLAR NASHRIYOT UYI,  
2019

1045455  
281

## I

Zo'rning toshi qirga qarab yumalar... Taqir yerda uzoq o'tirgan Sizif o'zi ham to'la anglamagan allaqanday ma'noda boshini bir sermab qo'ydi-da, og'ir qo'zg'aldi. Asli u novcha-darozgina edi, lekin uzluksiz og'ir va qora mehnat oqibatida tarashadek qotib ketgan qad-qomati xiyla bukilib qolganidan oldinga osilib turgan uzun-uzun qo'llari tizzasiga tegay-tegay der, nafaqat qad-qomati, balki diydasi ham qotib ketgan, uncha-muncha gap-so'zga ta'sirlanavermas ham edi. Vaholanki, bu gapni ko'p eslaydi u, bir paytlar yodiga tushgan zahoti chehrasida beozor-beg'ubor tabassum paydo bo'lardi, butkul qismatim mujassam bu hikmatda deb hayratlanar, ba'zan ro'parasida qad rostlagan tog'-u toshning, ayniqsa, yonginasida qo'qqayib turgan xarsangtoshning qulog'iga yetib borarmikan degan umidda uni ba'zan baralla – ovozining boricha baqirib-hayqirib, ba'zan esa shivirlab aytardi. Qalb tubidan chiqqan yoxud astoydil hayqirib aytilgan gap beta'sir qolmas deb o'ylardi. Keyinchalik esa, eslashga eslaydi, aytishga aytadi-yu, na kuladi, na kuyadi, na pinagini buzadi...

– Hoy, Sizi-if, yalqovlikni bas qil, qara, xarsang intizor senga, xarsangtosh!..

U ohista bosh ko'tarib, ovoz egasini topmoqchi bo'ldi, "yalqovlik" dedimi, ola-a, Sizifning sha'niga istalgan malmomat toshini otsinlar, chidaydi, illo yalqov degan ta'na tavqi la'natdek eshitildi qulog'iga, aslida ham yalqovlikka balo bormi bu yerda, axir tun-u kunning farqi qolmagan, ochin-to'qinning farqi qolmagan, hordiq baddar unutilgan bu jazo oshyonining har lahza-har soni-

yasi mehnatdan, mashaqqatdan, uqubatdan yaratilgan bo'lsa! Bu haqiqatni allaqachonlar anglab idrokiga singdirib yuborgan Sızif bisotidagi nodir-u nordon so'zlar uchun og'iz juftlab atrofga alangladi, biroq ovoz egasi tugul, da'vat qay tomondan kelganini ham aniqlay olmadı. Ovoz juda-juda tanish edi, afsus, tanish chehra o'rnida uning ro'parasida hayhotday xarsangtosh qo'r to'kib turar – xarsangdan boshqa nima ham ovoz chiqara olardi bu biyobonda?! – yaqin-yaqindan u tilga kiradigan odat chiqardi va Sızifga qarddon allakimning juda-juda tanish tovushida to'satdan sas-sado taratadigan bo'lib qoldı. Sızif xo'p o'yladi, xo'p urindi, eslolmadi, illo uning ishonchi komil – diydasi metinga aylanib ketgan xarsang shu turishicha hamishadagidek yana va yana Sızifni navbatdagi muhorabaga, olishuvga chorlayotgan edi.



Sızif ortiqcha o'ylab o'tirmadi, nima qilarini bilmay boshi qotgan odam singari chakkasini qashlab ham turmadi, balki ikkala kaftini baravariga xarsangtoshning tagiga suqdi, eti mushaklari po'latga aylanib ketgan ko'ksi va yelkasi aralash toshga qapishdi, oyoqlarini yerga tiraganicha: "Ha-a yumaloq, ha-a dumaloq, ha-a baqaloq", deganicha jon-jahdi bilan xarsangni joyidan siljitdi. Butun zalvori bilan yerga qadalgan xarsang xuddi shu turtkiga shay va intiq turgandek, go'yo yaproqdan yasalgan toshdek yengilgina harakatga tushdi. Xarsangning bu fe'lini Sızif allaqachon tushunib olgandi, binobarin, u darhol o'zini yarim odim ortga tortib, toshni o'z holiga qo'ydi. U kuch-quvvatini misqollab sarflamog'i, har qadam, kerak bo'lsa, holi-qudratini har qarich-har baxya uchun o'taketgan xasislik bilan taqsimlamog'i zarurligini yaxshi bilardi. U ko'z yetar, ammo qo'l-u oyoqlari yet-

mas manzil – tog' cho'qqisi tomon bir qur qarab ham qo'ymadi, zero turgan joyidan to ho-ov cho'qqiga qadar masofaning har quloch, har qarichi yod bo'lib ketgan, oyog'ining ostidan ko'z uzmasa-da, tog' yonbag'riining qaysi manzilida borayotganini, cho'qqiga dovur yana qancha masofa qolganini besh qo'lday biladi. Sizif odatda xarsangga tarmashgan damlarda o'ylamaslikka harakat qiladi, ortiqcha o'ylash jismoniy quvvatimni so'rib oladi deb xavotirlanadi, shu boisdan o'y-xayollarini-da a'zoyi badani – vujudidan vulqon yanglig' otilib chiqadigan shiddatiga payvasta qiladi – uning uchun xarsangtoshni tepalik sari dumalashdan muqaddasroq, muhimroq, savobliroq burch, maqsad-vazifa qolmaydi. Shu onda xayol uyuriga bulut o'rkachlari qo'shiladi, xayolga chirmalgan bulut yoxud bulutga qorishgan xayol daf solganida undan xalos bo'lish oson kechmaydi, ustiga-ustak, kuchi qir qilishi oqibatida toshning dumalashi susayishi, yo'lning unmasligi ham mayli, bunday damlarda xarsangtoshdan ko'ra qop-qora bulutga to'yingan o'y-xayollari yuz, ming karra og'irroq, zalvorliroq tuyuladi Sizifga – xarsang va xayol qadr donlashib olsa bormi, Sizif yolg'iz, nochor va abgor bir holatga tushar, hali-zamon ular ikkov jipslashib men tanhoni naq majaqlab tashlashadi degan xavotirda qochgani joy topolmay qolardi. Yo'q, Sizif zinhor bunga yo'l qo'ya olmaydi, yo'l qo'ymaydi ham, zero, peshonasiga urilguday bo'ylashib turgan xarsangtoshni ho-ov anavi cho'qqiga olib chiqish uning yagona maqsad-maslagiga, umrining ma'no-mazmuniga aylanib ketganini biron lahza unutmaydi, u shunga muhtalo, shu boisdan ham, qanday bo'lmasin, xotinini nomahram nazardan qizg'angan erkakdek xarsangtoshning metin vujudi bilan apoq-chapoqlashib ketgan xayollarini amallab undan ayiradi. Xarsang qancha tosh bosadi, bordi-yu, tarozining pallasiga qo'yilsa,

necha botmon chiqadi, umuman uni cho'qqi sari surib chiqarishga inson bolasi qodirmi-yo'qmi, bular va shunga o'xshash savollar, ishtibohlar ustida Sizif juda ko'p bosh qotiradi, biroq ularning birortasiga tayinli javob topolmas, bari-barchasi bekor-behuda degan qarorga kelibgina qo'l siltardi. Sizif bu qarorini haqiqati mutlaq sifatida qismatiga, tolelarga limmo-lim taqdir lavhlariga o'chmas qilib muhrlab tashlagan. Eshigi-tuynugidin yo'q nishon, aft-basharasi, ko'z-qulog'i nihondin-nihon yum-yumaloq, dum-dumaloq, baq-baqaloq – xarsangtosh emas, Sizifga in'om etilgan qismat toshi, taqdir toshi, nasibasi, oshi haloli bu! Ne zamonlardan buyon berib kelingan "jazo toshi" qabilidagi badhazm ta'rif-u tavsiflar, ya'ni o'zining sha'niga yog'dirilgan tuhmat toshlariga toqati yo'q Sizifning, zero, u taqdir va qismatni o'ziga ravo ko'rilgan in'om, inoyat, nasiba deb biladi, hamon ma'budlar ma'budi ravo ko'rdimi, vassalom, Sizif unga qarshi g'alayon ko'tarmaydi, u o'zini g'addor isyonkorlar toifasiga qo'shmaydi, taqdirning qaytmas panjasiga panja urish niyatida qilich yalang'ochlamaydi, balki ko'ksini qalqon qilib xarsangtoshni cho'qqiga olib chiqish haqida qayg'uradi, astoydil qayg'urgani uchun ham shu maqsad, shu orzu uning a'moliga, o'tayotgan umrining mazmuniga aylanib ketgandi.

Xarsangtoshning yerga qadalib turgan joyidan osongina harakatga tushishi, qarich-baqarich yuqoriga qarab o'rmalashini ham o'sha taqdir va o'sha qismatga sog'lom va sadoqatli munosabatining ajri deb biladi Sizif. Vujudi, shuurini qamragan ushbu ishonch-e'tiqod Sizifninggina emas, xarsangtoshning ham ishonch-e'tiqodiga aylanib ketgan, xuddi shu sababga ko'ra tosh go'yo Sizifni ortiqcha urintirgisi kelmagandek, uning qo'l uchlari tegar-tegmas bir, ikki, hatto uch-to'rt odimlar o'zidan-o'zi dumalab borar, buni ko'rgan Sizifning nazarida



quyosh dengiz tomondan emas, o'zining chehrasidan chiqib kelib, olamni charog'on qilib yuborgandek tuyular, quvonganidan vujudida son-sanoqsiz alp-pahlavonning qudratini his qilar, agar shu maromni saqlay olsa, agar shu shiddatni susaytirmasa cho'qqiga eson-omon qadami etishiga, xarsangtoshni cho'qqining qoq uchiga qo'ndirib qo'yishiga ishonchi, qat'iyati ortar edi.

\* \* \*

Aslida esa cho'qqi ostonasidagi yalanglik bir qadar ravon, sathi bir qadar nishab ekanligi bois xarsangga bir turtki kifoya – Sizifning ham, toshning ham joni kiradi go'yo – xarsang yumalab ketadi. Har safar shunday – har safar Sizifning xayoli totli o'ylardan masrur, nazari-da, cho'qqining eng tepasiga dovur xarsangtosh mana shu maromda – qir bag'rida sirpanchiq uchayotgan bolakayning chanasi yanglig' silliqqina, beozorgina sirpanib ko'tariladigandek tuyuladi.

Sizif qarsak chalib yubordi, xarsangtosh yonida o'zi ham dumalab-o'mbaloq oshib, irg'ishlab, qiyqirib, shodligini kim bilan baham ko'rishini bilmay... xarsangtoshni quchoqlab oldi, barakalla, deya uning yelkasiga shapatilab qoqdi, uni silab-siypaladi, yumaloqqinam, dumaloqqinam, baqaloqqinam deya, duch kelgan joyiga betini bosib onasining momiq bag'riga singib ketayotgan mushukchadek tantig'landi-erkalandi. Vaholanki, og'ir, mashaqqat-u uqubatlar so'qmog'i boshlanajak mana shu kaftekkina nishab yalanglik ko'ndalangiga, nari borsa, olti-yetti odimdan oshmas, ko'zga ko'rinib turgan esada, qariyb har safar shu yo'lboshidagi emin-erkinlikdan tug'ilgan shodumonlik Sizifni go'daklarcha ko'zini ko'r, aqlini kemtik qilib qo'yardi. Axir olti-yetti odimdan so'ng tik qiyalik boshlanadi, oldinda yuqoriga qalin arqon

yanglig' o'rmalab ketgan so'qmoq egri-bugri, o'ydim-chuqur, binobarin, boyagi ravonlik ortda qolgach, endi u yog'iga har qadam emas, har qarich ilgarilash Sizifdan bir dunyo kuch-quvvat talab qiladi. Lekin u yo'lning - xarsangtosh cho'qqi sari chiqaverib-cho'qqiga yetar-yetmas pastga dumalab tushaverib ochgan so'qmoqning naqadar mashaqqat so'qmog'i ekanini besh qo'lday biladi. Boringki, Sizif hali yo'lning boshlanishida emasmi, shundan uning bilaklari, yelkalar, biqini, tizzalari kuchga to'lib turgan bo'ladi, o'zi charchoq nima ekanini bilmaydi, bir umr ekan-u, toabad shu mashg'ulotga andarmon bo'lishga-da qurbim-qurbatim yetadi deb ishonadi. Odat ko'nikmaga yo'inki ko'nikma odatga aylandimi, vasalom, uning zarracha og'irligi sezilmaydi odamga, binobarin, hech bir urf-odat o'ziga ixlos qo'ygan qavm imkoniyatlari bilan hisoblashmaydi. Aksincha, uning hatto mashaqqat-u uqubatlari ushbu qavm kishilariga rohat, adoqsiz rohat-farog'at bag'ishlaydi! Oh-ho-o, odatlanish nimalarga qodir emas, yaxshilar!..

\*\*\*

Xarsangtoshni qirga qarata yumalatish, shu asnoda toliqish, qavarib ketgan kaftlari, yelkalariga qaltiroq turishi, holsizlanishlari, zirqirab azob berishlari allaqachonlar Sizif uchun oddiy va odatdagi holga aylanib ketgan, qolaversa, yo'l boshida u og'rinmaydi, xarsangtoshni yana uch-to'rt, ba'zan sakkiz-o'n odimlar masofaga olib chiqishda qiyinchilik nima ekanini deyarli bilmaydi.

Qiyinchilikning ilk kurtaklari picha keyinroq uch bera hoshlaydi.

Sizif bir zum nafas rostlaydi, tin oladi, oyog'ining uchini xarsangtoshning tagiga pona o'rnida suqib turadi, to'satdan u muvozanatini yo'qotib, pastga qarab

sho'ng'ib qolmasligi uchun shunday qiladi, necha daf'a shunday bo'ldi ham – nafas rostlash istagidagi bir lahza-lik parishonlik toshning pastga qarab quyunday otilishi bilan yakun topdi. Tosh bir chindim ortga siljidimi, tamom, uni tutib qolish, oldinga harakatlantirish uchun chiranishlari zoe ketar, bunga bandasining qudrati ojizlik qilardi. Sızifning mehnati, mashaqqat-u uqubatlari hisobsiz martalar shu tarzda zavol topdi. Hisobsiz martalar achchiq sitamlar ostida ezildi, biroq alami o'zidan edi, axir yon-verida, atrof-javonibda hech zog' yo'q, tosh oldinga bir qadam-bir qarich siljisa, o'zini o'zi olqishlaydigan ham, quyiga qarab sho'ng'isa, o'zini o'zi aya-may-netmay yanishi, boloxonador qilib so'kishlari ham o'zining sha'niga qaratilgan bo'lardi.

\* \* \*

Xarsangtoshning yum-yumaloqligi, bir hisobda, Sızifga qiynchilik tug'dirsa, boshqa jihatdan qulayligi ham yo'q emasdi. Bordi-yu, xarsangning tizza yo tirsakka o'xshash turtib chiqqan, tekis-yassi joylari bo'lganida u har dumalaganida siltanib-chayqalib muvozanatni saqlay olmasa, uni tutib qolishga Sızifning chog'i kelmay qolar, binobarin, xarsangning har harakati o'n xavotir-tahlikani keltirib chiqargan bo'lur edi. Shu bois, xarsang nechog'liq silliq harakatlansa, Sızif ham shunchalar muloyim tortar, mumkin qadar kuchiga zo'r bermaslik chorasini izlardi.

Bu safar xarsang unga to'la-to'kis bo'ysunayotgan, bundan Sızif nechog'liq mamnun bo'lmasin, ko'nglining bir chekkasida hademay xarsangning o'jarligi tutib qolishi muqarrarligidan, uni tirnoqcha oldinga surish ham mashaqqatga aylanadigan joylar kelishidan xavotiri ham yo'q emasdi.

\* \* \*

O'sha kun, o'sha soniyalarda yuz bergan voqealar Sizifning yodidan sira o'chmaydi. Yodida ham gapmi, bami soli sahnada qo'yilgan tomoshadek har bir manzarasi nigohi ro'parasidan nari ketmaydi. U haqda uchchiga chiqqan tamagir-muttaham, afsungar-tovlamachi degan ovozalari shamolday tarqaganini, rivoyatlar, ertaklar-u dostonlar to'qib-bichilganini tushunolmadi, hamon tushunmaydi. Ma'budlar ma'budidan o'pkaginasini o'z yo'lga, illo, kechagina o'zi qatori yurgan duppa-durust odamnusxa uvrindilar sharmandalarcha bong urishda shovvozlik ko'rsatganlaridan yomon mutaassir bo'ldi Sizif. Ob-bo, bachchag'arlar-ey, obbo yuvuqsizlar-ey, deya miriqib kuldi. Ularning katta-kichigiga bo'lgan hurmati shoyon samimiy, har birlarini boshiga ko'tarishga shay edi. Bu yog'ini aytadigan bo'lsa... nimasini yashiradi endi u, kimdan sir tutadi, indallosiga ko'chganda, Sizif ich-ichidan ularga achchiq istehzo bilan qarar, oliftalar, munofiqlar, xezimkashlar, rezgilar... payraxalar, deb so'kinar, hech kim va hech narsa emas bular, deya har birining go'riga mingtalab tosh qalar, o'zlarini erkin his qila bilmagan erkaknusxalar qanchalar oliftalik qilmasinlar muqarrar nafratga loyiqdirlar, bunaqangi nozik-mizojlar ikki dunyoda ham jasoratga qodir emaslar deb hisoblar, uning nazdida qo'rroqlik ham borib turgan tavqi la'nat, shu qadar shafqatsiz tavqi la'natki, taassuf, bu qarq'ishga loyiq bo'lmagan tirik jon anqoning urug'idanda kamyob-u noyob deb bilardi.

Sodda, go'l, laqmaga chiqarishdi Sizifni. Ahmoqona qahramonlikni ko'ngli tusab qolibdi tentakning deganlar bo'ldi u haqda. Sizif esa hech bir vaysaqi tarqatgan is-siq-sovuq mish-mishga ortiqcha ajablanmadi, mo'ysafid o'tmish uchun buning hech bir ajablanarli joyi yo'q, hami-

sha shunday bo'lgan va shunday bo'lib qolajak deya xulosa yasadi o'zicha bosiqlik bilan. Axir qachon qaramang, sofdil va beg'ubor kishilar vijdonsizlar, so'qimtabiatlar, qo'rqqoq va yelpatak xushomadgo'ylarga qaraganda xiy-la tushunarsizroq, g'alatiroq tuyulishadi. Kulgiga qolib yurishadi. Vaholanki, hayotda juda ko'p sarqitlarga qarshi kurashishda sopini o'zidan chiqarish usuli qo'l keladi, binobarin, xushomadgo'ylarni o'ldirsa bo'lur edi xushomad bilan... ko'pirtirib maqtasa bas edi alar nuqsonlarini! Chunki bilar edi – haqiqatni so'zlasalar, toqatlari toq, ammo-lekin xushomadga jon deb solishar quloq!..

\* \* \*

Sizif har safar shularni o'ylaganida birov biqiniga kirib qitiqlayotgandek kulgisini tiyolmaydi. Bordi-yu men tamagir-muttaham, afsungar-tovlamachi hisoblansam, haqiqiy tamagir-muttahamlar, afsungar-tovlamachilarning aft-angori, rang-ro'yi qanday bo'ladi? Harchand o'ylasin, bosh qotirsin, tasavvuriga sig'dirolmadi bo'layotgan voqealarni u. Olis-yaqin kechmishini necha qayta xayolida gavdalantirib o'zini o'zi taftish qilishga urindi – qachon, qanday sharoitda, kimga muttahamlik qildi u, kimning mulki-amlokiga ko'z olaytirdi, kimni xiyonatkorona aldab-suldadi... kimga nohaqdan-nohaq zulm o'tkazdi – Sizif eslolmadi. Aksincha, u borib turgan og'ir-vazmin, hatto haddan ziyod ehtiyotkor, zinhor el-yurt orasida yomonotliq bo'lib qolishni istamaydigan odam edi ("Ana, Korinf ahli bunga shohid!" deya ozmuncha bo'g'ilib hayqirdimi u?!), o'rni kelganda, fe'lidagi mana shu yumshoqsupurgi tabiati o'ziga ko'pda yoqavermas, nafi bo'larmikan, degan o'yda boshqalarga eshittirmay o'zini o'zi yanishga tushib ketardi. Qo'rqqoq, lapashang deb ozmuncha so'kkanmi o'zini

o'zi u, er kishi (tag'in, kimsan, martabador a'yonlardan bo'lmish muhtaram zot!) loaqal jindek jasur, qo'rqmas, yo ostidan-yo ustidan qabilida ish tutadigan dangalchi, tavakkalchi bo'lgani durust-da, deb o'zini o'zi tarbiyalashga harakat qilardi. Jazo tayinlovchilar va ijrochilar esa uning "tamagir-kazzobligi", jasur-qo'rqmasligi, umuman nomayi a'moli bilan pachakilashib-ijikilashib o'tirishmadi...

Sizif yo'l bo'yi solintirib kelgan boshini salt ko'tardi-yu, o'zini tik cho'qqisi ko'kka qadalgan mana shu tog'-u tosh poyida ko'rdi. Qo'llari kishanlangan, har bir to'pig'i boldirlari aralash chandib bog'langan zanjir halqalarining zalvori ularning yerda arang shaldirab sudralib kelayotganidan ham ayon edi. Vaholanki, Sizif hali bu qadar xatarnok mahbusligini, inson bolasi boshiga tushmagan jazoga mahkumligini ham teranroq anglab yetolmayotgan, ayniqsa... ichida kuldi u, o'zining ahvoli ayanchli darajada kulgili ko'rindi. Axir, yo Rab, nahotki, kimsan Sizif oyoq-qo'llariga kishan uriladigan, dunyoning nazar-nigohlardan yiroq e-eng ovloq biyoboniga keltirilib, yovuz va shafqatsiz qismat ila yuzma-yuz qoldirilishga loyiq inson bo'lsa?! Nahotki, u yovuz, mal'un kimsa sifatida badarg'a qilinmoqda? Nahotki, endi u o'zini, sha'nini himoya qilolmaydi, menga quloq solinglar, yaxshilar, sizlar o'ylaganchalik badbaxt odam emasman, deya olmaydi! Degan taqdirda ham... tushuncha va tasavvurlar murakkablasha boradi, shakllanadi, shu asnoda ulug' zotlardagi aqliy evrilish xalqning evrilishiga - fikran-shuuran ulg'ayishiga qanot bag'ishlaydi, shu to'liqida juda ko'p haqiqatlarga oydinlik kiritiladi, jumladan, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik haqidagi tushuncha va tasavvurlar takomil cho'qqisiga yetib, quyma yombi maqomiga yetgan pallada - shu maqomga yetishgan xalq to'satdan yemirilishga yuz tutadi,

qirg'inga uchraydi, degan bashoratlar... be-be-e, bunday safsatalarning Sizifga, Sizifning boshiga tushib turgan shafqatsiz musibatga nima daxli bor?!

U seskanib tushdi, boshini asabiy siltadi.

– O, tangrilar! Qay gunohim uchun menga buncha azobni ravo ko'rmoqdasizlar? Hayhot, nahot men shul jazoga loyiq insonman, nahot?!

\* \* \*

Sizif jon achchig'ida hayqirganidan oyog'idagi zil-zambil zanjir sharaqlab ketdi. To'pig'i jazillab achishdi. Axir, nechun oyog'iga kishan urishdi uning? Oyoqlarida ne gunoh? Bosh gunohkor uning tili-zaboni edi-ku! Zarurat tug'ilsa, Sizif buni bo'yniga olishga hozir-u nozir edi, biroq og'zini juftlagan chog'da tuyqus fikridan qaytdi. Bordi-yu, oyog'idagi zanjir uning tiliga urilgan taqdir-da yoinki shu kimsasiz va ovloq biyobonga surgab kelib uning mahmadona tilini tag-tugidan qirqib tashlashgan taqdir-da ham... tilida ne gunoh-ne karohat?! Tili gung edi uning, tilini tishlagani-tishlagan edi, axir. U holda... u holda... Sizif boshini xam qilgan ko'yi oyoqlariga razm soldi, ularga uzrli boqdi, ularga taskin-tasalli so'zlarini izhor qilgisi keldi:

– Dilimda edi bari, dilginamning qa'rida...

\* \* \*

Odatda, u yo'lboshida zarracha qiynalmaydi, shu safar ham o'ynab-kulib toshni yumalatib yubordi, shundan so'nggina haqiqiy ma'noda ishga kirishdi – toshga tarmashganicha uni qadam-baqadam yuqoriga, yuqoriga qaratib siljitishga tushdi. Qadami, qulochi unmoqda edi. U allaqachonlar toshni dumalatish hadisini o'zlashtirgan, bu mashg'ulot uning kundalik hunariga, o'zi esa

xarsangtosh dumalatuvcchi hunarmandga aylanib ketgan, shundan, uning harakatlari siyqa, hech bir yangilik yo'q, muhimi, samara, ya'ni toshning oldinga-yuqoriga qarab siljishi edi. O'sha gap – gap: zo'rning toshi qirga qarab yumalaydi!..

Sizif o'zini zo'r deb biladi, shu xarsangga kuchi yetmay mag'lub bo'lishini tasavvuriga sig'dirolmaydi, zinhor-bazinhor sig'dirmaydi! Shu baqaloqqa kuchim yetmasa, insonligim qayda qoladi, degan gapni takrorlayverganidan tili necha bor tanglayiga yopishib, necha bor chaqa bo'liblar ketmadi!..

\* \* \*

Sizif shunaqa inson. Izidan, maqsad-maslagidan qaytadigan qo'rqqoq, lapashang emas! Orqasiga choptiradigan mag'zava so'tak ham emas! Nimagaki qo'l ursa, dadil va ishonch bilan kirishadi. Xarsangga ham xuddi shu shiddat, shu qat'iyat bilan yaqinlashadi. Yo'ning har qadami, hatto har qarichi unga yod bo'lib ketganidan u bir nigoh tashlashda qaysi joyda ketayotganini besh qo'lday bilar, keyingi qadam yoxud keyingi qarich uchun qanday kuch-quvvat sarflamog'i, qandayin chapdastlik ko'rsatmog'i zarurligini oldindan bilar va shunga yarasha chog'lanardi. Bu safar boshi uzra bulut xirmon bo'lib to'dalashmagan, shu sababmi, u cho'qqining qoq beliga dovur ko'tarilganini to'satdan payqadi, demak, bu safargi yurishi unga o'zgacha in'omlarni hozirlagan ko'rinadi, hatto odatdagi charchash-toliqishni ham tuymayapti, demak, marra sari yurish g'olibona poyoniga yetishi ham ehtimoldan xoli emas. G'ayrati jo'shib-ko'pchimoqda, bordi-yu, boshi tepasida bulut uyurlari paydo bo'lgan taqdirda ham hozirgi shiddati bilan uni... umuman uning bulut bilan nima ishi bor, besanoq-behisob, boshi oxirini



bilib bo'lmas osmonda uchib o'tadigan tutunsimon bir narsa bo'lsa! Ana, tog' yonbag'ridan ho'-o' narida qir-adir shamoyilidagi bulut go'yo osmon toqiga bog'lab qo'yilgandek qilt etmay turibdi, Sizif bilan ishi yo'q uning, shu alfozda bir joyda siljmay turaverganidan, oltob tig'ida rang-tusi unniqib, rang-tussiz, gezarib ko'rinyapti.

\* \* \*

Sizif so'nggi lahzalargacha o'zini qanday jazo kutayotganini bilolmadi. Dorga osisharmikan?.. U holda, qani xaloyiq, qani to'sinda tebranib, uni intiq kutayotgan sirtmoq?.. Jimjit. Yoxud, manavi kimsasiz tog' etagida shartta yerga yotqizishadi-yu, kim ko'rib o'tiribdi, aziz boshini sapchadek qilib tanasidan judo etishadi-vassalomnikan?! Bir zungina – bu dunyoda bir odam kamaydi nima-yu, ko'paydi nima! Yoxud Korinfnning ustiga osmon qulab tusharmidi Sizif qatl etilsa?! Unday desa, oybolta tutgan jallodlarning qorasi ko'rinmayapti, kunda ham yo'q... O't qalab, tikkasiga yondirisharmikan?.. Balki boshidan namakob purkay-purkay terisini shilishar, tiriklayin?! E-e-e, ana, ana, Sizif ko'rdi! Ko'rdi-yu, vujudi lovullab ketdi, ayon, degan o'y shuurini-dilini yashinday tilib, kuydirib o'tdi. To'g'risi, u bunday jazoni kutmagan. Nima bo'lsa-bo'lar, lekin ortiqcha qiynamay jonimni olishadi degan umidda shaylanib kelayotgandi u, biroq... Ko'z oldida og'ir haybatli xarsangtosh ostida majaqlangan va yer bilan bitta bo'lib yotgan oyoq-qo'li, jismi-jasadi gavdalandi. Xarsangtoshning rosa dumalaydiganini topishibdi o'ziyam! Bahaybatligini!.. Avval Sizifni yerga yuztuban yotqizadilar, so'ng oldi-orqasidan poyloqchilik qilib kelayotgan xos navkarlar baravariga xarsangga yopishadilar-da, toshni uning ustidan bir sidra dumalati yuboradilar, qarabsizki, qasira-qusur-r-r!..

Xarsangning biqin tomonida ola-chalpoq qizil dog'dug'lar ko'rindi. Demak, Sizif taxminida adashmadi, ilgari ham kimlarnidir bu yerga keltirib toshga bostirishgan, o'sha burungi qon dog'lari xarsangga yuqib, singib ketgan!..

Sizif o'zi ustidan chiqarilgan va o'qilgan hukmni astoydil, butun vujudi quloqqa aylanib eshitdi, qulog'i – hukmda, nigohlari esa tutqich bermas – yag'rini osmonga tutash tog' cho'qqisining raso qaddi-bastidan, tog' yonbag'rini qoplagan mayin-barra maysaning go'zaligidan hayratda edi. Ehtimol, o'ziga ajal olib kelishga shay turgan xarsangtoshga qaramaslik uchun ham shunday qilgandir. Haqiqatda zalvorli, mahobatli xarsangtosh – shu tog'mi yoxud boshqa bir tog' cho'qqisidanmi allaqanday qudratli qo'l ulkan hovuchlari bilan o'yib olgan-u, olmadek, yo'q, anordek dum-dumaloqlab uni shu yerga – maxsus-atayin Sizif hukm etilgan jazo chorasi o'talmog'i lozim ko'rilgan maskanga keltirib qo'yilgan. Olma emas, anor ham emas – naq tarvuzdek yum-yumaloq, omonlashay desang, na tutadigan qo'li bor, tanishay desang, na aft-angori, bog'lay desang, na bog'lab qo'yadigan bo'yni yo dumi bor! Tarhi tarvuzdan olingani muqarrar! O'zi qay ahvolda-yu, bir qarashning o'zida unga ism qo'yib ulgurdi Sizif. Ism emas, laqab to'qidi: yumaloq, dumaloq, baqaloq, deb yubordi u ichida. Yerda yuztuban yotgan odamning ustidan dumalatib yuborish oson ko'chishi uchun ham ayni shu bichimdagi toshni tanlashganiga shak-shubha yo'q, ehtimol, ko'z ko'rib-quloq eshitmagan ajabtovur jazo chorasini kashf etganliklaridan mamnunliklarini yashirolmagandirlar, ayniqsa mahkum bilan xarsang, xarsang bilan mahkum jismi-jasadidagi tafovutni ko'rganda yana, yana bir bor o'z ma'budliklaridan, ma'budona topqirliklaridan behad masrur bo'lgandirlar... ma'budlar!



eshitgansan, bilasan – har bir tirik jon peshonasiga qazoyi haq tamg'asi yanglig' muqarrar gunohkorlik tamg'asi urib qo'yilgan, osiy banda. Hamon shunday ekan, Sizif ham o'ziga ravo ko'rilgan qismat hadyasi oldida bosh egishdan o'zga chorasi yo'q. Axir harchand tavallo-yu dod-faryod ko'tarma, peshonangga yozilganidan qochib qutulolmaysan, inson. Eng ayanchlisi, o'z manglayingdagi yozuvning bir satrini ham oldindan o'qiy olmaysan – istiqbolda nimalar kutmoqda seni, qanday saodatli yoxud qandayin mahzun kunlar yo lahzalar intiq-intizor quchoq ochib turibdi, bilolmaysan. Quvonchli damlarni boshdan kechirganda yaratganga shukrlar qilasan, yetkazganiga shukr deysan, boshingga musibat gurzisi tushganda esa dalli tasalli aniq: peshonamda bor ekan-da, demoqdan boshqaga yaramaysan! Yozig'im shul ekan-da, demoqdan o'zga chora topolmaysan, bechoraga, benajotga, o'jiz-u notavonga aylanasan. Go'yo peshonangdagi yozuvni, jilla qursa, kechikib bo'lsa-da, o'qigandek bo'lasan. Voqea yuz berib o'tdi, ya'ni manglay daftaridagi ko'zga ko'rinmas yozuv amalga ko'chdi, lekin bir narsa e'tiboringdan chetda qoladi – yuz bergan hodisani o'tdi-ketdi deb hisoblaysan, bo'ldi, tamom deysan. Aslida esa... taqdir bitiklarini bitguvchi xattot shu o'rinda bandasiga beminnat hadya in'om etganini, mehribonlik ko'rsatganini unutma, hisobga olib qo'y. Tovoningga zirapcha kirgani ham besabab emas, binobarin, yuz bergan voqea-hodisa ro'y berdi, tamom-vassalom emas, aslo, u hali davom etadi – ibrat ma'nosida, o'goh ma'nosida, da'vat va hokazo ma'nolarda. Aqli bor odamning ko'zi moshday ochiladi. Chunki o'sha ibrat yoxud da'vat atalmish hali-veri nari ketmay boshing tepasiga turfa shakl-shamoyilda aylanishayotgan bulut karvoni yanglig' qaytib keladi, ha, hayoti-dunyoda unga yana va yana ko'plab marta ro'para kelasan. Ehtimol, o'shanda ayni shu voqea ilgari ham – qachonlardir

boshingga tushganini unutib yuborgan bo'lasan, e-voh, deb yuborasan, zinhor kutmagandim, deysan, vaholanki, u shuurning allaqaysi shiyponchasida yaslanib, sening ustingdan beozorgina kulib-kulimsirab turgan, ehtimol, seni mazax qilayotgan bo'ladi.

\* \* \*

Uzundan-uzun hukmi oliy xatmi (bunchalar cho'zish-masa deb qo'ydi Sizif ichida ensasi qotib) adog'iga yetayozgandagina u xarsangtoshning raftoriga boshoyoq razm soldi. Haybatini ko'rib yuragi orqasiga tortib ketdi... Uni dumalatib-dumalatib tik cho'qqi tepasiga olib chiqishni mo'ljalladi, chamaladi. Shul toifa jazo ravo ko'rildi unga, demak, hozirning o'zida uni kishanlardan ozod etishadi va Sizif yo madad deganicha ishga kirishadi... Yoki u taxminda adashdimi? Hukmi oliyni yanglish eshitdimi?.. Boshi g'uwillamayaptimi? Ko'zlari aniq-ravshan ko'ryaptimi o'zi? Axir unga hech bir amr bo'lgani yo'q, ya'ni hozirning o'zida jazoni o'tamoqlikka kirishgaysen, degan amri-farmon o'qilganicha yo'q.

Sizif angrayib qaradi atrofga, qulog'ida shamol guvillashi tinmadi, hukmni durust eshitmay qoldim, degan o'yga-da bordi, lol-u hayronligini yashiradigan ahvolda emasdi u. Jazoning g'aroyibligini aniq va tiniq tasavvur qilib ulgurmagan esa-da, taqdirga tan berdi. Og'irdir... azobdir... mashaqqat chekar, uqubat ostida qolar, illo, ho-ov marrani ishgo'ol etish epini topmay qo'ymas, yo bo'lmasa... Yo bo'lmasa... Yo alhazar!..

\* \* \*

Sizifning qulog'i tom bitdi. Ko'z o'ngida sharpalar, soyalar, bulutlar aralash-quralash qorishib ketdi. Alangladi, qulog'ini ding qilmoqchi edi, ko'ngli behuzur

bo'ldi. Qop-qora va damqisdi sukunat uni asta-sekin komiga tortayotgan – uni bosh tarafidan yuta boshlagan edi! Allaqanday bo'yni uzun maxluqning tor jig'il-donidan tushib borayotgandek his qildi o'zini. Torlik, qorong'ilik va jimlik – sukunat bu qadar qo'rqinchli, hatto ko'ngilga qutqu soladigan darajada dahshatli tus olishi mumkinligini tasavvuriga sig'dirolmasdi Sizif! Nima qiladi endi u? Baqirsinmi? Qichqirsinmi? Faryod qilsinmi?.. Kim eshitadi uning nolasini? Kim yordam qo'lini cho'zadi unga? Kim?! Uni shu maskanga dovur yetaklab kelgan navkarlar, yasovullar qayga g'oyib bo'ldilar! Boshdan-oyoq tuhmatdan iborat hukmni dunyo ahli ko'rmagan adolat tantanasi yanglig' qiroat ila o'qiganlarda so'rog'i bor edi Sizifning! Qani ular?!

Savollar yog'dirish ham, ularga javoblar topish ham zimmasida qoldi Sizifning...

\* \* \*

Bundan ko'ra, hushlariga kelgan boshqa har qanday tarzda paymonasini to'ldirib qo'ya qolganlari ma'qul emasmidi?! Mayli, dorga ossalar... boshini tanidan judo etsalar... tilini qirqsalar... Mayli edi, manavi... manavi bahaybat maxluqni ustidan dumalatib, qizil qonini qora tuproqqa qorishtirsalar!..

\* \* \*

Sizif hushini o'nglab, tilini tiydi. Nimalar deb vaysayapti? Kimga dashnom bermoqchi, endi uning bilarmonligi kimga kerak?! U qo'rqa-pisa xarsangga nigoh yugurtirdi, negadir ko'nglidan, u jondor bo'lsa-chi, degan o'y lip etib o'tdi, yaqinlashmay turib uning bosh-oyog'i, yon-veriga qaradi, bir-bir odim tashlab, qo'l yetar-yet-

mas masofada turib uning atrofini aylandi. Yumaloq, dumaloq, baqaloq!.. Illo, bo'yi bo'yiga teng, xarsangning beliga Sizifning quchog'i yetmasligi aniq, buning ustiga, u yumaloq, dumaloq, baqaloq bo'lgani bilan sip-silliq emas, g'adir-budur, o'ydim-chuqur, qilichning damidek keskir qirralari ko'rinib turibdi. Ayrim joylarini mog'or, po'panak bosgan, ko'rinadiki, u juda uzoq vaqtlardan beri soya-salqin, pana-pastqam bir joyda yotgan-u, asqotadigan mavridi kelganidan uni shu joyda muhayyo qilishgan. Rang-tusi...

Sizif tosh-u xarsangtoshning farqiga borar, Korinf qal'asini devor bilan o'rashda, ayniqsa, bosh qo'rg'on devorlari uchun keltirilgan xarsangtoshlarning sangtaroshlar tomonidan yo'nish ishlariga shaxsan o'zi bosh-qosh bo'lgan, bosh-qosh bo'larkan, allaqancha fursatlar katta-kichik xarsanglar tepasidan ketolmay qolar, bu ajabtovur **tog'** jinslarining aql bovar qilmas shakl-shamoyliga, rang-tusiga, undagi chiziqlar, xollar, dog'-dug'lardan ko'z uzolmas, usta sangtaroshlarni tevaragiga yig'ib olib, o'zini qiziqtirgan va bilmaganlarini tortinmay-netmay so'rab-surishtirar, o'sha bilganlari... mana, mana shu biyobonda asqotib qolishi mumkinligi yetti uxlab tushiga kirmagandi!..

– Har bir xarsangtoshning joni bor, – degan edi mo'ysafid cangtarosh ustaboshi. – Sizif bu tentak chol men bilan maynavozchilik qilishga qanday jur'at etyapti degan o'yda o'qrayib qaragandi mo'ysafidga, biroq sangtaroshning aftida mutoyiba asari sezilmadi, aksincha, u juda jo'n haqiqatni aytayotgan qiyofada va ohangda boshlagan so'zini tasdiqladi: – Faqat bularning ko'nglini topa bilish kerak!..

Sizif attang deya bosh chayqadi. Joni qayda bu baqaloqning? Ko'ngli-chi?.. Shu o'yda xarsangni bir boshdan nazardan o'tkazishga kirishdi. Xarsangning turli yeri

turfa rangda tovlanayotganiga e'tibor berdi, qizg'ish, qirmizi, qoramtir, oqish... xolli-xolli, ajabtovur chiziqlar ayqashib ketgan... xuddi ikkita tosh bir-biriga erib qapishib ketgandek to'g'ri tortilgan chiziqlar... Lang'illab yonayotgan gulxanning qizil-qoramtir tilini eslatuvchi shakllar... Sizif xarsang yaxlit quyma toshmi yoxud yig'indimi ekanligini aniqlolmadi, o'zicha xarsangning betini, ko'zi, burni va qulog'ini belgilab oldi, bir yo ikki juft oyog'i bo'lganidami, Sizif ha-a, chuv, deya uni tirqiratib tepaga yo'rg'alatgan bo'lardi-ya!.. Qulog'idan cho'zib bo'lsa-da, yetaklab chiqardi-ya!.. Biqiniga xala suqardiki!..

\* \* \*

Odam – tik yuruvchi jondor, bu-chi? O'yladi-ya, aytdi-ya, qadam tashlab yura olganida, oyog'ini yerga tekizmay yugurtirmasmidi Sizif uni! Mingoyoqqa o'xshab o'rmalaganida, o'rmalatmasmidi yuqoriga qaratib?! Qanoti bo'lganidami! Oh-h-o-o!.. Yo'q, xarsangtosh yumaloq, demak, u – yumalovchi, dumaloq, demak, u – dumalovchi. Uni dumalatishdan o'zga iloji, chorasi yo'q Sizifning!..

\* \* \*

Uzun oq kunlar ulardan-da uzunroq qora kunlarga ulanib, uyqashib ketdi. Sizif uchun buning ahamiyati qolmadi, u butun borlig'ini, butun maqsad-maslagi, orzu-umidini bir niyatga – xarsangtoshni cho'qqi tepasiga olib chiqishga qaratdi. A'zoyi badanida quvvat paydo bo'lganini seza boshladimi, bas, oq kunmi-qora kunmi, jazm etaverar, kafti, kifti, ko'ksi, manglayidagi loy, tuproq, chang-g'ubor yuqini artmay-surtmay yana va yana xarsangga tashlanar, ehtimol, shu safar, ha-ha-a-a, mana shu safar xarsangni cho'qqiga qadar dumalatib olib chiqishiga bo'lgan galdagi ishonch uning g'ayratiga



g'ayrat qo'shardi. Axir uning ko'z ochib ko'rgani tosh edi, ko'rgani tog' yonbag'ri, tog' cho'qqisi edi. Og'ziga qaysi so'z kelsa, o'sha bilan aytadi tog' va tog' cho'qqisini. Tog', tog' yonbag'ri, tog' cho'qqisi, taqirtepa, mushkultepa, g'urbat tog'i, qir, adir, so'qmoq... Ko'ksini yalang'ochlab osmonga qarab yotgan navrasta qizning hali uch berib ulgurmagan mammasini eslatib yuborardi ba'zan tog' cho'qqisi. Qizemchak!.. Sizif yayrab-yashnab, og'zini to'ldirib, miriqib kuldi. Shirintoy shumtaka nevarachasi hali tili chiqmay turib xotin-qiz zoti yaqin kelsa "mammi-mammi" deganicha ularning ko'ksiga chang solardi... Simobday, nuqraday, parqu bulutday oppoq, ko'zni oladi, qamashtiradi... xayolni xazonday to'zitadi, charchog'ingni tumtaraqay qilib quvadi, yo'q yerdan kuch-quvvat bag'ishlaydi, erkakligingni yodga soladi, tog' mammisi!..

\* \* \*

Nomidan, qiyofasidan qat'i nazar tog' yonbag'ri, o'zi ochgan so'qmoq yo'l qadrdonlariga aylanib ketdi Sizifning. Yumaloq, dumaloq, baqaloq xarsang unga bo'ysunib tepaga tomon o'rmalagani sayin toshni, unga qo'shib taqir tepani, so'qmoqni alqashga tushar, ularning barchasini til biriktirgan qadrdon do'stlari yanglig' aylanib-o'rgilar, biroq bunday xushkayfiyat va xushmuomala uzoqqa bormas, xarsang cho'qqi sari cho'zilgan so'qmoq yo'lning qaysidir manziliga yetgan joyida taqqa to'xtar, hamisoli ikkala oyog'ini bir etikka tiqqan battol hangidek u yog'iga bir qadam, bir qarich ham siljimasdi. Sizif birdan qo'rqib ketardi, qo'rquvga hovliqish ulanardi, so'ng sarosima, tahlika... ozmuncha marta talvasaga tushdimi?! Bularning bari zaiflik, irodasizlik alomati ekanligini eslagan zahoti esa hushini yig'ishga kirishar, vazmin tortar, shu tariqa bezabon tog', bezabon so'qmoq, bezabon tosh-

ga termilgan bezabon odam asta-ohista, asta-ohistalik bilan vujudining allaqaysi puchmoqlarida pusib olgan iroda rishtalarini topib, tutib olar, uni avaylab-ardoqlab himarib-himarib tortib olish yo'llarini izlar, Sizif uchun o'z irodasidan bo'lak madadkor, xaloskor yo'q edi.

\* \* \*

Dunyoning turgan-bitgani irodadan iborat deyishgan. Darhaqiqat, insonni iroda tark etsa yer-u osmon ham, quyosh-u yulduzlar ham behuda-befoyda.

Men esa yangi irodaga o'rgataman odamlarni!.. Ha, mutlaqo yangi irodaga, demak, boshqacha hayot kechirishga o'rgataman! Ana o'shanda boshqacha yashay boshlaydilar odamlar, dunyo boshqacha bo'lib qoladi. Nuqul azob-uqubatdan iborat bo'lgan hayot barham topadi. Nafaqat manavindaqa bejon-benom tosh-tuproqni ko'tarish, surgash-tashish emas, inson zotini oyoqosti va beqadr qiladigan har qanday qora mehnat mashaqqati batamom barham topadi! Inson hayoti hudami-behudami, bama'nimi-hema'nimi, deb yo'q yerdan bosh qotirib o'zlariga o'zlarini azob berib yurishmaydi odamlar.

\* \* \*

Dastlabki kezlar u xarsangtoshni yuqoriga qarab yumalatishda shoshildi, shoshilish ham gapmi, hovliqdi. Qayta-qayta chamalaganida cho'qqigacha bo'lgan masofa aytarli olis emasdek, marra qo'l cho'zsa yetgudekkinaga ko'rindi, shu ham yumushmi-jazomi dedi, nazarida, g'izillab toshni dumalatadi-yu, naq cho'qqining tepasiga yetib boradi, navrasta qizaloqning ko'ksi yoniga toshni qimirlamaydigan qilib o'rnatadi-da, bir muddat mammidan ko'z uzmay qoladi, suqlanib xayoli qochadi. Shundan so'nggina o'zini qo'lga oladi - xarsangning ustiga chiqib

olib butun olamga jar soladi: he-ey-y, odamlar-u odamla-ar, eshitmadim demangla-ar, menkim shahanshoh Eol va malika Enaretning suyuqli o'g'loni, Meroplar sulolasining arzanda kuyovto'rası, Glavkaning padari, Bellerofontaning g'amxo'r bobosi bo'lmish mahkum Sizif kaminağa belgilangan jazoyi haqni, nihoyat, sharaf bilan o'tadim, uddaladi-i-m-m! Ha-ha-he-e-ey-y-y! Mana-a, qarangla-ar, shohidi bo'lingla-ar, xarsangtoshni cho'qqiga olib chiqdim, cho'qqini zabt etdim, zafar quchdim, deya chor tarafga hayqiradi!..

\* \* \*

Dimog'i chog' bo'lgan Sizif xarsang atrofida aylana yasab yugurishga tushganini o'zi ham sezmadi.

- Lakalum lak-lakalum! Laka-laka lak, lakalum!.. Lakalum laklaka-lum! Laka-laka lak, lakalum!..

Sizif, umuman, hayotda juda kamdan-kam, ahyon-ahyonda raqsga tushgan, ixlosmandlarining qo'yarda-qo'ymay urinishlarini rad etishning iloji topilmagan hollarda esa qo'lini nomigagina ko'tarib qo'yar, harakatlari boshqalar tugul o'ziga ham beo'xshov ko'rinib ketardi, endi esa, shu tobda, nazarida, mohir raqqosdek sez-yapti o'zini – gavdasini goh o'ng, goh so'l tomonga tashlab iring'ishlar, sopalak tepayotgan bolakayday lo'killab qo'yar..

Ilhomi jo'shib, qadamini yanayam jadallatdi, xirgoyisi harakatlariga monand sho'x-shodon yangray boshladi:

- Lakalum lak-lakalum! Laka-laka lak, lakalum!.. Lakalum laklaka-lum! Laka-laka lak, laka-laka lak, laklak, lakalu-u-u-m-m!..

O'ziyam rosa aylandi u xarsang atrofida! Xarsang ko'ziga qadrdonidek ko'rinib ketdi. Rosa xumordan chiqdi-yu holdan toydi, shuning barobarida qushday yengil ham tortdi...

\* \* \*

Birinchi bor u ulug' maqsadlar bilan jangga otlanganidan buyon eh-he-e, ozmuncha to'fon-u bo'ronlar uvvos solib bu biyobonga chovut soldilarmi, ozmuncha davr-u davron va ozmuncha zamonlar qaytmas yoqlarga badar g'oyib bo'ldilarmi, ozmuncha bulutlar o'rkach-o'rkach bo'lib, tog'-tog' bo'lib karvon tortib o'tdilarmi?! Lekin, huni qarangki, na kuchi qirgildi, na-da misqolcha g'ayrati so'ndi Sizif azamatning, o'zi esa butun boshli odam-chidamga, odam-bardoshga, odam-irodaga aylanib ketdi. Basharti mo'jiza yuz berib, undan kimdir kelib isming nima deb so'rasa, hech ikkilanmay, ismim matonat yoki ismim bardosh deb, yoki bo'lmasa, turgan-bitganim tosh, xarsangtoshga, cho'yanga, metinga aylanib ketganman deya javob qaytarishdan orlanmagan bo'lur edi. Vaholanki, u haqda, uning boshiga tushgan bu qismat sinovi ustida gap chuvalashtiradigan vos-voslar ne-ne badhazmdan-badhazm va havoyi mish-mishlar tarqatishmadi. Nima emish, Sizif abadulabad besamardan-besamar qaro mehnatga mahkum etilmish, necha zamonlar qaro terga botmasin, u xarsangtoshni cho'qqi tepasiga yumalatib chiqa olasmish, inchunin, Sizif bema'ni, beshukuh, bezavq qaro mehnat qahriga uchragan badbaxt-betole taqdir timsoli deya bitilmish solnomalarda!..

Odamning turish-turmushi doimo bema'ni deya jirtakilik qilganlar bekor aytibdilar! Turish-turmushning bema'nilikka aylanishi ham, uni bama'ni qilish ham har bandaning o'zida qolgan! Men isbotlagayman, men!

Marhamat, bu yo'lda har qanday malomatga tayyorman. Qani edi, betimga yog'dirsalar zahar-zaqqum ta'na-malomat. Kim betimga ayamasdan shapaloq tortar? Kim burnimdan tortib meni kazzob deb aytar? Qani, kim bor? Kela qolsin, qulog'im ding, mana, men hozir-u nozir, men tayyor!

\* \* \*

Sizif toshni yuqoriga qarata dumalatish mashqini alqachon puxta egallagan, dumalatmagan taqdirda ham undan nari ketolmas, go'yo u xarsangga ko'rinmas ip bilan bog'lab qo'yilgandek besh odim uzoqlashdi deguncha xarsang uni yoniga tortib olayotgandek bo'laverar, bunga sari Sizifning mehri tovlanar va ovozining boricha "Laka-lum"lab dumaloq, yumaloq, baqaloq qadr-doni yoniga quchog'ini yozib yetib kelar... ha-a, ho'-o', avvalboshda esa... ko'rgani ko'zi yo'q edi uning turqini!.. Ko'zini ochdi deguncha unga o'qrayib qarar, nigohlari bilan teshib yuboraman degan iddaoda tirk'alar, parchalab tashlayman, mayda-maydangni chiqarib, kulingni ko'kka sovuraman degan po'pisa, dag'dag'a bilan yeng shimarar, bunga sari kuchiga kuch qo'shilayotganini ravshan his qilar, tishlarini g'ijirlatib, kafti, yelkasi, tizasi, tirsaklari azbaroyi toshga, metinga aylanib ketgan-ga o'xshar, o'sha holatida vujudida qaynab-toshayotgan shahdi-shijoatini tasvirlashga so'z, ta'rif topolmasdi. Qayoqdagi mana shu narsani, tag'in jonsiz, ongsiz... ko'rimsiz bir xarsangtoshni ko'rinib turgan tog' tepasiga olib chiqolmaymanmi, menday ongli bir inson-a, kim-san korinflik a'yonlarning a'yonlari, omilkorlikda Sizifda-yin misli kamyob odam-a!.. Qon kechaman, tirnoqlarim o'yilib tushsin, barmoqlarim, kaftlarim majaqlanib ketsa-ketsin, tog'-toshning bag'ri o'pirlilib chohlarga qulasa-qulasin, illo, sen xarsangni tepaga, anavi tep-paga-a olib chiqmaguncha qo'ymayman-n! Qo'ymayman!..

Uning qon-qoniga, vujud-vujudiga singib ketgandi-ya, bu aqida. Musht do'laytirib yaqinlashardi u xarsang yoniga, musht yog'dirardi duch kelgan yeriga, ovozining boricha hayqirar, po'pisalar qilar, haqoratlardan-da tili-ni tiymas, qandoq bo'lmasin sen mening izmimdasan,

bo'ysunmaganingga qo'ymayman, deya shaxd-shiddatini ro'kach qilishdan, pesh qilishdan charchamasdi. Biroq... biroq Sizifning shashti qanchalar baland bo'lsa, ishining unumi shunchalar sezilmas, qadam olishi og'irlashar, goho sakkiz-o'n, goho undan-da pastroq, hatto tikkasiga qarab bor-yo'g'i ikki-uch quloch ilgarilagan bir pallada to'satdan xarsangning qaysarligi tutib, uni qimirlatib bo'lmay qolar, boyagi shasht, boyagi vajohatda Sizif lovullab tirik alangaga aylanar, yorug' dunyoda topilmaydigan haqoratlarini boloxonador qilib do'ldek yog'dirar, odamgarchilig-u insongarchilik degan afandimayllar ho'-o' allazamonlarda o'tib ketgan deya zahrini sochar, jahl chiqqanda aql qayda deganlaridek, yana va yana mushtiga erk berar – xarsangni yuzi-ko'zi demay duch kelgan joyiga savalashdan, tepkilashdan to'xtamas, xarsang qilt etmas, o'zi esa oyoq-qo'llari qip-qizil qonga belangandagina hovurdan tushar, es-hushini yig'ar, alamini kimdan olishini bilmaganidan muk tushib, endi yerni mushtlagani-mushtlagan edi.

\* \* \*

“Aksari xarsangtoshlarning joni bo'ladi”... Negadir mana shu jumla o'qtin-o'qtin Sizifning tili uchida aylanishadigan bo'lib qoldi. Munkillagan sangtarosh ustaboshining qiyofasini ko'z oldiga keltirishga urindi, urinishlari zoe ketdi, lekin uning gapini deyarli aynan takrorlay oldi: “Faqat ko'nglini topa bilish kerak!..” Ko'nglini dedimi yoki tilini?.. “Topa bilish” dedimi yoxud “Uyg'ota bilishingiz kerak” deya Sizifga qarata aytdimi chol? Aytganda ham, ko'zini do'laytirib, zarda qilib aytdi. Xuddi vaqti kelib, kimsan Sizif mana shunday holatga tushishini bilganday, shunday voqea yuz berishi ehtimoldan xoli emas degan ma'noda bashoratomuz qilib aytdi!

Sizif esa yum-yumaloq, dum-dumaloq, baq-baqaloq xarsangning na joni, na ko'ngli, na-da tilini topolayotganidan xunob edi...

\* \* \*

Xarsangtoshning mammisi qayeridaykin? Yoki... erkakmikan u?

"Xayol qursin" dedi Sizif kulgisini yashirmay, shunday desa-da, xayoli izmidan chiqolmadi – "Xarsangtoshning erkak-urg'ochisi bo'ladimi?" deb usta sangtaroshdan so'rasam tilim uzilib tusharmidi, deb peshonasiga shapatiladi.

\* \* \*

Nima qilganda ham, xarsang – tosh-da, Sizifning kayfiyati, ahvol-ruhiyasi bilan zarracha ishi yo'q, o'z bilganidan qolmas va Sizifning qaysidir marraga qadar sarflagan mashaqqat-u uqubatini bir nobop siljish bilan chip-pakka chiqarardi.

Vaziyatga ko'ra, xarsangni ortga siljitaman deb necha bor adabini edi Sizif. Ortga qaytish o'ta xavfli edi, chunki barzangi bir chimdim erki o'zida qolganini sezsa bas, uni tutib qolishning iloji bo'lmas, ehtimol, tutib qolish uchun Sizifdaqasidan o'nlab, yigirmalab azamatning kuchi kifoya qilmas, shuning uchun, xarsang bo'ysunmay boshladimi, Sizif, birinchi navbatda, qanday bo'lmasin, darhol o'zini chetga olib qolishni o'ylashi shart edi. Bunday damlarda xarsang bilan hazillashib bo'lmasligini, u harchand hay-haylashga ham, dod-faryodga, iltijolarga ham beparvo-berahmlik bilan quyiga – cho'qqi poyiga tomon qaldirab-guldirab sho'ng'ishi muqarrarligini Sizif yaxshi bilardi.

Sizif besh-olti quloch yuqorilagan joyida xarsang pastga qarab dumalagan paytlar bo'ldi, uni ne-ne ilm-u

amal, ne-ne xiyla-nayrang bilan dumalata-dumalata cho'qqining yarmiga yetgan paytlar bo'ldi, hatto undan-da yuqoriga ko'tarildi, jonlari hapriqib-ko'pirib ketdi o'shanda Sizifning, marraga qo'l yetguday masofaga ham chiqdi va har safar, har safar yetdim deganda Sizif beixtiyor, "Eh!!!" deb, "Voh!!!" deb, "Voy-ey-y!!!" deb yuborar, har safar butun vujudi ko'zga aylanar va yo'lida duch kelgan tosh-tuproq'-u, yantoq-butoqni ezib-yanchib, qo'porib-majaqlab pastga dumalab borayotgan xarsangdan nigohini uzolmas, zambarakning to'pidek dumalab borayotgan yumaloq, dumaloq, baqaloqqa qarab turib tizzalarini shapatilaganicha qolardi. Ichingga uray, qorningni yoray deb xumordan chiqquncha so'kinardi. Og'zi shaloq odamga aylanib qolayotganini payqab, g'ashi kelar, asli boodob erkak ekanligi yodiga tushib, shunday esa-da, ba'zan bundayin qo'lansa so'zlarning nafi sezilayotganiga iqrar bo'lib ham qo'yardi. Zero, so'kingani sayin mashaqqatlari zoe ketganini ham unutar, xarsangning vajohat ila xuddi quturgan bahaybat jondor singari o'kirib-ayqirib pastga qarab dumalashining oqibati nima bilan tugashini va, nihoyat, xarsang qayerga borib to'xtashi mumkinligini chamalab chamasiga yetolmasdi. Osmonda chaqmoqlar chaqardi, tog'lar larzaga tushar, tog' tizmasiga tutashgan dengiz mavjlari azbaroyi battar moviylashib, tund qiyofa hosil qilardi har safar. Toshni dumalashdan to'xtatadigan, uni ko'tarilgan joyida asrab qoladigan kuch bo'lmasdi atrof-javonibda bunday damlarda.

Qiziq, har safar toshga tarmashar, uni joyidan jildirib, cho'qqi tomon siljita boshlar ekan, Sizif bu galdagi yurish tog' yonbag'rining qaysi mazgiliga qadar davom etishini chamalay olmasdi. Nafaqat kuch-quvvati yetmasligi, balki toshning pastga qarab sho'ng'ishining sababi ko'p edi – sababidan qat'i nazar, lahzaning yuzdan



bir soniyasi, nafasida hamma urinishlari chippakka chiqar, Sizif es-hushini yig'ishga ulgurmas, hushyor tortib ulgurmas, chapdastlik qilishga ulgurmas – alay-balay deganicha xarsang o'zidan shiddat bilan uzoqlashayotgan bo'lar, qanchalar mashaqqat va uqublatlar evaziga imillab ko'tarilganiga teng shiddat va dengiz to'foni yanglig' g'alayon bilan pastga sho'ng'ir, xarsang ho'-o'etakka yetib, harakatdan to'xtaganida Sizif hali nafasini rostlolmagan, alamidan tilini, lablarini chaynab-g'ajib, qon tuflab ulgurmagan bo'lardi.

\* \* \*

Sizifning birdan-bir maqsadi xarsangtoshni cho'qqiga olib chiqish esa-da, g'alat, har safar xarsang pastga qarab dumalaganida unga qarab turib, undan ko'z uzmay turib birdan shu qadar yengil tortardiki!.. Yelkasi-dan tog' ag'darilgan-u, boshi uzra suzayotgan oppoq bulutdek vaznini his qilmay qo'yardi, mana, hozir, shu topning o'zida osmon-u falakka ko'tarilib parqu bulut yanglig' olis-olislarga uchib ketadigandek holatga tushardi...

\* \* \*

Tuyqus Sizifning ko'zi qamashdi. Mamnun jilmaydi, kaftini soyabon qilib cho'qqi tomonga qarayotib: "Quyoshning qiligi!" deb qo'ydi ichida alam bilan. Ancha bo'ldi, u mammini quyosh nurlaridan, goho esa bulutlardan qizg'anayotganini sezib qoldi. Dastavval bunga e'tibor bermadi, miyig'ida kuldi-qo'ydi, biroq asta-sekin qizg'anish ochiq-oydin rashkka aylana boshladi, qanchalar o'zini qo'lga olishga urinmasin, bunday holatlarda Sizifning ichiga yovvoyi mushuk kirib olgandek bo'lar, o'zini qayoqqa urishini bilmas, yana va yana alamini xarsangdan olardi.

U ko'zlarini chirt yumdi. Kifoya qilmadi, kafti, bilaklari bilan yuz-ko'zini to'sdi. Shunda ham zarang tayoqdek toshqotgan barmoqlari orasidan oppoq tog' mammisi simobday nur sochib ko'rinib, ko'rinib emas, jilmayib turardi.

Sizif boshini tog' cho'qqisining kunchiqar biqinida yastanib yotgan dengiz tomon burdi. Dengizning qorni baqaloq odamning qorni kabi shishib ketgan, o'rtasi to'ng'irilgan qozonga o'xshab ko'rinar, dam qorayib, dam ko'karib jilvalanayotgan suv sathida to'satdan paydo bo'lgan oftob shu'lası (ajabo, oy shu'lası ham Sizif tomonlarga dengiz sathi orqali taralar, u oftobni ham, oyni ham bevosita ko'rish saodatidan mosuvo edi) tushar, goh yolqinga aylanib nur sochar, goh xanjardek tig'dor nurlarini to'g'ridan-to'g'ri uning ko'zlariga qadayotgan, Sizifning esa azal-azaldan negadir tonggi oftob yog'dusiga toqati yo'q edi. Jini suymasdi.

Aftini ters burdi u, qosh-ko'zi aralash oqib tushayotgan terlarini bilagi, so'ng dag'al kaftining sirti bilan surib tashladi, biroq ko'zlari battar qamashdi. Cho'qqi tomondan nigohini olib qochdi, "Quyoshning kasofati!.." deya takror g'udrandi va, ittifoqo, dengiz sathida choqqina qayiqchada suzib borayotgan... Odam!.. Odam!.. Chol-ku!.. Qariya-ku!.. Sevinganidan, xursandligidan hushini yo'qotib qo'yayozdi u, shu qadar entikdiki, shu qadar joni bo'g'ziga tiqildiki, loaqal, "Ho-oy-y!" deya ovoz chiqarolmadi.

Hayqirish qayoqda, dami chiqmadi Sizifning. Esi ni yig'ib olgunicha esa chol qayiq-payig'i bilan ko'zdan g'oyib bo'ldi... Allaqancha vaqtgacha Sizif dam cho'nqayib, dam qad rostlab turgan joyidan qimir etmadi, biron lahza dengizdan nigohini uzmasdi, chol yana paydo bo'ladi deb ishondi, shunda, ko'ringan zahoti ovozim boricha baqiraman, chinqiraman, dod solaman deya shaylandi, hatto qanday baqirishni, nima deb chaqirish-

ni o'zicha mashq ham qildi. Xarsangtoshni qiyalik tepasi tomon yumalatishni kanda qilmasa-da, allaqancha vaqtlar fikr-xayoli dengizda, aniqrog'i, qayiqda eshkak tutib o'tirgan cholga ko'chdi.

\* \* \*

Zevsning qahriga uchramasligi juda-juda oson edi Sizifning. O'zi barpo etgan Korinf qal'asida davr-u davron surib umrguzaronlik qilishiga hech qanday monelik yo'q edi. Faqat qurg'oqchilik yomon qaqshatdi Korinf aholisini. Qultum suvning qadri nondan, havodan-da oshdi. Zaxira adog'iga yetayozdi. Nima qilmoq kerak?.. Sizif halovatini yo'qotdi. Xaloyiq undan najot kutardi. Shunda... Har qanday dardning soyasida uning davosi pusib yotadi degan qadimgilar. Sizif ana o'sha davoning topilishiga ishonardi. Lekin bu davoning... Egina qiz ekanligi Sizifning yetti uxlab tushiga kirmagandi. Bordi-yu, Egina go'zallikda tengi yo'q sohibjamol bo'lmaganida ham, bordi-yu, u suv tangrisi Asopning suyakli arzandasi bo'lmaganida ham, bordi-yu, bokira Eginaga ilohlar ilohi Zevsning nazar-nigohi – ishqiy tushmaganida... Sizifning boshiga bu kunlar tushmasmidi?! Kimsasiz bu maskanda – yer tarvuzining ustida, osmon tog'orasining ostida o'ziga nisbatan bir necha barobar barzangi xarsangtoshga kiftini bosib xayolga tolib o'tirmagan, abadiyat qadar cho'zilgan umri zil-zambil baqaloqni osmono'par tog' cho'qqisi sari yumalatib olib chiqishga besamardan-besamar urinishlar bilan o'tmasmidi! Malaksiymo bokira Egina!..

\* \* \*

Dengiz yuzalab suzayotgan qariyani qayta ko'rishdan tamoman umidini uzgan, unutayozgan kezlardan birida u, ittifoqo, yana paydo bo'ldi! Sizif aynan birinchi safar

ko'rgandagi ahvolga tushdi. Avvaldan o'ylab qo'ygan niyatlarini butkul unutdi. Aksincha, bexosdan tovush berguday bo'lsa, chol yana ko'zdan g'oyib bo'lishini o'yladi, qani, nima bo'larkin, qayergacha suzib borarkin, men tomonga o'girilib qararmikan deb nafasini ichiga yutdi.

Chol yelkador, qaddi xiyla bukik, qoq yelka suyaklari turtib chiqqanigacha, eshkakni og'ir va bir maromda eshayotganigacha Sizif aniq-tiniq ko'rdi. Va ana endi bemalol chaqirsam ham bo'ladi degan xulosaga kelgan soniyada... ha, xuddi shu lahzada chol yana g'oyib bo'ldi!..

– Cholni dengiz yutib yubordi!

Sizif bu fikrdan toriqdi-yu, lekin chol yana qaytib dengiz sathida paydo bo'ladi degan ishonchini yo'qotmadi.

\* \* \*

Sizifning aniq yodida yo'q: Egina qizning g'oyib bo'lishi boisini u Asopning qulog'iga shipshidimi yoxud voqeadan xabar topgan Asopning o'zi najot umidida uni izlab Korinf darvozasi ostonasiga bosh urib keldimi, har qalay, hammasi Egina qiz fojiasidan boshlandi. Boshlandi-yu, unga xudolar xudosi Zevs amri ila yog'ilgan ta'qib-tazyiqlar to'foni ulanib ketdi. Zevsning nafrat-g'azabini olovga, alangaga aylantirib keldi u tomondan yo'llangan lashkar.

Vaholanki, Sizifning bor-yo'q gunohi uning boxabarligi edi. Boxabarligi pand berdi unga. Ha, u Egina qiz paritimsol va xushqad go'zallar kushandasi bo'lmish Zevs tomonidan o'g'irlab ketilganidan xabar topdi. Abadulabad o'zgarmas aqida shu – ma'budlar nazar-nazdda xabardor kimsadan xavfliroq jonzot yo'q. Xabardor odam sherdan, arslondan, sirtlon-u ajdahodan... to'fon-u vulqondan-da xatarli. Dunyoning xatari – xabardorda!

Boz ustiga, Sizif singari haqparast, adolatpesha va betgachopar xabardorlarning turgan-bitgani tirik ziyon. Undaylarning boridan ko'ra yo'g'i avlo!..

\* \* \*

Qayiqdagi chol uchunchi daf'a ko'ziga ko'ringanida Sizif sas-sado chiqarmay uni obdon kuzatishga qaror qildi. Suv sathida ohista chayqalib borayotgan qayiq suzyaptimi yoki bir joyda... Chol eshkak eshyaptimi?.. Qo'llari eshkakda, lekin... Har safar qanday ko'ringan bo'lsa, o'sha-o'sha – kallasini ko'ksiga osiltirganicha qimir etmay o'tiribdi. Qo'llari eshkakka bog'lab-chandib tashlangan bo'lsa-chi?!

Sizif bu fikrdan xayolga botdi: nega bog'lashadi? Nima, chol baliqchimi yoxud bandi-mahbusmi?.. Sizif xayollari po'rtanasida g'arq ekan, ustma-ust yopirilib kelgan to'lqin qayiqni allaqayoqlarga olib ketdi.

Sizif bu safar ortiq achinmadi, kuyunmadi ham, balki nazar-nigohidan sharpadek g'oyib bo'lgan qayiq tomondan ko'z uzmay turib o'zi ustidan chiqarilgan hukm mohiyatidagi adolatsizlikni payqab qoldi. Unga yonida g'o'dayib turgan xarsangni tog' cho'qqisiga olib chiqish jazosi belgilangan, biroq hukmda uning yolg'iz-kimsasiz qoldirilishi haqida lom-mim deyilmagandi. Nega endi uni yolg'iz qoldirishdi? Axir inson har qanday holatda fikrlaydi, fikr odami esa gapirmasdan iloji yo'q. Inson ichida yetilgan gapni gapirma yorilib ketadi, shu bois u tinmay gapiradi, har qanday inson aytar gaplarini tinglovchi mahramga muhtoj, ichini bo'shatmaslikka hukm etilgan odamning ahvoli esa... dahshat!.. Ofat!.. Falokat!..

– Gapiray-da, qutulay, – deb yubordi Sizif. – Ichimga sig'magan gaplarni gapiray-da, qutulay, gapiray-da...

\* \* \*

Ba'zan Sizif og'zi gapdan to'xtamayotganini, hatto aljirayotganini to'satdan sezib qolar, bu odatining yaxshi-yomonligi haqida o'ylab ham ko'rmas, odamni gapiruvchi hayvon, jondor deb bilardi u. Faqat u ovoz chiqarib gapiryaptimi yoxud tovushi chiqmayaptimi – bunga ham ko'p-da e'tibor qilmaydigan bo'lib qolgandi.

Inson ovoz chiqaradimi-chiqarmaydimi, nima farqi bor, u hamisha ichida gapirayotgan bo'ladi axir. Yaxshiyam, o'ziga o'zi gapirish, o'zi bilan o'zi gaplashish taqiqlanmagan!.. Yolg'iz odam ham istaganicha gapirishi, so'ylashi mumkinligini hisobga olishmagan chog'i... Qayiqdagi qariya ham yolg'iz... U kim bilan gaplashadi, kimga dardini yozadi?.. Baliq tutish dardida dengizga chiqqan-u, adashgan. Holdan toyganmi?.. Yo'li olismikan yo?.. Bepoyon dengiz uzra behuda-besamar suzib yurish Sizif singari qismatiga bitilgan jazo bo'lsa-chi?!

\* \* \*

Tag'inam Zevsdek uddaburon ma'budlar ma'budni taysallab, katta xatoga yo'l qo'ydi, u zarracha o'ylamay-netmay mulozimlariga amr qilmog'i, Sizif bilgan narsani oshkor etmay turib, zudlik bilan uni el-ulus nazaridan olislarga gumdon qilmog'i, olislar ham gapmi, oyoq-qo'lidan tutganicha osmon-u falakka olib chiqib, yerga irg'itib yuborishlari shart edi. Oliy istakka istehzo ila qiyo boqqan ko'zlarni o'yib olmagan xudoning xudoligi, ma'budning ma'budligi qoladimi, axir?! Kim nima desa-desin, illo, qattol saltanat yo'rig'i shafqatsiz!

- Olampanoh Zevs o'z sha'n-shavkatiga yarashmagan qilmishga qo'l urdi. U suv va daryolar ma'budi Asopning bokira farzandi-arjumandi Egina qizga ko'z tikdi - uni o'g'irlab, haramiga yashirdi-i!..

Sizif endigina baralla aytyapti bu gaplarni, u damlar esa dilidan tiliga ko'chmagan shu xabar ma'budlar nazdida, shumxabar deya talqin topdi.

Talqin yedi Sizifni! Talqin boshiga yetdi!..

\* \* \*

Shafqatsizdan shafqat tilanma aslo, zero...

– Nechun bording bozorgoh, mal'un?!

– Nechun borurlar bozorgoh, ma'bud?

– Gap o'ynama, betavfiq sayoq! Va'z o'qimoq edi niyating,

– Niyatim – haq bo'lgan mudom! Hamon...

– Hah-ha-a, haqiqat?! Haqiqat – g'uluv!..

– Dildan tilga ko'chmagan kalom...

– Tamom-m! Tamom-m! Batamom-m!..

...Chorsu bozoriga borgani chin, maydon oralab o'tgani rost.

Shunda banogoh – unga nigohi tushgan xaloyiq turgan joyida suratdek qotib qolar, unga angrayar, undan so'z kutar, bunday holdan Sizif ham hayron, zotan, dilida haq axbor qaynagan – boxabar odamning har bosgan qadami, har tashlagan nazari bir hikmat ekanligini o'zi ham anglamagan..

Ma'budlar ustidan g'alaba qozonish esa tentaklik, telbalik – davomi esa xatar-tahluka. Illo, Sizif qilmishidan afsuslanmadi, aksincha, ma'budlar ma'budining haddidan oshgani meni haddimdan oshirdi, deya oqladi o'zini. O, idrokim, qonlarga to'l, qonga to'l chanqoq, dahshat solib yasha yoki yashama mutloq!.. Ha, shundoq: arslon – izardan, erkak – so'zidan!..

\* \* \*

Kimdandir yoki nimadandir qochib kelgan quyuq bulut go'yo jon saqlamoq umidida dengiz suviga chaplashib ketdi, bulut qayda, suv qayda, Sizif ajratolmay qoldi. Suv

to'q ko'kimtir, deyarli binafsharang tusga kirib... Sizifning ko'zini achishtirdi. U picha chidadi, o'zi zabt etishga chog'langan tog' cho'qqisining yonginasida yastanib yotgan dengizning bulutlar xurujiga uchragani... hozirgina jilvalanayotgan moviy suv sathidan ko'z uzolmadi, axir poyonsiz dengiz sathi jimir-jimir qilib shivirlayotganga, olis-olislardan esayotgan shabada suv sathini erkalayotganga, suv mavjlanib-erkalanib noz-karashma qilayotganga... Sizifga kuch bag'ishlayotganga o'xshayotgandi. Baliqchi qariya boshqarayotgan qayiqning dengiz uzra bir maromda suzib borishiga havasi kelayotgandi. Chol chiranmasdan, bir me'yorda eshkak urayotgan, Sizif sirti tep-tekis, silliq va, ayniqsa, yumshoq-momiq suv sathidan suqlana-suqlana ko'z uzolmayotgan, beixtiyor boshini azot ko'tarib o'zi zabt etmoqlikka qasd qilgan qoya tomon ketgan yo'lni nazardan o'tkazayotgan, damo-dam chol qayiqni oqim izmiga qo'yib qo'llariga dam berayotganini ko'rganida o'zi bunday imkoniyatdan mahrum ekanligini yana va yana taqdiri azaldan, qismatidan ko'rib, ich-ichidan ezilayotgandi.

\*\*\*

Sizifning boshi uzra Tanatosning<sup>1</sup> qora bulutlari quyuqlashdi. Sizif bo'sh kelmadi – to'g'ri, u o'ziga yetgan-cha hiylakor edi, uncha-munchaga bo'sh kelmasdi, uncha-muncha nayrang tuzog'iga ilinmasdi ham. Tanatosga bo'ysunish o'lim bilan teng, ya'ni jallod tig'iga gardanini tutishning o'zginasi edi. Buni yaxshi bilgan Sizif birdan-bir to'g'ri yo'lni tanladi – u o'lim ma'budini qulluq ila qarshi oldi, unga ojiz va notavon qiyofada ro'baro' bo'ldi. Biroq u mazlumning yovuzlikka qarshi isyoni – hiyla degan aqidani qo'llayotganini hech zog' payqamadi.

<sup>1</sup> Tanatos – Qadimgi Yunonistonda: o'lim ma'budi.



\* \* \*

Sizif ovozining boricha xaxolab tog'-u toshni boshiga ko'tardi, quloq tutdi – tog' kuldi, cho'qqi kuldi, o't-o'lan-u ho'-o' naridagi dengiz mavjlana-mavjlana kuldi. Sizifning shumligi tutdi, u ro'parasida baqrayib qolgan g'animini mazax qilayotgan g'olib sarkarda yanglig' istehzolarga to'la basharasini ko'z-ko'z qilib kuldi. Haqqirost ma'bud bo'lsa, ko'nglimda yetilib turgan niyatimni payqamasmidi?! O'zini ma'bud deya jar solgan ma'bu-ud, ma'bu-ud, hammasi o'zicha ma'budchalar; yaramaslar!.. Kulgi uni xumordan chiqarolmadi, birdan jiddiy tortdi, yo'q, na'ra tortdi, na'ra:

– Senmi meni dog'da qoldirmakka chog'langan jazo? Menmi senga kalaka-ermak? Shul xarsang, shul tog' bo'ldimi yo'limda paydo?! Mening yo'limda-ya?!

Sizif xarsangni dast ko'tarib hov dengizga qaratib uloqtiradigan vajohatda qo'llarini boshi uzra musht qilib do'laytirganicha atrofga zahar purkadi. Keyin nima bo'ldi, keyin? Nima bo'lardi, olam ahli ko'rmagan-netmagan hodisa yuz berdi – Tanatos g'aflatda qolganini anglab yetishga ulgurmay, Sizif uni zanjirband etib, zindonga tashladi, zindonga! To'fon tutdi olamni, betinim va betizgin chaqqan chaqmoqlar momaguldurakka aylandi – olam toshqin ostida qoldi. Jala quydi, sel quydi. Sizif Korinf ulusi ichmog'i uchun suv so'ragandi – kechagina qultum suvga zor aholi necha kun-necha oy tinimsiz yoqqan jala ostida g'arq bo'ldi, g'arq!.. Biroq Zevs niyatiga yetolmadi, ya'ni o'lim ma'budi Tanatos zindonband ekanligi bois yer yuzida o'lim to'xtagandi.

Zevs talvasaga tushdi!..

\* \* \*

– Qirg'inbarot o'limning to'xtashi Zevsni dahshatga, talvasaga soldi. – Sizif xarsangtoshga kiftini tiragan ko'yi

cho'nqayganicha unga razm soldi. Xarsang zil-zambil sukunatga ketgan, aftidan, u ohista boshlangan hikoyaga butun vujudi bilan quloq solayotgandi. Sizif davom etdi:

– Zevs o'liklarni ham, undan battar tiriklarni ham ko'rgani ko'zi yo'q edi. Osmon-u falakdan yog'iladigan, odamlar boshiga mingdan-ming ofat-talafotlar yog'di-radigan yog'in-chaqinlar xudosiga va tangrilar tangrisi degan oliy sharaf sohibiga aylangan bu kimsaning kimdan va qay tariqa dunyoga kelgani ahli avomdan pinhon tutilgan.

Endi o'ylab ko'rsa, shu xabardorligi, ya'ni Zevsning nasl-nasabini hesh qo'lday bilishi Sizif ustidan o'qilajak hukmning shafqatsizligini belgilab bergan edi. Xullas... avvalboshda Kronos va Reya oilasida totuvlik, xotirjamlik hukmron edi. Biroq bu osudalik uzoqqa bormadi – Reya farzand ko'rdi deguncha Kronos ularni hayal-latmay paqqos jig'ildoniga urishni odat qiladi. Volida Reya uvvos soladi, faryod chekadi, eri Kronos esa o'z farzandlaridan biri tomonidan mahv etilajagi haqidagi bashoratdan tinchini yo'qotgan, taxt-martabadan mosuvo bo'lishdan ko'ra nasl-nasabsiz qolishni afzal deb bilgani bois razil odatini kanda qilolmasdi. Joni o'rtangan Reya navbatdagi homilasi – Zevs dunyoga kelgan zahoti uni o'rab-chirmab yashiradi va uning o'rniga eriga choyshabga o'ralgan tosh parchasini taqdim qiladi. Kronos toshni yutib yuboradi. Oradan necha fursatlar o'tib, Zevs voyaga yetadi va, bashoratda naql qilinganidek, qonxo'r va odamxo'r padaridan tug'ilmay nobud bo'lgan aka-opalarining xunini oladi.

O'sha otadan dunyoga kelgan Zevs o'zi ham padar qarg'ishiga, so'ngra qismatiga giriftor bo'ldi. Otameros qonxo'rlik qismati Zevsni bachajish – chaqaloqxo'rga aylantirdi, biroq, hayhot, u bu borada otasidan o'tib tushdi, ya'ni taqdir lavhiga bitilgan qatliom qisma-

tidan omon qolish ilinjida ko'z ochib ko'rgan jufti haloli Metidanı tırıklayın yutadi. Onaning vujudida jon saqlagan homila esa rivojlanishdan to'xtamaydi, balki ota miyasidan ozuqalanish hisobiga rivoj topadi va vaqt-soati yetgach, dunyoga keladi...

Sizif hikoya qilishdan bir zum to'xtab, uzoq tin oldi. Nima qilsin – aytsinmi-aytmasinmi, yo'q, u bashorat qilish niyatidan yiroq, faqat shoh Ibn K. bilan bog'liq voqea... Shunday bir zamonlar keladiki, shoh ibn K. kibr-u havoda o'zini osmon ustuni deb e'lon qiladi. O'z qo'l ostidagi yurtda bunga shubha bilan qaraganlarni, ularga qo'shib ma'lum-u mashhur zotlarni yoppasiga qatliom etadi. Nima bo'ladi-yu, bexosdan uning burniga chivin kirib ketadi. Harchand urinmasin, ayyuhannos ko'tarmasin, chivinni qaytarib chiqarish epi topilmaydi, chivin esa uning miyasini kemirish hisobiga kun va soat sayin kattalashib sichqondek bo'lib ketadi. Shoh ibn K. o'lmay turib jahannam azobini ko'radi... Sizif bu hikoyani so'zlab yuborishdan o'zini bazo'r tiydi<sup>1</sup>. Lekin Kronos va Zevs ikkovi asli xudosiz badbin ekanliklarini aytdi. Ochiqchasiga aytdi, dona-dona qilib aytdi:

– Kronos va uning zurriyoti Zevs – ota va o'g'il xudosiz bo'lganlari uchun ham o'limni dahshat deb bilardilar, zotan o'lim gunohkorlar nazdidagina dahshat va ayanch manbaidir!..

Xullas, mana shunday mal'un xudosizlar o'zlarini ilohga, ma'budga mengzaganlari, haramini esa manfur ishratxonaga aylantirgani nima uchun ahli ommaga oshkor bo'lmasligi kerak?! O, badkirdor, o, yaramas, qonxo'r, muttaham, o, la'nati xotinboz! Oh, qaydasan qasos, qayda intiqom?! Po'stkallasin aytsam, eshaksan, eshak... beshak!..

<sup>1</sup> "Qur'onı karım"ning "Baqara" surası 258-oyatida naql qilingan rivoyat.

Sizif o'rnidan irg'ib qad rostladi, azbaroyi junbishga kirganligidan bukik qaddi rostlandi – bo'y-basti xarsangdan-da tik, mahobati xarsangdan-da ulug'roq ko'rindi. Davom etdi:

– Uning kirdikorlaridan so'z ochgan kimsa borki, g'iybatchi, g'anim, yurtbuzar muttaham deya e'lon qilindi, betlariga qora chaplandi. Ko'z yetmas, qo'l yetmas, so'z yetmas maskanlarga badarg'a qilindi. Qizining hajrida kuyib ado bo'lgan Asop esa dom-daraksiz, nom-nishonsiz...

Sizif birdan jim bo'lib qoldi. Boshlagan so'zini nihoyasiga yetkazmay tilini tishladi. Yana nima jin urdi uni? Yana ne maqsad-muddaoda tiliga erk bermoqda? Bejon-behis xarsangtosh-ku, deb o'yladimi? Unday desa, joni-ko'ngli bo'lsa-chi, bu baqaloqning?! Toshda ham ruh bor deganlar. Oh, yoriltosh-yoriltosh, ich-ichingni ochayin, men qalbingni ko'rayin... Yorila qol, yoriltosh... Meni aldadi, ko'ppak, qari sangtarosh!.. Ko'ngil nima qilsin, bul... Maxluqmidi, jondormidi, kas-u nokas bandamidi, bu xarsangtosh?!

\* \* \*

Sizif aytganlari toshga yuqmasligiga ishonchi komil edi, jigarporasi hajrida adoyi tamom bo'lgan padar – Asopning dom-daraksiz g'oyib bo'lganidan og'iz ochgan joyida... boshi, yelkalari aralash mayda qum zarralari yog'di. Sizif hayron bo'ldi, birdan hikoyani cho'rt uzdi-yu, yuqoriga qaradi, tuyqus "qirs-s" etgan sas eshitildi. Sizif dabdurustdan buni tushunmadi. Aqli bovar qilmadi, vaholanki, aniq-tiniq eshitdi! Zum o'tmay sapchib oyoqqa qalqdi va, nazarida, xarsangtosh charsillab, parchalanib tushadigandek xavotirda toshning panasidan otilib irg'ib chiqdi. Ortiga o'girilib xarsangga bosh-oyoq razm soldi.

Tosh qilt etmay turardi. Vaholanki, necha zamon-necha davrlar o'tdi-ketdi, Sizif xarsang loaqal qilt etsa-chi, deb xunobi oshar, achchiqlanar, ayyuhannos ko'tarar, nor tuyadek o'kirib yuborar, tuya emas, ayni achchig'i chiqqan damlarda filga aylanib qolsa-yu, qudratli xartumi bilan xarsangni dast ko'tarib!.. Yo'q, fildan ham biror ish chiqishiga ko'zi yetmaydi, yaxshisi, Briareyga<sup>1</sup> aylanadi! Mushkuli osonlashadi shunda, xarsangni kiftiga qo'ndirib, yuzta qo'lini ishga soladi – qo'lma-qo'l qilib, ha, shunday – xarsangni kiftiga qo'ndirib, tog' cho'qqisi ekan-ku, osmon-u falakka qarata irg'itadi, soqqa quvib yurgan boladek, istasa, pastga qarata dumalatadi, istasa, tepaga – cho'qqi tomon chopqillab-irg'ishlab ko'tarib chiqadi!.. Biron qadami zoe ketmaydi uning!

Sizif shunday dedi-yu, ko'kka qarab xuddi tavallo qilayotgandek o'zining kutilmagan kashfiyotidan mutassir bo'lib qoldi! Hech bir harakat zoe emas... Behuda, besamar, bema'ni emas!.. Emas, emas, emas-s!.. Qumursqaning qadam olishidan tortib Yer va Quyoshning ikki sevishgan qalb sohiblari yanglig' bir-birining atrofida aylanishigacha – hikmat, hikmat, hikmat! Yer Quyoshning atrofida aylanadimi yoxud aksinchami – nima farqi bor deya befarq bo'lish nahot aqli raso odamga yarashsa?! Omilik, betavfiqlik emasmi bunday fikrlash! Bunday nusxalar yer-u quyosh harakatdan to'xtagan taqdirda ham pinagini buzmas! Sizif uchun esa... xarsangtosh tepasidan qum zarralarining uchib-to'kilib tushganidayoq olamcha hikmat mavjud. Ha, shunday, harakat mavjud joyda ma'no-mazmun, mohiyat mavjud. Najot quruq irodada emas, yo'q, harakatga aylangan irodada! Ma'no-mazmun va mohiyat mavjud ekan, hech bir irodali xatti-harakat behuda-bema'ni ketmaydi.

<sup>1</sup> Miflarda tasvirlangan yuz qo'lli va ellik boshli maxluq – dev.

Adoqsiz harakat bekor, boqiy harakat besamar-bema'ni deganlarning o'zlari, so'zlari bekor-bema'ni-besamar!..

Sizif bir joyda turolmay qoldi, birdan tovushining boricha baqirgisi-hayqirgisi, shu bilan tog'-u toshdan, osmon to'la bulutdan, bulutlarga tutash dengizdan, xarsangdan... mammidan suyunchi olmoqchi edi. Turgan joyida chir aylanishga tushdi. Aylanaverdi-aytaverdi, aytaverdi-aylanaverdi. Yaxshi yashamasa-da, mayli, azob-uqubat cheksa-da, rozi, illo, qanday bo'lmasin uzoq, uzoq, judayam uzo-oq yashamog'i hikmatdir-hikmat! O-o, Sizif! Chir aylanib aytdi: yaxshi yashashni emas, uzoq yashash avlo! Oh-ho-o, Sizi-i-f! Aytib-ay-tib, gir-gir aylanib – usta kulolning charxidan shiddatliroq joyida aylanib aytdi: yaxshi yashash emas, uzoq, uzoq, uzo-oq yashashdan va zinhor-bazinhor harakatdan to'xtamay yashashdan o'zga oliyroq orzu-havas, ilinj-istagi qolmagan Sizi-ifning! Haqiqa-at!.. Haqiqa-a-at-t!.. Totli haqi...

Sizif suvdan bo'kib chiqqan... itdek silkindi, tamom holdan toygan, a'zoyi badani shalvillagan, lekin ichi... vujudi... shuuri toza-tiniq edi, betini ko'kka qarata ko'zlarini yumdi, shu alfozda yanayam sergak tortishga harakat qildi, biroq o'zining qayerda, qanday holatda, qay vaqtda yakka-yolg'iz qaqqayib turganini anglab yetmay, bosh chayqaganicha og'iz juftladi:

– Yaxshi yashash emas, uzoq yashash... Quruq irodaning o'zi emas, harakatga aylangan iroda bunyodkor, yaratuvchidir, shunday iroda omon ekan, poyonsiz ma'nisizlikning adog'i – bama'nilik, ushbu bama'nilikka yetishmoqlik yo'lidagi mashaqqatlarga bardosh berishda esa sabr-toqat, sabr-toqat, sabr-toqat...

Xarsangtoshning allaqayeri qarsillab ketdi, favqulodda beo'xshov qarsilladi, Sizif dabdurustdan buning qanday tovush, shovqin ekanligini tushunolmadi, ko'zlari yalt etib ochilganicha xarsangni bosh-oyoq nazardan o'tka-

zishga tushdi, angraydi-alangladi, nafi bo'lmadi, darhol es-hushini yig'di, shunda xarsangga qapishishning, uni joyidan siljiy boshlashiga qarshilik ko'rsatishning hojati qolmaganini sezdi. U tamom holdan toygan esa-da, g'oyatda chapdastlik bilan jon holatda o'zini chetga tortdi.

Xarsangtosh bir siltandi-yu, ayyuhannos solib, olamni boshiga ko'targanicha pastlikka qarab dumaladi!..

## II

To'xtovsiz o'tkuchi zamonga inson dosh bermasligi, tog'-u tosh, xarsangtosh dosh bermasligi mumkin, boringki, xalqona hikmatning ohori to'kilishi ham uchraydigan hol, ammo-lekin, hammasidan dahshatlisi, Sizifning nazarida, vaqt taqa-taq to'xtab qolgandek, u vaqt tushunchasini allaqachonlar unutib yuborgani edi... Yilni ham, kunni ham, soat-u daqiqalarni ham unutdi u. Vaqtни unutgan o'zini ham unutadi. O'zini unutgan odam mo'ljalni, rejani, hisob-kitobni unutadi. Yashamayotgandek yashaydi.

Bunday holatga tushgan odamning ahvolini yaxshi bilardi Sizif, bir xayoli, qanday bo'lmasin, vaqtning hisob-kitobini olib borishga astoydil kirishgandi ham, biroq bu niyati amalga oshmadi – nima, qachon yuz berganining nechog'lik ahamiyati, qimmatı bor? Qolaversa, Sizifning tosh yumalatishdan bo'lak boshqa hech qanday maqsadmaslagi, vazifasi qolmagan. Uchrashadigan, gaplashadigan odami yo'q – u yolg'iz. Ko'rgan-kechirganlarini dos-ton qilib, kimlargadir arzihol qilish niyati ham yo'q.

Shu o'y-xayolda beparvolik qilgandi, boshqa muammoga ro'para keldi: vaqt o'tyaptimi yoxud taqqa to'xtab qoldimi, axir vaqt imillab yoxud jadallab o'tib turgani qandaydir belgilar yordamida sezilib turmog'i kerak-ku! O'zining mavjudligini sezmaslik, his qilmaslik bunchalar og'ir kechishini tasavvuriga keltirmagandi Sizif.

\* \* \*

Sizif xarsangtosh tepadan pastga qarab necha martalar dumalaganini sanamay qo'yganiga, eh-he-e-e, allaqancha zamonlar o'tib ketdi. Dastlabki kezlar oh deganicha, voh deganicha qarsak urib qolardi u. Alami-dan labi-yu tilini chandir go'sht chaynayotgandek g'ajiyotganini sezmas, qonini shima-shima tuflab tashlar, tizzasiga gursillatib mushtlar, nazarida, ovozini, hayqirishini eshitsa, xarsang yumalab borayotgan joyida, "Lab-bay, chaqirdingizmi?" deb taqqa to'xtashi muqarrardek xunobi oshib ayyuhannos ko'tarar, mehnat-mashaqqatlari zoe ketganiga achinar, qanday xatoga yo'l qo'ydim deb o'zini o'zi tergar, taftish qilar, afsuslanar, xarsang ortga qarab dumalay boshlagan joyidan turib cho'qqiga dovur qancha masofa qolganini chamalar, bir yoki, nari horsa, ikki-uch zo'r berish bilan cho'qqini ishg'ol etishi mumkin bo'lgan masofa qolganini ko'rib faryod chekib yuborardi. Keyinchalik esa ana shunday fig'onı falakka chiqib afsus-nadomat chekish odatlari asta-sekin yo'qola bordi. Hatto navbatdagi safar xarsangni joyidan jildirar ekan, tepalik yonbag'riining qaysidir manzilida qanday qilmasin, baribir bu toshyurak yumaloq, dumaloq, baqaloq necha bor-necha daf'a chiqib borgan izi bo'ylab ortga qaytishini, bunga Sizif, harchand urinmasin, to'sqinlik qilolmasligini oldindan bo'yniga olib qo'yar, chiqamiz – qaytib tushamiz, chiqamiz – qaytib tushamiz, illo harakatdan to'xtamaymiz, deya xirgoyisifat ming'ir-ming'irlar bilan o'zini o'zi yupatardi.

\* \* \*

Yaqin-yaqindan esa Sizifning fe'lida g'alati bir o'zgarish yuz bera boshladi – unda xarsangtoshning tepadan pastlikka tomon o'qdek otilib tushishini xuddi birinchi



bor ko'rayotgandek taajjub-u hayratdan og'zini lang ochib qoladigan odat paydo bo'ldi. Xarsangning ayovsiz, shafqatsiz va tasvirlab bo'lmas shiddat-vajohat bilan cho'qqi etagi sari yumalashini ko'rish-kuzatish tang ahvolga solib qo'yardi uni. Ma'budlar xarsangtoshning qulog'iga eritilgan qo'rg'oshindek qilib quyib, unga tayinlashganmikan... zinhor va hech qachon unga bo'sh kelmaysan, cho'qqiga olib chiqishiga yo'l qo'ymaysan, faqat va faqat pastlik sari yumalaysan deya pishiqlab qo'yishganmikan...

Sizif bexosdan sadoqatli qadrdonining xiyonati-ga yo'liqqan odamdek birdan cho'kib qoldi, qaddi dol, holdan toygan ko'yi shilq etib cho'nqaydi, boshini tiz-zalari orasiga solintirganicha g'ujanak bo'lib oldi, alla-pallagacha o'tirdi shu alfozda, ichi qizigandan-qizidi chog'i, cho'nqayib o'tirgan joyida chalqanchasiga uzala tushdi. Zarang yer badaniga botmadi. Yotgan joyidan bu safar ham ixtiyoriga bo'ysunmagan xarsangga goh g'azab, goh tushuniksiz alam-armon bilan o'qraydi. Xarsangtosh jonli maxluqqa o'xshab ketdi nazarida. Ichingga uray, dedi Sizif tishlarini g'ijirlatib, qon aralash tufladi, dona-dona, burro-burro qilib so'kindi. Osmonga termildi. Samo xoqoni – ohista va zalvorli suzib borayotgan qavat-qavat bulut orasida yanayam qoraroq, hayhotdek, yum-yumaloq... Sizif diqqatini jamladi, qop-qora va yum-yumaloq, dum-dumaloq, baq-baqaloq, bahaybat... manavi yumaloq, dumaloq, baqaloqdan yuz karra ulkanroq toshbulut... go'yo ichiga havo to'ldirilgan pufakdek yengilgina va hech qanday qiynchiliksiz suzib borayotgandi. Sizif havasi kelib nigohini uzolmay yotdi. Qo'li yetsa, tortib tushirardi-ya uni, oyog'ining ostiga!.. Beozor, beg'alva, bemashaqqat siljish qanday bo'lishini manavi xarsangga ko'rsatib qo'yardi-ya!..

Bulutdan yasalgan-da, – dedi Sizif, o'sha zahoti ichida paydo bo'la boshlagan hasad aralash havasni unutishga

urinib. – Bizniki esa – toshdan, qoyatoshning bag'ridan o'yib olingan, maxsus ishlov berilgan, jilo berilgan, yo'nilgan, qulog'iga dam solib...

“Yo'g'-e, – deb yubordi Sizif xayoliga kelgan fikrdan qaytib. – Jilo-ishlov berilganga o'xshamaydi, shundayiga biror tog' bag'ridan o'yib olingan-u shu maskanga – jazo biyoboniga keltirib tashlangan”. Illo, Sizif burun bunday sazoyigohlar, jazogohlar mavjudligini na ko'rgan, na eshitgan.

Bulutni puf desang, kifoya – yengil, og'irga esa og'ir bo'lishga majbursan.

Xayoliga kelgan bu fikr Sizifga ma'qul tushdi, darhaqiqat, og'irga og'ir bo'lish darkor. Og'irga yengillik ketmaydi, og'irni og'irlik bilan yengish mumkin, yengillik bilan emas!..

\* \* \*

Sizif hozirgina xarsangning pastlik tomon yumalab ketishidan avval turgan joyiga qaradi-yu, suratdek qotdi-qoldi! Ko'zi yerda yotgan bir bo'lak yapaloq toshga tushdi! Toshning oqish-qoramtir aralash tusli ichki tomoni shu qadar yaltirar, jilvalanardiki, Sizif qamashgan ko'zlarini ustma-ust yumib-ochdi, beixtiyor mijjalarini mushti bilan ishqadi, tosh parchasiga qayta tikilib qaradi – manzara o'sha-o'sha, o'zgarmadi, hayajonning zo'ridan uning shuuri, vujudi, og'zi huvillab bo'm-bo'sh allanima idishga aylanib, o'zi serrayib turib qoldi. Nima o'zi bu? Qanday?.. Qandayiga?! Haybatidan odam tugul, yirtqich hurkadigan xarsang ne sababdan o'zidan-o'zi sinib tushdi?! Axir!..

Sizif ichini alg'ov-dalg'ov qilib paydar-pay qalashib kelayotgan savollarning birortasiga ham javob topolmadi, topolmasdi ham, zero ko'zi bilan ko'rib, hatto qo'li bilan tutib turgan narsaga aqli bovar qilmayotgandi.

Shoshilinch, ha-ha, zudlik bilan biror chora ko'rmog'i, mabodo taysallaydigan bo'lsa, biron kor-hol yuz berishi muqarrardek, lekin nima qilmoq kerak? Nima?! Qanday kor-hol yuz berishi mumkin? Bordi-yu, xarsang sinib tushganining o'zi kor-hol bo'lsa, bu nimaning alomati, belgisi, ishorasi?! Nimaga yo'ymog'i kerak buni Sizif?! Najot istab to'rt tomonga qarab yugursinmi, vazir-u vuzaro, avliyo-yu mavlono mushovirlarini shoshilinch mashvaratga chorlasinmi, yerni mushtlasinmi yo ko'kka qarab uv tortsinmi?!

\* \* \*

Har bir o'zgarish, har bir yangilik yangidan-yangi umidga doya, yangi umiddan yangi dunyolar dunyoga keladi. Sizif bu haqiqatni yaxshi biladi, biroq bu maskanda o'zgarish yuz bermasligiga, o'zi o'zgarmas biyobon handisiga aylanganiga allaqachonlar amin bo'lgan, binobarin, o'ylash, xayol surish, muhokamalarga berilish ortiqchadek, shunga qaramay, harchand istasin-istamasin, vaqti-vaqti bilan sarkash xayollar olib qochganini o'zi ham sezmay qolar, sarkash to'lqinlar iskanjasidan xalos bo'lolmas, shunday lahzalarda, chunonchi, nimadan yaralgan o'zi bu xarsangtosh deya o'zini o'zi savolga tutgan, muhokama yuritgan, adoqsiz muhokamalaridan biror tayinli naf topmagandi. "Nimadan bo'lardi, - deya bir zamonlar chiqargan xulosasini dilida takrorladi Sizif, - odam odamdan, yirtqich yirtqichdan, giyoh giyohdan paydo bo'lganidek tosh ham toshdan kelib chiqadi-da". Shunday deb u etak tomon bir-bir odimlab pastlasharkan, xarsangdan uzilib tushgan yapasqi-yapaloq tosh bo'lagini ikki qo'llab ko'tarib oldi - zalvorligina ekan! - hozirgina xarsang pastga qarab yumalagan so'qmoq yoqalab odimlab quyiga enib borarkan, undan qolgan yan-

gigina izlarga – tuproq-toshning ezilgan-netgan chuqurchalari, botiqlarini birma-bir nazardan o'tkazdi.

Yaxlit xarsangtosh qanday qilib sindi?.. Zarralaridan bunyod bo'lgan qumtosh esa sinmaydi, uvalanadi.. Rang... Sizif tog' yonbag'riining naq belida turgan joyidan xarsangning rangini aniqlamoqchi bo'lgandek dam unga, dam qo'lidagi xarsang parchasiga tikildi. Xarsangning Sizifga qaragan tomoni qorayinqirab ko'rindi, bir necha odim endi, xarsang oqardi, yana pastladi – tosh xuddi qo'lidagi parcha singari qo'ng'ir tusga kirdi. Sizif uning yoniga yeta-yetgunicha xarsangdan ko'z uzmad. Har qadamidan so'ng xarsangning rang-tusi tovlanayotganini payqadi, ayniqsa, shu damda, nazarida, xarsang og'ir-og'ir nafas olayotganga o'xshadi. Sizif uning atrofini ohista aylandi, aylana turib, yapaloq parcha uzilib tushgan joyini izladi, izlaganini birdan topolmay, shoshganidan xarsangni ushlab-ushlab qo'yar, bu harakatlari bilan og'ir lat yemadingmi, qayering shikastlandi, deya sho'x-shodon o'g'ilchasidan xavotirlangan otadek sarosimada bir joyda turolmay qoldi.

U o'zining yana bir, navbatdagi urinishi zoe ketganini o'sha zahoti unutkan, butun vujudi-shuuri bilan xarsangning shikastlanishi hodisasini anglashga harakat qilayotgandi. Biroq, xarsang hamon bus-butun ekan, ortiq taysallashga haqqi yo'q, demak, navbatdagi ishg'ol etish sari o'tlanishi mumkin, bundan bo'lak chora ham, maqsad-muddao ham yo'q. Nima bo'lgan taqdirda ham o'y surish, xayolga berilish, chalg'ish emas, xarsangni joyidan siljitish, yana, yana va yana marra sari mashaqqatli yo'lga tushish muhimligini Sizif biron soniya unutishni istamaydi. Ha-a, dedi u do'rillab, nafas rostlashingga qo'yolmayman, chiqamiz – qaytib tushamiz, chiqamiz – qaytib tushamiz! Hordiqning mavridi emas. Menga bir qara, yumaloq, bo'larim bo'lgan, illo, g'ayratim, kuchim-quvva-

tim hali bisyor, seni hov qiz mammisi yoniga olib chiqishga qurbim yetadi, qani, ketdik, dumaloq! Yur-yur, dedim, oldimga tush, deyaqman, baqaloq!..

Avvalboshda xarsang har safar shu taxlit etak tomon dumalaganida Sizif og'ziga kelgan haqoratlarini qaytar-masdi, ikki qavatlab, uch qavatlab – topib-topib so'kar-di, ma'nodosh-u ohangdosh so'zlarni terib-terib so'kardi – ishonasizmi-yo'qmi, bo'ralatib so'kishlari ish bermay qolmasdi, illo, shunda ham xumordan chiqishi oson kech-mas, hovliqib, xalloslab pastga yugurib tushar, xuddi xar-sang allaqayoqqa qochib ketmasin degan maqsadda uning yo'lini to'smoqchi bo'layotgan odamdek ikki qo'lini ikki tomonga yoyganicha zir yugurar, so'ng qo'lga, oyoqlariga erk berardi!.. Keyin-keyin bunday qiliqlari o'ziga nash'a qila boshladi, kimga zarfa qilyapman, kimga emas, nima-ga qichqiryapman, kekirdagim yonlib ketgandayam bu-ning parvoyiga kelmasa, qichqirdim nima, qichqirmadim nima, eshitadigan qulog'i, o'tday tutab, kulday to'ziyot-ganimni ko'radigan ko'zi bo'lmasa! Nima bo'lgan taqdir-dayam, dunyoga tosh bo'lib, xarsang bo'lib kelib qolgan bir narsa-da, so'qimtabiat, to'ng'iztabiat jonsiz bir max-luq-da, shu bilan tenglashamanmi, shu bilan pachakila-shib o'tiramanmi?! Faqat, nachora, taqdiriga bitilgan ekan, peshonasi, shu bebaqo nimarsaga bog'lanib qoldi, bu yog'i Sizifning ixtiyoridan, istagi, xohish-irodasidan yiroq!.. Mana, u qanchalar o'zini baland olmasin, o'zining insoniylik sha'nini saqlamasin, alam aralash xarsang-toshning guldirab, olamni boshiga ko'tarib, tog'-u tosh-ni ag'dar-to'ntar qilib pastga shiddat bilan yumalashini go'dak boladek o'zgacha qiziqish, o'zgacha surur bilan ku-zatib o'tiribdi. Avvaliga u o'zida xarsangtoshning pastga qarab yumalashini kuzatishga moyillik paydo bo'lganiga ajablandi, biroq vaqt o'tgani sayin arzimasdek ko'rin-gan mayl odatga aylanib ketdi. Xarsang quyiga qarab jila

boshladimi, u darhol o'zini chetga olar, bo'lar ish bo'ldi degan o'yda o'sha zahoti to'g'ri kelgan yerga o'tirganicha hayotda ko'rmagan-netmagan ajoyib va g'aroyib voqeaga ilk bora ko'zi tushgan odamdek favqulodda qiziqish bilan xarsangni kuzata boshlar, uning shu qilig'ini olqishlab qarsak chalib yuborar va, qizig'i... har safar favqulodda voqea yuz bergan ilk soniyalarda risoladagi har qanday odamda kuzatiladigan holat – aqlining lol qolishi Sizifni butkul parishon bir ahvolga solib qo'yardi...

\* \* \*

Sizif armonlardan ko'z yumib, orzu-niyatlar bilan yashashni allaqachonlar o'ziga odat qilib olgandi. U o'ng kifti va o'ng kafti bilan xarsangni joyidan jildira boshlaganida tushning o'zi-ko'zi uchun yod bo'lib ketgan qo'ng'ir, och qo'ng'ir, to'q qo'ng'ir, qiziltob joylariga, undagi g'aroyib chiziq'larga, izlarga, dog'-dug'larga, turfa kattalikdagi xollariga, lang'illagan "gulxan"ning uchlariga birma-bir razm soldi. Nazarida, xarsangdagi har bir dog'-dug', har bir chiziq-iz nimalardandir darak berayotgandek, sas-sado chiqmasa-da, nimalardir haqida so'zlayotgandek, faqat Sizif – inson bu tilni tushunib, anglab yetmayotganidan xunobi oshar, bunga sayin xarsangning sha'niga yog'dirgan barcha-barcha dashnom-u malomatlar uchun o'zidan xijolat chekar, hatto xuddi uzrxohlik qilayotgandek, mulzamligini xaspo'shlagandek xarsangga tik qarolmay qolardi.

\* \* \*

"So'qimtabiat, to'ng'iztabiat jonsiz bir maxluq-da" dedi-ya xarsangni!

Vaholanki, toshda ham fikr va ruh mavjud. Jonsiz narsalar, odamlar nazarida, jonsiz bo'lib ko'rinadi, chun-

ki insonga jonsiz narsalarning jonini ko'rish va anglash quvvati berilmagan. Buni ba'zi favqulodda hollarda his etish, ilg'ashgina mumkin, xolos. Kim aytgandi-ya, bu so'zlarni? Kim aytgani yodida yo'q, lekin eshitgan chog'i e'tibor qilmagan, hatto bachkanadek, beo'xshovroq chalingandi qulog'iga. Naqadar hikmatli, naqadar purma'no so'zlar ekanligi mana endi anglashilmoqda. O'ylab ko'rsa, mana o'sha favqulodda holat boshiga tushib turibdi-ku Sizifning. Favqulodda holat unga anglash, idrok etish imkonini bermoqda. Nahotki xarsangtoshdek jonsizning jonini anglash, his etish baxti Sizifga nasib etadiganga o'xshamoqda!..

\* \* \*

Sizifning nazarida, xarsangning ayrim joylari oddiy tuproqdan qotirilgandek, go'yo ularni qo'l bilan qirib tushirish ham mumkindek tuyuldi. Sizif shu xayolda singan-netgan tirnoqlari, qontalash kaftining qirradi bilan unnab ko'rди, biroq xarsangdan zarra ham ko'chmadi, aksincha, xarsangning tuproq bo'lib ko'ringan yerlari toshdan-da qattiq, metin bo'lib ketgandi. Sijjilmikan?..<sup>1</sup> Tuproqmi, toshmi, boshqami – Sizif xarsangning qaysi yeriga qo'l urmasin, qotib, metinga aylanib ketgandi.

Xarsangning sathi sip-silliq emas, u qadar g'adirbudur ham emas. Sizifning qo'li – kafti, barmoqlari tegmagan joyi qolmadi. Xarsangning notanish joyi qolmadi Sizif uchun. Hatto peshonasi, beti, kifti, ko'kragi, tizzasi... qoshi-kipriklari chippa yopishmagan joyi yo'q xarsangning badanida. Faqat ichi, ichini bilmadi, bilolmadi. Ho, xarsangtosh, yoriltosh, men ichingni ko'rayin, dilginang-

<sup>1</sup>“Qur’oni karim”ning “Hud” surasida keladigan bu arabiy so'z “loyi qattiq qotib qulgan tosh” deya tafsir qilingan. Tafsiri Hilol. 3-jild, B. 128.

ni bilayin, deya xirgoyi qiladigan bo'ldi ahyon-ahyonda Sizif. Zero, uning uchun xarsangdan bo'lak do'st, birodar yo'q bu yerda, istaydimi-yo'qmi – mahkum odam uchun xohish-istak degan so'zlar begona axir – Sizifning birdan-bir ko'z ochib ko'radigani mana shu xarsang. Do'sti, sirdoshi, suhbatdoshi... raqibi, hatto tajovuz qilib qolish ehtimoli bo'lgan yakka-yu yagona g'animi shu. Vaqti kelsa, hasrat xaltasini ham mana shu toshning joniga-hissiyotiga ishonadi, shunga ravo ko'radi Sizif.

\* \* \*

U yodiga nimadir tushgan odamdek shoshib xarsang atrofida aylanib-timirskilanib izlay ketdi. Maymundek tarmashib uning tepasiga chiqdi, topmadi, yerga tushib, bag'rini yerga berib emaklaganicha xarsangning ostini paypasladi. Topdi! Barmog'ining uchlari bilan toshga yopishgan tuproqni qirib tushirdi. Qanoat hosil qilmadi shekilli, zumda qad rostladi-yu, ikkala kafti bilan xarsangni osongina joyidan jildirdi. Sizif hozirgina tuprog'ini qirib tushirgan joyini nigohi baravar balandlikka kelishini mo'ljallab, xarsangning to'q qoramtir sirtiga o'zi o'yib yozgan yozuvni o'nqlab, to'xtatdi – "Sizif". Ismini yozgunicha ozmuncha bulut suzib o'tdimi osmonda! Sizif vujud-vujudi bilan shu mashg'ulotga andarmon bo'ldi. Zarrama-zarra, bittama-bitta qirrador toshlar yordamida o'yib-yo'nib yozdi. Qo'llari qonab ketdi, xarsangdan uchib otilgan tosh zarralari yuz-betini cho'tir qilib yuborayozdi. Sizif ahdidan qaytmadi, to'xtovsiz suzib borayotgan bulutlardan vaqtning hisobini oldi, demak, bulutlar o'tadi, Sizif ham o'tadi, yangi-yangi bulutlar keladi, ana o'shanda bu biyobonga qadami yetgan odamlar xarsangtoshdagi yozuvni o'qiydilar! Voqif bo'ladilar!



Sizif har bitta harfni yozishni nihoyasiga yetkazganida quvonchdan o'zini qo'yarga joy topolmas, harflarning qing'ir-qiyshiqqligi ham o'ziga sezilmas, sangtarosh bo'lib ket-e, toshzargar bo'l-e, Sizifboy, deya o'zini o'zi alqashdan tolmas, toshga muhrlangan o'z ismini o'qigani sari xarsangtosh qandaydir jonli do'sti, hamrohiga aylangandek bo'lar, bundan hayronligini ham chetga surib qo'yib, xarsangga qarata mehr to'la so'zlarini takror-takror aytgisi kelaverardi.

– “Sizif”ning yoniga “Korinf” degan so'zni qo'shaman, – dedi u, xayoliga kelgan fikrdan sevinib. – Zamonlar ketidan zamonlar o'tadi, bu biyobon tashrif buyuruvchilar dastidan azbaroyi qadamjoga aylanadi. Ana o'shanda, ana o'shanda...

\* \* \*

Xarsangtosh tog' etagidagi “qo'nalg'a”sidan picha og'irroq siljidi bu safar, og'irroq bo'lsa-da, har qalay, Sizif xarsangning yangigina sinib-uzilib tushgan joyi chang-g'ubordan xoli, xuddi uni birov yaxshilab yarqiratib yuvgandek jilvalanayotganini ko'rdi. Sizif turgan joyida qimir etolmadi. Nigohini xarsangning lat yegan joyidan uzmad. U ilk marta xarsangga achinish bilan, go'yo unga hamdardlik izhor qilmoqchi bo'lgan qadrdondek ma'yus tortgan, kiprik qoqmay, termilib turardi...

\* \* \*

Ha, u bilan qirpichoqlashib, bir-birlariga g'animlik qilishgan zamonlari allaqachon o'tib ketdi, endi ular o'rtasida do'stlik, inoqlik qaror topgan, garchi xarsang bu qadrdonlikka oxiriga qadar sadoqat ko'rsatayotgan bo'lmasa-da, shunga qaramay, Sizif undan gina-kuduratlarini unutilib yuborgan, binobarin, qoqilsang – toshdan

o'pkalama, degan naqlni eslar, xarsangni bir qadam yuqoriga olib chiqolsa ham, o'n-o'n besh odim-quloch tepaga dumalata olsa ham – qancha yo'l bosganligidan qat'i nazar, Sizif buni faqat va faqat yaxshilikka yo'yar, qimirlagan qir oshar, deb o'ziga tasalli berishdan charchamas, shuning o'zi natija, shuning o'zi samara, he-ech bir urinishim zoye ketmaydi degan o'yda zinhor tushkunlikka tushmas, biroq zoye ketmagan taqdirda qanday quvonchli hodisa yuz berishi mumkinligini tasavvuriga sig'dirolmas, bu savolga javob topolmas, shunga qaramay, bir zaylda kechayotgan kunlaridan nolimas, xunobi ortmas, zerikmas, charchamas... Nega ham zeriksin, nedan charchasin Sizif?!

\* \* \*

Unda ilgari ham zerikish, toliqish odati bor edi, sababi o'ziga qorong'i, to'satdan hamma narsadan – yashashdan charchah ketar, o'zini qayerga qo'yishni bilmas, kundalik a'yonlik vazifa va burchlariga chalg'ishga harakat qilar, ko'ngilochar ermaklarga andarmon bo'lar, biroq endi hilyapti – ozod odamning charchashi bilan mahkum odamning charchashi orasida u dunyo bilan bu dunyo orasicha farq bor ekan. Unday desa, ozod odamning quvonchi bilan mahkum odamning quvonchi, shodligi o'rtasida ham olamcha farq, tafovut bo'larkan. Bunga Sizif o'zi shohid bo'lib turibdi. Sizif astoydil o'ylab ko'rsa... bordi-yu, mana shu xarsang unga yo'ldosh-hamrohlik qilmaganida Sizif nima bilan mashg'ul bo'lur edi? Boshini qayoqqa urardi, oxiri-adog'i ko'rinmas fursatlarini qanday o'tkazardi? Charchamidi? Zerikarmidi?.. Yaxshiyam xayol bor, xotirasi butkul izdan chiqayozgan esa-da, istaydimi-yo'qmi, o'y-xayoli tinim bilmaydi, ushbu tinimsizlikdan taskin topadi. Eh-he-e-e, Sizif ozmuncha hayot sharbatini totidimi?! Dunyo tanidimi?! Vaho-

lanki, bu yorug' dunyoda bor-yo'g'i bir kungina yashagan odamni yuz yil, istasangiz katalakda, istasangiz zindonda yoxud o'rada saqlang, unday odam zinhor-bazinhor zerikish nima ekanini bilmaydi, chunki xotira va tasavvur uning najotkoriga aylanadi, u ana o'sha xotirasidan va tasavvuridan taskin-tasalli, halovat topadi! Faqat...

\* \* \*

Faqat, turib-turib, yolg'iz qoldirishgani alami Sizifning jonini o'rtab yuborgan damlarda u insoniy muloqot yo'qligi bois juda ko'p so'zlar unut bo'la borayotganini, buning oqibatida, bir xil so'z, bir xil gapni bot-bot takrorlayotganini payqab qolar, yodiga nima va qanday so'z kelsa qatorlashtirib aytib tashlar va yana... g'ashini keltiruvchi takrorga duch kelardi. Qimirlagan qir oshadi... Zo'rning toshi qirga qarab yumalaydi!..

U mana shu hikmatlarni unutib qo'yishdan xavotirlanar, o'tirgan-yotgan-turgan holatlarida beixtiyor takrorlar, takrorlagani sayin ushbu bir juft tagdor gapdan kuch-quvvat olayotgandek bo'lar, xarsangni joyidan jildirish niyatida unga qo'l cho'zgan zahoti esa shu madadkor hikmatlarni baralla – butun tog'-u tosh, butun biyobon, hatto hov naridagi dengiz mavjlari-yu osmonda suzib borayotgan bulutlar ham eshitadigan qilib baqirib-hayqirib aytganini sezmay qolar – xuddi yangi gap kashf qilganday sevinib ketardi: omadlining toshi qirga qarab yumalaydi! Ha-a, xarsangvoy, ha-a, baqaloqvoy, o'jarlikni bas qilsinlar, g'o'dayib turgandan ko'ra, qani, qirga, yuqoriga jildik, yurdik, yumaladik, yumaloqvoy, deganicha, oldimga tushib bir chopqilla-chi, dumaloqvoy, deya bor-yo'q alamini yana va yana zo'r berib xarsangtoshni dumalatishdan olar, ana shunda, bordi-yu bekor qoldirishganida nima qilardim degan o'ydan azbaroyi hurkib, esxonasi chiqib, sapchib tushardi.

\* \* \*

Bekorchilikdan ko'ra dahshatliroq, yovuzroq jazo yo'q Sizifning nazarida! Shunday ekan, xarsangning borligi, ayniqsa uni cho'qqi tomon olib chiqishga mahkumligi – Sizifning ta'rifiga tili ojiz baxti, quvonchi, saodati! Mashaqqatlar... ko'ringan tog'ning yirog'i yo'q, ana, qiz mammi joyida qimirlamay turibdi, xarsangni, alaloqibat, o'sha yerga olib chiqsa, mashaqqatlar ham shamol to'zitgan bulutdek yo'qoladi, unutiladi. Qolaversa, mana, ko'z o'ngida uning uchun yangi hayot boshlanmoqda, u qanday yangi hayot bo'ladi, bu hayot unga qanday kutilmagan onlarni taqdim etadi – bularni-da o'ylash, o'ylarining adog'iga yetishdan joniqib ketmoqda Sizif.

Oshiqma, Sizif, oshiqma, deya o'zini o'zi sabrga chorladi u, ko'kdan tushgan shodlikni bir sipporishda ado qilgandan ko'ra, uni tomchi-tomchilab, qultum-qultumlab ermak qilish zukkolik, donishlik erur.

\* \* \*

Xarsang odatdagidek dastlabki uch-to'rt odimlik masofada Sizifga malollik keltirmadi. Sizif, odatiga ko'ra, mamnun, toshga tarmashdi. Endi uning xarsangga tashlanishi ham, uni itarib-siltab yuqori tomon siljitishi ham avvalgilarga o'xshamasdi. U hamon zimmasiga yuklangan maqsad-vazifani ado etish niyatidan qaytmagan, qaytish qayoq-da, tosh yumalatish uning uchun kundalik hunarga aylanib qolgan, shunga yarasha a'zoyi badanidagi bor kuch-quvvatini, tiynati-tajribasidagi barcha ustomonliklarini safarbar etsa-da, xarsangga nisbatan zarracha qo'pollikka yo'l qo'ymas, unga nihoyatda avaylab, ehtiyotlab munosabatda bo'lar, siltab tashlamas, turtmas-turtkilamas, hatto xunobi toshgan mahalda ham ovozini balandlatib toshning sha'niga ola-quroq

haqoratlar yog'dirmas, balki bir baxya-yarim baxyalab bo'lsa-da, o'zi ochgan so'qmoq bo'ylab oldinga – yuqoriga, oldinga – yuqoriga tarzda ilgarilashda davom etar, ba'zan, turib-turib, o'ziga ravo ko'rilgan jazo turi haqida o'ylab... boshi ho' tepada aylanishayotgan bulutlarga qadar o'sib ketar, shunga-da qanoat qilmay sevinchidan iring'ib-iring'ib tushardi!..

\* \* \*

Oллоh ato etgan aql-idrokning ozmunchasini jazo choralari, aslahalari-yu anjomlarini kashf etishga so-vurdimi odamzot! Bir boshga bir o'lim, ha, ming boshga ming o'lim ravo ko'rilmog'i ham mumkin. Xayriyat, Sızifga har tunda bir yulduzni mahv etasan, demadilar. O-o, qaydasan, osmon shotisi?! Qaylarga bosh urardi Sızif u holda?! Xarsangtosh-ku, goh yuqoriga, goh pastga qarab dumalab turibdi, adoqsiz mashaqqat-u uqubatlar keltirgan bu mashg'ulotni bora-bora Sızif yoqtirib, hatto sevib qoldi, uningsiz turolmaydi. Unga tungi Oymomoni tilim-tilimlab shu tog' yonbag'riga qovunqoqidek qilib terib chiqasan, deya shart qo'ymadilar, Oftobning qoq betiga sanch, deya qo'lga xanjar tutqazmadilar, o-o, rahm-shafqat tangrilar!..

Sokin biyobonda... Sızif sokinlikka shu qadar ko'nikib ketdiki, tiq etgan shovqin ham uning qulog'ini teshib yuborguday tuyular, bordi-yu, o'zini, xarsangni, tog' cho'qqisini va biyobonni chulg'ab olgan sukunatga putur yetsa, deylik, dengiz yoxud mudom bulutlar makoni bo'lmish samo tomonlardan g'ayritabiiy chinqiriq taralsa bormi?! Yo'q, Sızif har qanday qiynog'-u azob-uqubatga dosh berishi mumkin, buning epini topadi, ammo-lekin chinqiriqdan yuragi yorilib ketishi, es-hushidan ayrilishi, bus-butun vujudi tilka-pora bo'lib ketishi hech gap

emas, shu boisdan ham xarsangni cho'qqi tomon yumal-  
latib olib chiqish jazosi boshqa har qanday shafqatsiz  
jazodan ko'ra osonroq, yengilroq, azizroq... jonning ro-  
hatiga aylanib ketgandi.

\* \* \*

Ko'z o'ngida elas-elas qildek ingichka shar-  
pa-chiziqlar xira pashshadek aylanishaverdi. Bar-  
mog'ining uchi, so'ng kafti bilan ko'zlarini ishqadi, necha  
qayta yumib-ochdi. Sharpa-chiziq birdan kattalashdi va  
Sizif dengizda tanish qayıq paydo bo'ldi degan xayolda  
xursandligidan ikkala qo'lini boshi uzra ko'tarib, ovozi  
boricha hayqirmoqqa shaylandi. Ne ko'z bilan ko'rsin-  
ki, dengiz sathida qayıq emas, qop-qora tobut ohista  
lapanglab suzib kelayotgandi! Kutilmagan manzaradan  
Sizif shoshib qoldi, nima qilishini bilmasdi u, ko'nglining  
bir chekkasidan lip etib o'tgan ayanchli xavotir ko'z oldi-  
ni battar zimistonga aylantirdi. Nahotki, baliqchi chol...

Yo'q, u tirik, u o'lmagan! Ko'zlarim meni aldamoq-  
dalar, degan o'yda Sizif mushti bilan mijjalarini bosib-  
bosib ishqadi, qat'iyati besamar ketmadi - o'sha zaho-  
ti ko'z o'ngida tobut qayıqqa aylandi, lekin u qop-qora  
edi, avvalgi safarlar ham u shu qadar qora edimi-yo'qmi,  
bunisini eslolmadi. Muhimi, baliqchi chol o'sha-o'sha  
alfozda - bosh ko'tarmay, betini tizzalariga tekkuday  
enkayganicha eshkak eshmoqda edi. Faqat... Sizif nigoh-  
lariga zo'r berib cholning qo'llariga razm soldi. Ikkala  
qo'li eshkakda, biroq... u eshkak eshmayapti, balki suv  
ichidan kimdir yoki nimadir eshkaklarni tebratayotgan,  
eshkaklarga qo'shilib qariyaning qo'li borib kelayotgan,  
shu bois olisdan qaragan ko'zga xuddi chol eshkak esha-  
yotgandek ko'rinardi. Tabiiy, bu sirning tagiga yetma-  
gunicha Sizifning ko'ngli tinchimasdi.

\* \* \*

Baliqchi cholni avvalgi safar ko'rganidan buyon orada qancha vaqt o'tdi – Sizif buning hisobini ololmadi. Qandayiga ham olsin, axir u vaqtni yo'qotgan, vaqt tushunchasini allaqachonlar unutgan edi. Quyosh nuri ham, oy shafag'i ham dengiz mavjlarida akslanib Sizifga ko'rinar, u bu holning sirini bilolmay hayratlanar, hatto osmondagi bulutlar ham ayni dengiz ko'z-gusi orqali o'zining turfa shakl-shamoyillarini unga ko'z-ko'z qilar, Sizif vaqt o'tayotganini bulutlar karvonining oqib borishi orqali his qilishga odatlangan edi. Pag'a-pag'a bulutlar o'tib bormoqdalarmi, demak, hamma narsa, hamma narsaga qo'shilib vaqt ham o'tmoqda, dengiz o'tmoqda, tog' o'tmoqda, ularga qo'shilib Sizif, uning izidan esa, vaqt-soati yetib, manavi xarsangtosh ham o'tadi – jonli-jonsiz nimarsa borki, o'tish qismatidan bedaxl qolmaydi, qololmaydi.

Sizif bir muddat dengiz tomon termilib beixtiyor dam u, dam bu ko'zini yumib-ochib, kafti bilan panalab qarashga tushdi. O'ng ko'zi ho'-o' olislarni aniq-tiniq ko'ryapti, chap ko'zi... o'ngini berkitib uzoq diqqat qilolmayapti, chapi xira ko'ryapti, zo'r bersa, tirqirab yoshlanmoqda. Sizif shu choqqa dovur xayoliga keltirmagan tashvish, mana, ko'zidan chiqib turibdi! Nahotki, chap ko'zi uning boshiga tushgan mashaqqatlarga dosh berolmayotgan bo'lsa? Nahotki, barcha mashaqqatni o'ng egizagi zimmasiga yuklab, o'zi...

Sizif birdan-bir tashvish, muammo xarsangtoshga bog'liq deb o'ylardi. Qanday bo'lmasin, uni hu-uv tepada simobday oqarib ko'rinayotgan maftunkor mammi yoniga olib chiqsa bas, murodim hosil deb yurgandi, allaqancha zamonlardan buyon xarsangtosh bilan orasida ashaddiy g'animlik saqlanib keldi va, nihoyat, yaqin-yaqinlardan u

xarsangga – yumaloqqa, dumaloqqa, haqaloqqa bo'lgan munosabatini o'zgartirdi, ya'ni murosas yo'lini tutib, u bilan til topishdi hisob, bu yog'iga ahil-inoq yashaymiz deb umidvor bo'lgandi, mana, ikki ko'zi kelisholmay turibdi!.. Endi u ikki ko'zi o'rtasida qozilik qilishiga to'g'ri keladi. Darvoqe, bu kabi kelishmovchilik ilgariroq o'zaro oyoqlari orasida boshlanib ulgurgan, unga favqulodda yuz bergan falokat sababchi bo'lgan edi...

\* \* \*

...Yomon bo'ldi. Har qachongidan ayanchli ahvolda qoldi u! Sizif butun gavadasi bilan tirik tirgovuch bo'lib o'tirgandi, xarsangtoshga mutlaqo kutilmaganda birdan jon kirdi! Jon kirganda ham odatdagidek asta-ohista jilmadi o'rnidan, balki to'satdan, xuddi tepa tomondan kimdir, kimlardir yoinki qandaydir kuchlar birlashib Sizifning hayotiga atayin tajovuz uyushtirmoq maqsadida xarsangni turtib yuborishgandek bo'ldi. Shirin xayol og'ushidagi Sizif jon holatda o'zini chetga otdi, biroq kechikkan edi – xarsang avvaliga Sizifni turtib yubordi, Sizif o'zini o'nglab ulgurmay o'mbaloq oshib tushdi, o'mbaloq osha turib ham chetga qochish mo'ljalini oldi, biroq xarsang bag'ritoshligiga bordi – Sizifning oyoq kaftini ezib o'tdi. Tog' yonbag'ri-biyobonni dahshatli, ayanchli qichqiriq-o'kirik tutdi!..

\* \* \*

U hushiga kelganida hali-hamon o'sha o'mbaloq oshib tushgan joyida yerparchin bo'lib yotar, qanday falokat ro'y berganini eslolmas, chidab bo'lmas og'riqdan oyog'iga qarashga yuragi betlmas, shu ahvolidan ham ko'z qiri bilan ho'-o' etakdagi maydonchada qorayib turgan xarsangga nazar tashlab, unga nimadir demoq-



chi bo'lardi. Boshini ko'targan edi, ikkita qop-qora qush "parr" etib hurkib ko'tarildi, Sizif so'l oyog'ining kafti majaqlanib ketganini ko'rdi-yu, ko'zlarini chirt yumib oldi. Yumgan zahoti boshi uzra past-baland bo'lib parvoz qilib turgan qushlar uning yaralangan oyog'iga tashlanishdi.

Sizif jonholatda yarador oyog'ini yig'ib, gavdasi bilan uni panaladi, xira qushlarni hurkitish maqsadida qarsak urgandi, kaftlari orasidan toshni toshga urgandagi qar-sillagan shovqin chiqdi, bundan qushlar tugul, Sizifning o'zi ham cho'chib tushdi, toshga aylangan kaftlaridan nigohini uzdi-yu, chamasi bir quloch narigacha cho'zilib oqib tushgan quyuq qon tuproqqa singib, qotib qolgani-ni ko'rdi...

- Laka-lum lak, laka-lum lak. Lak-lakalum, lak-lakalum... - Sizif chalqancha yotgan holida ohista xirgoyi boshladi. Ovozini xiyol ko'targandi shikastlangan oyog'i zirqirab ketdi, og'riq azobidan ko'zlarini chirt yumib oldi. O'zini chalg'itish maqsadida, qariyb shivirlab, davom etdi: - Lak... lak... Laka-lum lak-k... L-lak, dedim-m, lak-lak...

Sizif yordamga muhtoj edi, xuddi allaqayerdan madad yetib keladigandek iltijoli nigohlari bilan atrofga, osmonga, osmon to'la bulutga alangladi. Uvada-uvada bulut parchalari taqdirga tan bergan mag'lub qo'shin to'dasi yanglig' olis-olislarga imillab borib osmon bilan dengiz tutashgan oraliqda ko'zdan yo'qolardi...

\* \* \*

Sizif jim bo'lib ketardi ham. Soat emas, kun emas - oylar, ehtimol yillar churq etmay yurgan paytlari bo'ldi. O'zining ovozi, tovushi qandayligini unutib yubordi. U azal-azaldan shovqin-surondan ko'ra sukunatni afzal bi-

lardi. Vaysaqilarni jini suymas, gapirgandan gapirmaslik afzal deb o'ylardi u. Til-zabondan qolish qanchalar dahshatli bo'lmasin, uzoq vaqt jim yurish, yotish-turish, ko'nglidan kechayotgan hech qanday his-tuyg'uni ovoz chiqarib hatto o'ziga o'zi aytmaslik, ta'kidlamaslik Sizifning ko'ngliga xush yoqayotgandek bo'lar, buni o'ylagan sayin o'zini ulug'vorroq, vazminroq, salobatliroq his qilar, beixtiyor gapga tushib, vaysaqilikka berilish xavfi tug'ilganda esa darhol o'zini qo'lga olar, gap-so'zsiz xarsangga tik qadalganicha u bilan bahs boylashar, kim uzoq jim yashash borasida musobaqa shartlarini o'zicha ko'nglidan kechirib, hitim tuzardi. "Men insonman, istagan shartga tayyorman, istasang, bel bog'lashaman, istasang, dumalayman, istasang, dovul-to'fonda qilt etmay bir joyda qadalib turaveraman, hatto, mayli, soqov bo'lib qolay, bilgan so'zlarimning barini unutay, xirgoyi qilmay... lom-mim demaslik borasida ham musobaqalashishga tayyorman!" deya xarsangni yakkama-yakka jangga chorlar, u bundayin mutoyibanamo rivoyatlarining bir qismini ovoz chiqarib aytsa, bir qismini sas-sado chiqarmay izhor etar, haq so'z toshni kesadi, muloyim lutf xarsangning diydasini yumshatadi deya ishonardi.

Oson kechmasdi bu qiliqlari. So'zlash o'tib borayotgan hozirning sharpalari bo'lsa, sukut boqiylik, mangulik timsoliga aylanardi uning nazarida. Bamisoli gap sotsa – hozir bilan, sukut saqlasa – abadiyat bilan muloqotga kirishayotgandek sezardi o'zini Sizif. Bir yo'la ham bugun, ham kelajak bilan bitim yo sulh tuzish esa koni azob, azob, azob! Hozirga xizmat qilsang kelajak oldida muttahamsan, kelajak va boqiylik ruhida yashasang esa hozir uchun begonasan, yotsan, yot!.. Top bunga o'zing javobni, banda: qay biri afzal?

\* \* \*

Shu singari xayollar girdobiga g'arq bo'lgan Sizifning joni rohatlardan hapriqib ketar, yana qachon, qay holatda va qay alfozda bu kabi mastona-shukuhli o'ylar qanotida parvoz qilish-qilmasligini oldindan taxmin ham qilolmas, zero, odatda, favqulodda va beixtiyor tashrif buyuradigan bunday ardoqli kayfiyatini ipidan ignasigacha yodda saqlashga harakat qilardi.

Bu safar o'zining ham, xarsangning ham avzoyi durust, Sizif uni qay tomonga boshlasa, deyarli qarshilik ko'rsatmayapti. Sizif so'qmoqning o'ng-tersiga, nishab-do'ngligiga qarab xarsangni goh o'ngga, goh so'lga va yuqoriga qaratib dumalatmoqda. Ahyon-ahyonda esa... Sizif qo'l-oyoq mushaklari uvusha boshlaganini birdan payqadi, dam olmog'im zarur, degan o'yda xarsangning quyi tomonida unga yelka tirab, oyoqlarini keng yoyganicha yerga qapishib, o'tirib oldi. Nafas rostlab ulgurmagan ham ediki, bir qo'l-bir oyog'i changak bo'lib tortishdi. Og'riq zarbidan badaniga titroq turdi. Sizif chidadi, azob berayotgan qo'l-oyog'iga baqrayganicha o'tiraverdi.

Allaqaysi safar xuddi shu alfozda xarsangga tirkak bo'lib cho'nqaydi. Cho'qqining qoq yarmiga dovur ko'tarilgan, ya'ni amali unayotgan edi, dimog'i chog' edi, bir nafas rostlasa, madorini jamlasa, so'qmoq yo'lning qolgan qismini chog'lasa, shoyad, shoyad xarsang qaysarlik qilmasa, butun zalvori-mahobatini Sizifning gardaniga to'kib solmasa, cho'qqini ishg'ol etsa-etibdi-da! Nahot insoniy qudrati ila shu yumushni uddalay olmasa? Nahot mana shu yelkasiga tirg'alib turgan jonsiz, zabsiz, beso'naqay tosh bilan til topisha olmasa?! Axir!.. Axir!..

\* \* \*

Sizif o'zidan, o'zining tashvishlaridan ko'ra dengizchi cholni ko'proq o'ylay boshladi. Kim bo'ldi u qariya?.. Qanday qismat yetaklab yuribdi bepoyon dengizda uni? Bosh ko'tarmaydi, hamon suv qa'riga termilgan ko'yi eshkak eshmoqda. Chindan eshkak eshayotganmikan yoxud?.. Tasodif go'yo Sizif o'zini qiziqtirayotgan jumboqqa tayinli javob topmog'i uchun imkoniyat yaratmoqchi bo'lgandek to'ppa-to'g'rida – dengiz sathida qora qayıq ko'lankasi ko'rindi. "Tobut emas, qayıq!", dedi o'ziga o'zi dalda berayotgandek Sizif.

Chol tirik, eshkakni ham uning o'zi eshmoqda! Ha, o'zi! Aftidan g'oyatda noyob baliq oviga shu qadar berilganki, biror marta boshini ko'tarib atrofga qaramayapti... Bir payt qayıq tumshug'iga kelib qo'ngan bir juft qora qanot qush oshiqona tumshuq urishtirib olishdi-da, kutilmagan-da baravariga parvoz qilib cholning tepasida charx urib aylana boshlashdi. Qariyaning ko'nglini chog' qilish istagida raqsga tushayotgandek ko'rindi ular Sizifning nazarida. Biroq baliqchi chol qushlarga zarracha e'tibor bermadi. Shunda charx urib aylanishayotgan qora qanotning biri tikkasiga sho'ng'ib kelib cholning kiftiga qo'ndi va uning betinimi, qulog'inimi botirib-botirib cho'qilay boshladi. Sizifning esxonasi chiqib ketdi, "mening tepamga kelgan yirtqichlar – o'laksaxo'rlar-ku, h-ho-oy, hayda-a-a, haydalari-ng-g!.." degancha joni o'rtanib chinqirdi. Cholga nima bo'lgan axir, qarsak ursa, loaqal eshkakni bir ko'tarsa basku, bu qonxo'r, yovuz qushlar uchadi-ketadi!..

\* \* \*

Ko'z o'ngida yuz berayotgan manzaradan Sizifning ko'ngli sust ketdi, birdan holdan toyib qoldi. Zum o'tmay o'zini qo'lga oldi, hushini yig'ib qora qayıqda tosh qot-

gan ko'yi dengiz uzra suzib borayotgan qariyaga yordam qo'lini cho'zgisı keldi. Aksiga olib, beixtiyor bor vujudi zavqqa to'lib, xandon otib kulib yubordi birdan, shodon kulgısı qushlarga yetib bordi chog'i ular osmon-u falakka tikkasiga ko'tarilib ketishdi. Sizif kulgısını bosolmadi – u go'dak bolalardek qiqirlab kuldi, ovozını baralla qo'yib xandon otdi... duvillab oqayotgan ko'zyoshlarini tiya olmadi. Shunda dengizni to'ldirgan limmo-lim to'lqin sathi bir tekis va bir maromda ajabtovur kuyni ijro etayotgan kabi mavjlana boshladi. Mavjlana-mavjlana shabada hosil qildi, shabada shamolga aylandi va zumda sarrin epkin tog' yonbag'rida xarsangtoshga tirik tirgovuch bo'lib na kulishi, na yig'lashini bilmay qapishib o'tirgan bu bechora va yolg'izdan-yolg'iz bandasi-ning yoniga yetib kelib, ko'rinmas qo'llari bilan uni boshdan-oyoq o'rab-chirmashga, yupatishga kirishdi.

\* \* \*

Bu safar ham Sizifning umidi puchga chiqadiganga o'xshab qoldi. Oldinga siljishning iloji yo'q – tosh do'nglikka tirg'algan, o'ng tomon qiya nishablik, chap tomon mayda qum-tosh, xarsang zalvori bilan botib qolsa, uni joyidan jildirish amri mahol, shu bois yagona chorası – ortga qaytish. Jichcha, xiyolgina, pichagina orqaga tisarilsa kifoya, so'ng yarim qarich o'ngga oladi-da, yo'lida davom etadi.

Sizif shularni chamalay turib nafas rostladi, shikastlangan oyog'idan u endi ko'pda emin-erkin foydalana olmas, avvallari goh u, goh bu oyog'ini ishga solsa, endilikda faqat sog' oyog'ini xarsang ostiga tirgovuch qilib qo'yar, bu yetmaganday u oqsoqlanib yuradigan bo'lib qolgandi. Xullas, u sog' oyog'ini tizzasiga dovur xarsangga tirgovich qilib qo'ydi, qaqshab simillayotgan qo'llarini ikki yoniga osiltirganicha go'yo o'zi kashf qilgan so'zni

takrorlagani sayin ruhi taskin ola boshladi: og'ayni!.. og'a-ini!.. og'aynijon!..

Biroq "Og'ayni"ning kimligi, kimni nazarda tutib Sizif bu so'zni takrorlayotganini o'zi ham durust anglamadi...

\* \* \*

Muzdek shabada esdi. Shabada aralash bir tutam bulut parchasi yetib keldi-yu, hozirgina g'arq terga botgan Sizifning a'zoyi badani zumda qahraton izg'irinida qol-gandek qaqshay boshladi. Shu ahvolda ham nigohini dengiz tomondan uzmagan Sizifning xayoli yarq etib ketdi.

– Chol ham Zevsning qahriga uchraganmikan?! – deb yubordi u baralla ovozi chiqarib. – Ehtimol, men ham, kunim bitib, anavi baliqchi cholning kuniga tusharman? Qora quzg'unlarga yem bo'larman?! Tirik jon borki, o'z quzg'uni bor. Qayerga bosh olib ketma, qayerga qochma, baribir o'sha quzg'unlarning qo'liga tushasan. Bir umr qochishing, jonimni saqlayapman deb istaganicha shodlanishing ham mumkin va paymona to'lgan lahzada senga, qismatingga bitilgan – faqat o'zinggagina atalgan quzg'unlarning boshing tepasida hozir-u nozir bo'ladi-lar va ular ochofatlarcha o'zlarining boqiy va shafqatsiz burchlarini shiddat bilan o'tashga kirishadilar. Doding kimga, qayerga yetadi bu biyobonda? Taqdiring, qismating oldida nechog'liq yolg'iz bo'lsang, murdangni cho'qilab xomtalash qiluvchi qora quzg'unlarning oldida ham shunchalar himoyasiz yolg'izsan, yolg'iz!..

\* \* \*

Gohida Sizif muttasil hasrat-nadomatga berilib ketganini, tinmay noliyotganini, onasidan ayrilgan sakbachadek ingrayotgani-g'ingshiyotganini sezib qolar, to'satdan xarsang quloq solayotgan bo'lsa-ya, ustim-

dan kulayotgan bo'lsa-ya, degan xayolda birdan hushyor tortar va yana "og'aynisi"ga malomat yog'dirishdan, yozg'irishdan, uning oldida o'zini nochor, bechora va sho'rlik qilib ko'rsatishga urinishdan o'zini, tilini tiyardi. Yo'q, men bechora emasman, sho'rlik, notavon ham emasman, insonman, shunday ekan, hech kimga, hech narsaga, hatto o'zimga-da daxmaza bo'lmayman, bo'lmayman deya ontlar ichar, u tirik daxmazaga aylanib qolishni har narsadan og'irroq musibat deb hisoblardi.

\* \* \*

Sizifning xo'rliqi keldi, o'zini kutilmaganda omadsiz, baxtsiz his qildi. Baxtsiz odam tippa-tirik daxmazaga aylanadi. Yana o'sha sovuq so'z – daxmaza... Sizifning eti junjikib ketdi. Haqqirost, omad yuz o'girgan odam kimga kerak? Daxmaza... kim o'ylab topgan bu so'zni, kim kashf etgan?.. Ha, haqqirost, birovlarga emas, o'zingning eng yaqinlaringga ham daxmaza bo'lib qolasan, soyangga ham tirik tovonga aylangandek his qilasan o'zingni!.. Yo'q, men daxmaza emasman, daxmaza bo'lib yurgandan ko'ra mana shu xarsang ostida qolib yo'q bo'lganim afzal, deya iltijo qildi u bulutlarga yuz burib. Shunda Sizif birdan hushyor tortdi, og'ir uyqudan uyg'ongan odamdek sergaklandi, u o'zini baxtdan butkul mosuvo deb bilmaydi, yo'q, u badbaxt emas, daxmaza emas, faqat ko'ngli sust ketgan, axir har qanday odamda bo'ladigan holat – kimgadir erkalangisi, yaltoqlangisi, kimgadir hasratlarini dasturxon qilgisi, kimningdir dalda-tasallisiga muhtoj bo'lib qolgisi keladi. Ko'ksiga yuzini bosib xumordan chiqquncha ko'zyoshlarini to'kkisi keladi. Ana shunday damlarda Sizif ham odam-da, banda-da, ixtiyorsiz ravishda xarsangga yaltoqlana boshlardi. Xuddi shunday qilsa yaltoqlanishlari kor bo'ladigandek, iltijolari yetib

boradigandek xarsangtosh atrofini gir-gir aylanib yugurishga tushar, oqsoqligi tufayli qadam olishlari beo'xshov chiqar, "Lakalum-lak"lab g'ingshishlari harakatlariga mos kelmas, shunga qaramay, holdan toysa – odimlab, madori yetsa – yana yugurib gir aylanishni bas qilmas, unga qo'shilib bulutlar, bulutlarga qo'shilib dengiz mavj-lari aylana boshlar, buni ko'rgan Sizif rohatlanar, hatto beso'naqaydan-beso'naqay xarsang ham joyida turol-may... gir-gir aylanish kuyiga jo'r bo'lmoqchidek uning atrofida doira yasab dumalar, Sizif yer-u osmon o'rtasi-da yuz berayotgan bu jo'rovov-ohangdoshlikni ko'ra tu-rib ko'zlariga ishonmas, ammo-lekin ayni shu damlarda vujudidagi jamiki shubha-gumonlar yo'qqa chiqib ular o'rnini ishonch, ishonch, ishonch egallashini istar, shu o'y, shu xayolda oxirgi misqol madori tugaguniga qa-dar aylanishda davom etar, alhol, alla-pallada... hushiga kelganida xarsang biqiniga betini qo'yganicha jisman behol-bemajol, ruhan esa tiniqib, o'zini qushday yengil his qilib yotgan bo'lardi...

\* \* \*

- Sabr-r! – dedi u tishlarining orasidan tupuk sachratib. – Sabrni yeb tashlayman!.. Toqa-at-t! Toqat-ni ikki yamlab bir yutaman-n!.. Ho-oy, qaysa-ar, ho-oy, o'jar! Og'ayni-i! M... menga qa... Sizif birdan tilini tishla-di. Nima dedi? Yana "og'ayni" dedimi? Kimga lutf qilyap-ti u? Nimaga qarata aytdi?!

Sizif tiliga kelib qolgan bu favqulodda so'zdan o'zi ham mutaassir bo'lib qoldi, unga izoh topolmadi, beix-tiyor bosh ko'tarib alanglaganicha... xarsangning shu choqqa dovur ko'rmagan-netmagan raftorini, qulog'ini izladi. Eshitgan bo'lsa-ya? Uning nolasi, iltijosi xarsangni moyday eritib yuborsa-ya?! Jazo toshi, mashaqqat toshi



turgan joyida rahm-shafqat, muruvvat toshiga aylanib qolsa-ya?!

Xarsangni erkalayotgandek uning kiftiga ohista shapatiladi, qavarib momatalog'i chiqib ketgan kaftlari bilan siladi, birdan, nazarida, xarsangni ham qiynab yuborgandek tuyuldi. Bir zum xayoli qochdi – u xarsangni emas, xarsang uni cho'qqiga olib chiqishga urinayotgandek, Sizif o'lamani sattor tog' tepasiga qadam bosmayman deb tixirlik qilayotgandek tuyulib ketdi. Behol jilmaydi – qaniydi?.. Xayoli joyiga qaytdi – darhaqiqat, xarsangtoshda nima ayb? Jazoga mahkum etilgan Sizif bo'lsa, nima uchun xarsang bor halovatidan ayrilmog'i kerak?! Uning ham umri hasratda, sarsonlikda o'tmog'i kerak?! Unga ham malol kelayotgandir axir? Tosh bo'lsin, xarsang bo'lsin, metin yo sijnil bo'lsin – Sizifning ra'yiga qarab yuribdi. Turtsa – siljimoqda, kuchi-qurbi yetgan joygacha chiqmoqda, chog'i yetmagan joyda esa... Xarsang boshqa yana nima karomat ko'rsata olardi? Axir u o'zicha tepaga qarab yo'rg'alamaydi-ku! O'ziga tarmashgan, o'zidan biron odim nari ketmay qo'yan bu bandaning xohish-irodasi uchun o'zini qurbon qilib yashamoqda, shunday ekan, undan o'pkalashi ortiqcha. Qoqilsang, toshdan o'pkalama, chog'ing kelmasa, xarsangdan o'pkalama, Sizif!..

\*\*\*

Goho tim qora tun kezlari, qilt etgan shabada ham tark etgan onlar nafas olib bo'lmas, butun biyobonning havosi so'rib olingandek ko'ksi hapriqib ketardi Sizifning. Shunda to'satdan allaqayerlardan murdalarning isi anqib qolar, u qochgani joy topolmas, qochib ketolmas ham, o'zini xarsangning panasiga urar, mana shunday damlarda xarsang – oddiy xarsang emas, odamyu-

tar toshga o'xshab ketardi! Odam yutaverganidan qorni shishib ketgan, yumaloqligi, dumaloqligi, baqaloqligi shundan!.. Darhaqiqat, Sizifdan ilgari ham kimnidir shu biyobonga keltirib tashlashgan, unga ham mana shu xarsangtoshni cho'qqi tepasiga dumalatib olib chiqish jazosi belgilangan, mahkum xuddi Sizifning boshiga tushgani kabi adoqsiz va samarasiz mashaqqatli mehnatga duchor etilgan, sho'rtumshuq mahkum harchand urinmasin, harchand tavallo qilmasin, uqubatlari zoye ketgan va kunlarning birida uni... xarsangtosh xop etib yutgan-qo'ygan!

\* \* \*

Ittifoqo xayoliga kelgan bu fikrdan o'zini qayoqqa qo'yishini bilolmay qoldi u. Basharti, shunday qismat kutayotgan bo'lsa, bu ovoragarchilik, bu behalovatlik joniga tekkan xarsang istalgan daqiqada qoq o'rtasidan ikkiga ajralsa-da, xop etib Sizifni bor bo'y-basti bilan yutvorsa!..

Ana, xarsang yutib yuborgan odamlarning qo'lansa isi kelyapti. Yoriltosh, ho, yoriltosh. Men ichingga qarayin, yuho koming ko'rayin!.. Tuyqus xonish qilib turgan Sizifning ko'z o'ngida – o'zi turgan joydan olisroq, dengiz qirg'og'iga yaqinroq yerda qoq-quruq shoxlari tarvaqaylagan daraxt paydo bo'ldi. Sizif hayron bo'lib qoldi, axir bunday daraxt-paraxtdan nom-nishon yo'q edi, yaproqsiz, yap-yalang'och, shox-novdalari sovuq urgandek yoki yong'inda qolgandek qop-qora kosovga aylangan, qo'lansa is o'sha tomondan kelayotganmikan? Zahar-zaqqum anqimoqda. Sizif burnini jiyirdi, betini toshning bag'riga bosganicha xarsangning biqinida biqingan toza havo qoldiqlaridan xuddi is olayotgan qashqirdek iskab-netib nafas olar – jon saqlar, saqlashga saqlardi-yu, oradan

ma'lum fursat o'tgach, u endi bas, paymonam tugadi, izzatim bitdi, deb taqdirga tan berar chog'ida xarsangtosh bir siltangandek bo'lar, bundan Sizif hushyor tortar, holsizlikdan hushini yo'qotar darajaga yetgan joyida birdan sergaklanar, betini xarsangdan uzib, boshini ko'tarib atrofga alanglar, shunda havoda sezilar-sezilmas harakat alomatlari ko'rina boshlaganini payqar, birdan sevinib ketar – Sizif uchun harakatdan quvonchliroq hodisa yo'q hisobi, binobarin, hali erta, hali erta-a-a, degancha ovozing ochiq havoda taralishini tomosha qilmoqchidek alang-jalanglashdan to'xtamasdi. Negadir, boshqa hech zog' yoki boshqa hech bir jondor-u jonzot yo'qligidanmi, ro'parasida, yonginasida qorayib turgan xarsangga minnatdorliklar izhor qilar, bisotidagi bor iliq tuyg'ularini unga izhor aylardi. Xarsang esa... xarsang ham jim turmas, yakka-yu yagona hamrohining og'irini yengil qilishga yaraganidan mammundek tebranib qo'yar, Sizif esa... Sizif esa havo harakatga kelganidan keyin ham, hatto musaffolashib ulgurgandan keyin ham xarsangtosh tegrasida hamon mayitning qo'lansa isi saqlanib qolayotganidan ajablanar, bu badbo'y isning anavi shoxlari qoraygan zaqqum daraxtga yoxud xarsangga nechog'liq taalluqli joyi, yaqinligi borligini bilolmay, hatto bilish istagini oshkor qilmay nafasini ichiga yutar, ko'nglining tubidagi bu istakdan xarsangtosh xabar topib qolishidan cho'chigandek toshga orqa o'g'irib olar, boshini xam qilganicha ko'zlarini yumib chuqur o'yga tolar, shu qadar uzoq o'yga cho'mar... Yoriltosh, hoy, yoriltosh! Yorilaqol, xarsangtosh!.. Bir payt... bir payt ortida turgan xarsangtoshdan bosh o'sib chiqib, bo'ynini cho'zib uning tepasidan engashib, uning aftiga qarashga urinayotgandek, undan ko'ngil so'rayotgandek, unga ravish qilayotgandek tuyular, shunda Sizif shartta xarsang tomon o'girilib olar, xuddi sirini yashirmoqchidek,

ehtimol, rangi qum o'chgan yoki qizarib-gezarib ketgan bo'lar, shuni xarsang sezib qolmasligi uchun hamon xomush tortganicha, lekin endi u bilan betma-bet qad rostlab turar, bunga ham qanoat qilmay xarsangga betini qo'yib nigohlarini undan yashirardi. Xarsang ich-ichiga-cha quyma tosh bo'lganida ham shu tobda muqarrar tilga kirardi. Sizifga loaqal hamdardlik izhor etish niyatida biror sas-sado chiqarardi. Biroq u toshdan-da, sijnildan-da qattiqroq allanimadan yasalgan. Sizif esa ana o'sha allanimani juda-juda bilgisi kelayotgandi.

\* \* \*

Sizif qachonlardan g'ujanak bo'lib – sovuqda och-nahor qolgan daydi itdek qisqinib, bilaklarini ostiga yig'ib yotishga odatlanganini eslolmadi. Vaholanki, u chalqanchasiga, ko'kka yuzlanib uxlar, shu alfozda orom olishidan behad qoniqish tuyar, hatto tush ko'rgan damlarida ham o'zining osmonga ustun bo'ladigan alfozda yotishidan mag'rurlanardi. Endi esa... chirmalib yotishga odatlanganiga ham anchalar bo'ldi...

\* \* \*

Bulutlarning xilma-xil shaklga kirishini kuzatishdan ko'ra maroqliroq mashg'ulot yo'q edi Sizif uchun. Dov-daraxt, tog'-u tosh, qir-adir, paxta xirmonlari... Katta-kichik yirtqich hayvonlar, parrandalar... boshi kunchiqarda, quyrug'i kunbotarga cho'zilgan chumolilar... Bir tekisda qor qoplagan bepoyon dala, sayhonlik... Vulqon bo'lib otilayotgan, xo'mraygan-to'rsaygan, qah-qah otib qarayotgan, allaqayoqlarga daryo bo'lib oqib borayotgan, turgan joyida qoqqan qoziqdek qimir etmay qolgan, yana allaqanday hech narsaga o'xshamagan nomsiz bulutlar!..

U mutlaqo harakatdan to'xtagan bulut parchalariga uzoq razm solib poyladı. Osmon dog'ları... artib tashlagıng keladı ba'zan. Ba'zan esa... bahaybat odam jussa-sı, qo'llarını ikki yonga quloch otgan, kallasining yarmi yo'q, chala odam, oyoqları ham ko'rınmas, tikilib qaragan nigohga mana hozir kimnidir yoxud nimanidir quchoqlab olishga shaylanayotgandek!.. Bir qaragan ko'zga go'yo batamom harakatdan qolgandek, qaytib bir quloch ham nari-beri surilmaydigandek. Keng yoyilgan qulochi, tanasining shakl-shamoyili o'zgarmayotgandek. Nahot, o'zgarmasa?! Sizif bu taxmini tasdiqlanmasligini o'z ko'zi bilan ko'rib, shohidi bo'lish maqsadida ko'kdan nigohini uzmadı. Butun diqqatini ko'zlariga yig'di – dam osmon bo'ylab sochilib yotgan bulut parchalariga, dam qulochini yoygan odamga razm soldi. Yana picha kutdi, shunda pag'a-pag'a bulut parchaları zimdan va g'oyatda kishibilmas ustomonlik bilan siljiyotganini sezdi. G'af-latda qolgan o'ljasi tomon pisib yaqinlashayotgan sirtlonning ehtiyotkorligiga o'xshab ketdi. Biroq Sizif ham anoyi emas, u Korinfda dong'i ketgan hushyorlardan sanalardi. Yerning tagida g'imirlagan ilonning uzun-qisqaligi, yo'g'on-ingichkaligi, rang-tusigacha aytib bera olardi. Shu tobda payqagani... sirni, birinchi bo'lib bulut-odamning o'ng qo'li fosh qildi – u sabrsizlikka yo'l qo'ydi chog'i, tirsagidan bukila boshladi. Boyadan buyon cho'nqayib o'tirgan Sizif yerga chalqancha uzala tushdi, ikkala kaftini ketma-ketlab peshonasiga peshayvon qilib qo'yganicha odamnusxa bulutning qo'lidan va juda ohistalik bilan butlasha borayotgan kallasidan ko'z uzmadı.

Sir tezda fosh bo'ldi-qo'ydi, undan voqif bo'lgan Sizif hang-mang bo'lganicha yotgan joyidan qimirlamay qoldi. U qarab turib ko'zlariga ishonmadı, dam u, dam bu ko'zini yumib ochdi – manzara o'zgarmadi – bulut-

odamning uzundan-uzun va qo'poldan-qo'pol qo'li op-poqqina, bokiragina mammining tugmachasi tegrasida g'oyatda ohista aylanishga tushgandi. Bulut-qo'ldan girdob vujudga keldi. Girdob dam mammidan uzoqlashar, dam unga atayin qilgandek teginib-teginib ketardi. Tuyqus shamol turdi, bulut parchalari to'zidi, bulut-odamning butun badani esa to'zib mamniga yopirildi. Sizif uzala tushib yotgan joyida o'girildi, yuztuban yerga kirib ketgudek qapishib, ikkala qo'li bilan boshi, ko'zi, quloqlarini yopib, berkitib oldi.

\* \* \*

Sizif bukchayib qolgan qaddini rostlamoqqa shaylandi, shu alfozda qaddi dol odam va yum-yumaloq xarsangtosh arazlashgan do'stlardek bir-birlariga orqa o'girib to'rsayib turishardi...

– Holdan toyib yiqilib qolsam, qora quzg'un-u qumursqalarga yem bo'lsam... Yoxud sen meni yutib yuborsang, – u ich-ichidan sizilib chiqayotgan so'zlarni o'z holiga qo'ydi. Xarsangga ko'ksini bosdi. Uzoq, sinchkov termilib qoldi. – Sening holing nima kechadi?.. Sen kim bilan qolasan bu biyobonda, qadrdon?.. Kim bilan yashaysan, kim beti, kaftlari, ko'ksini bag'ringga bosadi?.. Men uchun sendan bo'lak hech vaqo qolmadi. Haybatingdan, sumbatingdan qo'rqar, vahmlarga tushardim. Jinim suymasdi, ishonmasdim. Ne-ne ta'na-malomatlariga ko'mib tashlamadim, seni?! La'natlarim, so'kishlarim ostida qolding. Sen-chi, sen?!

Sizif xarsangni birinchi bora ko'rayotgandek yoxud unga nisbatan qilgan barcha qo'pol va dag'al munosabatlari uchun uzrxohlik qilish payti kelganini tuyqus anglab qolgandek, bunday damlarda... bunday damlarda rozi-rizolik tilashdan o'zga amal qolmasligiga ich-ichi-

dan iqrор bo'layotganini yashirgisi kelmadi. Gapirgani, izhorı dil qilgani sari ko'z o'ngida xarsang cho'kib qolayotgandek, ezilib, yumshab muloyim tortayotgandek edi.

Irg'ib ortiga o'girildi, alangladi, shitob yurib xarsang atrofida aylana yasab yugurdi va hozirgina turgan joyiga qaytib taqqa to'xtadi-da, shoshilib-oshiqib gapira ketdi: inson borki, uning oldida, yonida-yu ortida ta'qib etguvchilar bor!.. Bu - haqiqat! Buning isboti-yu tasdig'ini o'zim ko'rganman! Ha, odam bolasi bo'lsang, bilib qo'y va unutma, banda borki, mudom kuzatuvchi va kuzatiluvchi! Bunga shak-shubha yo'q, yo'q, yo'q-q!..

Nazar-nigohdan xoli banda bo'lmagan, yo'q, bo'lmaydi ham. Ha-a, lalayma, ko'zingni o-och, Sizif!..

U o'pkasini bosolmay mana shu biyobonga kelganidan buyon birinchi bor kimdir uni chetdan kuzatayotgan bo'lishi ehtimoldan xoli emasligini ilk daf'a o'ylab qoldi. Shu qadar parishon yurganiga lol qoldi. Kuzatuvdan xoli qolgan banda yo'q axir!.. Mana hozir, shu tobning o'zida uning aytgan gaplariga, toshga qilgan iltijolariga kimdir chetdan turib quloq solayotganini aniq payqadi! Ha, juda aniq-tiniq tuydi - kimdir, qandaydir sharpa unga juda-juda yaqin turib Sizifning og'zidan chiqqan g'udranishlariga quloq soldi!

Sizif yonginasida boshqa bir kimsaning nafasini tuydi!..

\* \* \*

Harchand urinmasin, uning nazariga hech zog' tushmadi. Sizif nigohiga emas, hissiyotiga ishongisi keldi. Axir ozmuncha davr-u davron o'tkazdimi u bu maskanda? Ozmuncha bulutlar suzib o'tdilar, uning tepasidan? Axir shu-uncha vaqtlardan buyon nega u o'ylamadi? Nechun xayoliga keltirmadi? Axir kimdir, nimadir

uni bir chekkada pısb kuzatayotgandir? Uni shu ko'ya qoldirgan ma'budlar hov anuv tog' tizmasi o'ngirlarida pısb-biqinib tomosha qilishayotgandir. Mana senga haqiqat, mana senga fidoyilik, o'zgalarga jonbozlik, holingga maymunlar yig'lasın, holingga voy-voya-voy, deya chapakbozliklar qilishayotgandir? Uning qılıqlarini, xatti-harakatlarini, aytayotgan gap-so'zlarini, xarsangga, tog' cho'qqisiga, ho-ov naridagi dengiz mavjlariga bag'ishlayotgan lutf-u karamlarini tinglab, saragini sarakka, puchagini puchakka ajratishayotgandir?!

Jazoga mahkum etilgunga qadar ham ko'p bo'lardi hunday holat, Sizif ayniqsa yolg'iz qolgan damlarida. O'ya tolğan yoxud og'ir ıztiroblarga tushgan mahallar beıxtiyor o'zi bilan o'zi suhbatga kirishib ketar, o'sha suhbatdoshiga o'zicha Sisif deb ism ham tanlab qo'ygandı<sup>1</sup>. Maroqli damlarga aylanardi u suhbatlar Sizif uchun. Ruhan qo'llab-quvvatlar, jo'yali maslahatlar berar, ko'nglini chog' qilardi Sisif. Sisif o'zidan aqlliroq, donishroq, donoroq tuyulardi. Sen – Sizif, men – Sisif, der edi Sizif mutoyiba aralash mamnuniyat bilan. Sisif o'laman sattor, ko'nmasdi.

Kim – Sizif, kım – Sisif – nıma farqi bor, muhimi, bir-birimızdan ayro yasholmaymız, ayro qolsak – ikkimız-da, yo'qmız, yo'qmız, yo'q! Sizif Sisifni unutdi, ayro qoldi undan, yolg'iz qoldi o'zi. Bundan chiqdi... bundan chiqdi Sisif yo'q. U holda... Sizif ham yo'q. Nahot, unut bo'ldi barcha-barchasi?! Sizif Sisifni sog'inib ketdi. Shu-uncha vaqt mobaynida uni yodidan chiqarib yuborgani joniga og'ir botdi. Alhol, mana, Sisif oqibatli chiqdi, uning o'zi keldi yolg'izining qoshiga. Ko'makka, madadga keldi Sisif!.. Qadrdoni, ishongani, yakka-yolg'izi Sisif... xarsangtoshga aylanib qolgan bo'lsa-chi?! Ana, ana,

<sup>1</sup> Rivoyatlarda Sizif ismi Sisif shaklıda ham kelgan.



turibdi-ku, uning ro'parasida!.. Undan ajralmaydi, biror odim nari ketmaydi, soyasidek yonma-yon yuribdi-ku, demak, mana shu xarsangtosh – Sisif!..

\* \* \*

Sizif hayoti dunyoda kayfiyati zabun hollarda o'zini qo'lga olish yo'llarini izar, o'ziga o'zi dalda berish choralari topar; xushlamasa-da, men insonman, deya otashin ohanglarda hayqirar, go'yo uning so'zlarini maydon to'la olomon tinglayotgandek burro-burro voizlik qilishga tushar, inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun yaratilmagan. Men ham shunday odamman! Mayli, ana, qo'llaringdan kelsa, marhamat, yanchib tashlanglar; tuproqqa qorishtirib tashlanglar, dengizga uloqtiringlar, ammo-lekin, hoy mingquloqlar, ho-oy dingquloqlar, har ikkala quloqlaring bilan, sonsiz-sanoqsiz quloqlaring bilan eshitib olinglar – zinhor meni yenga olmaysizlar! Yenga olmaysizlar!

\* \* \*

Qorong'i edi, xarsangtosh yanayam qararoq, yanayam bahaybatroq ko'rinar, toshning o'zi emas, qop-qora soyasi vahm solibgina qolmay, Sizifni qora tuproqqa ko'mib tashlaguday quyuq ko'laga solib turardi. Sizif uchun bu yangilik emasdi, xarsang unga hamisha avzoyi buzuq yirtqichdek ko'rinardi. Uni har lahza, har daqiqa yanchib tashlashga shay ekanligini yashirmas, basharti u shunga jazm qilib qolsa, Sizif unga bo'sh kelmaslik chorasini oldindan o'ylab qo'yar, o'ylab qo'ysa-da, o'ziga ishonsa-da, ba'zan yuragiga vahm oralab, vujudining allaqayerlarida ko'z ochgan qo'rquv sezdirmaygina uning shuurini, tasavvurini ishg'ol etayotganini unutmasdi. Undagi qo'rquv oddiy odamlarda bo'ladigan qo'rquvdan

mutlaqo farq qilardi. Qo'rquv o'z yo'liga, muhimi, Sizif o'zini gunohkor deb bilmasdi, tavqi la'natga uchrashdan paydo bo'ladigan qo'rquvdan uning ko'ngli to'q, u o'zini gunohkor deb hisoblamas, lekin o'ziga ravo ko'rilgan jazo – mahkumlik qismati oqibatida itdek, quturgan yovvoyi to'ng'izdek manavi xarsangtosh ostida majaqlanib ketishdan qo'rqardi. Bunday qismatni o'ziga na ravo, na loyiq ko'rardi. Qandaydir jonsiz bir matoh – xarsangtosh ostida qolib ketishni o'zining insoniylik qadr-qimmatiga munosib hisoblamasdi. Bu borada ikkilanishni nechog'liq o'lguday jini suymasa, iznini qo'rquv ixtiyoriga berib qo'yguday bo'lsa, tamom, hammasi muqarrar barbod bo'lishini hatto taxmin ham qilib o'tirmasdi. Shunga qaramay, u o'zini chetga olmoqqa shaylandi, biroq negadir harchand chiranmasin, qadami unmasdi – uni xarsangning soyasi bosib turar, bosib tursa-da, negadir joni og'rimsa, joni og'rimsa-da, xarsangga singib ketgan qorong'ilik pardasi zo'r berib Sizifning nigohlarini to'ldirib yuborayotgandi.

Tun pardasi betga tortilsa... Nahot betim qora?.. Bu telba-sarkash tuyg'ulardan zudlik bilan qutulmog'i uchun ham Sizif o'zicha choralar o'ylab qo'ygan, ulardan biri – g'azabini purkaydi olamga, ming'irlab emas, aslo, ochiq-oydin, dangaliga, tavakkaliga aytadi aytadiganini. Qani, kim aytadi, kim meni qo'rqqoqqa chiqaradi, betimga ta'na-malomat yog'diradi, deya zimiston bag'ri-ni tilka-pora qila boshladi u. Men o'zimning kim ekanligim va qanday banda bo'lib yashab o'tganimni yaxshi bilaman. Betimga qora balchiq chaplovchilar ozor chekmay qo'yaqolsinlar, ularni mashaqqatdan etaman xalos, kerak bo'lsa, o'zimning boshimga-yu sha'nimga istagancha ta'na-dashnomlar yog'dira olaman. Ha, kim nima desa-desin – takabburman, xudbinman, munofiqman. Qabohatlar koniman, ummoniman! Aybim ham, gunohim

ham shu – neki bilsam, rosti, dunyoga doston qilaman, doston!..

Kifoyami, yetarlimi yoxud yana davom etaymi? Marhamat, betgachopar, chaqimchi! Illo qo'rqoq emasman! Qorong'ilikdan, zimistondan qo'rqmasman, aslo! Mayli zulmat, zulumat ko'zlarimni ko'r qilsin, qora zaqqum daraxtidan tarqagan zahar jonimni o'rtagancha o'rtasin, ammo xarsangni mendan tortib ololmaysizlar, uni hech kimga bermayman, hech kasning qo'lini tekkizdirmayman unga! O-o-h-h, yo'qotib qo'ysam, dunyoni ostin-ustun qilaman, dengizga, tepamdagi bulutlarga o't qo'yaman, pag'a-pag'a qilib yoqaman, manavi cho'qqining kulini ko'kka sovuraman! Ko'zlarim basir bo'lsinlar, uni iskab-da, topaman! Oyoqlarim quzg'unlarga yem bo'laqolsinlar, ko'ksim bilan surgalib bo'lsa-da, yumalata-yumalata cho'qqiga dovur olib chiqaman xarsangni! Ana o'shanda ko'rasizlar, aytganlarim chinligini – qimir-lagan qir oshadi!.. Ha, shunday! Zo'rning toshi qirga qarab yumalaydi!.. Men zo'rman, zo'r! Ha, shunday!.. Ha-a, dahshat solib yasha yoxud yashama mutlaq! Yashama mutlaq! Xarsang mening tanim-jonim, g'azabim, armonim, og'aynim, muhabbatim!..

\* \* \*

Ko'nglidan kechgani bo'ldi Sizifning: xarsangtosh ko'zdan yo'qoldi!..

Qarab turib, yonida yurib, silab-siypalab, iydiraman, ko'ndiraman deb ravish-raftor qilib turgan bir pallada g'oyib bo'ldi!.. O'h, talvasaga tushdi Sizif!.. Voh, bormagan joyi qolmadi Sizifning!.. Dengizga dovur bordi, tog' cho'qqisiga – navrasta qiz mammisiga dovur chiqdi (va-holanki, xarsangtoshsiz cho'qqiga chiqish man etilgandi unga), etakdan izladi, biyobondan, ko'kdan izladi – es-

dan og'ib qolayozdi Sizif! Ko'zim ko'rmay qoldi degan xulosaga keldi, kaftlarini oldinga cho'zganicha, so'qirlar-cha paypaslanib izladi xarsangni, chor atrofni qadam-baqadamlab chiqdi, emaklay-emaklay iskadi. Bu qanday ko'rgilik deganicha cho'k tushib, muk tushib bo'zladi, tavallolar qildi!.. O'zini beparvolikda aybladi, kimsasiz biyobonda yakka-yolg'iz, hech bir yumushsiz qolib ketishini – o'h, dahshat! Voh, dahshat! – o'ylab yuraklari orqasiga tortib ketdi, shunda... shunda u zinhor-bazinhor, har qanday sharoitda ham xarsangdan uzoqlashmaslikka ahd qildi, uning yonidan bir qarich ham uzoqlashmayman deya ontlar ichdi, Emaklab oldi, to'rt oyoqlab kelib, cho'qqi tomon ochilgan yo'l yoqasida – qiyalikning qoq belidan topdi. Xarsangtosh pastga qarab shiddat bilan dumalashga shaylangandek, lekin qimir etmay taqa-taq tek turardi. Bunaqasini Sizif ko'rmagandi! U lol-behol edi, tili kalimaga kelmadi. Qo'llari jonsiz edi. Nafas ham olmayotgandi. Betini, so'ng ko'ksini, bag'rini xarsangga bosdi, onasini yo'qotgan kuchukchadek, tumshug'ini oldinga cho'zib havoni hidlay boshladi, tanish is, tanishgina emas, bu hid o'zining ham a'zoyi-badaniga singib ketgan, shunday bo'lsa-da, tizzalagan holida qulochini keng yoyib xarsangni quchoqladi, manglayini xarsangga bosganicha, ko'zlarini yumib, og'ir va davomli tin oldi. Jonim, dedi, yolg'izim-yagonam, ishonganim-suyanganim, dedi. Ochiq tan oldi – sensiz men bu yerlarda yolg'izlikdan o'lib qolaman, dedi. Xarsangdan kaftlarini uzmadi, siladi-siypaladi, siladi-siypaladi... unga lablarini bosdi... G'udrandi, og'ziga nimadir ilashdi, changmi-g'ubormi, xarsangtosh zarralarimi – ta'm bilmadi, tamshandi.

Xarsang muloyimlashdi, yumshadi. Buni Sizif kafti, barmoqlari xarsangga botib keta boshlaganidan payqadi. Lekin hayron bo'lmadi, chunki unda hayratlanishga

da hol qolmagan, bir chekkasi, qachondir mana shunday g'aroyib voqea yuz berishini, ya'ni xarsang bilan apoq-chapoq bo'lib ketishini u aniq tasavvur qilar, juda uzoq vaqtlardan buyon shunday damlar kelishiga ishonchi muqarrar edi. Endi hech qachon haqoratlamayman, do'q urmayman, kaltaklamayman – boringga shukr qilaman, jonim, yolg'izim, yagonam... Xarsang elas-elas tebrana boshladi, unga tarmashgan Sizif ham shu maromda tebranar, uning nazarida, dengiz suvi ham chayqalayotgan, cho'qqi, unga qo'shilib osmonlar, osmonlarni to'ldirgan bulutlar ham tebranayotgandek edi. Ko'zlarini ochsa o'zi va xarsangga qo'shilib butun olam tebranishdan to'xtaydigandek edi, shu bois nima qilarini bilmay xarsangning duch kelgan joyini kaftlari, barmoqlarining uchlari bilan tinimsiz silashda davom etdi. Xarsang erib, muloyimlashayotgandek edi...

Sizif jussasiga nisbatan bir necha baravar kattalikdagi xamir zuvalasini ezg'ilayotgandek bo'ldi. Xamir ko'pchib turardi, undan avval barmoqlarining uchida, so'ng siqimida zuvala-zuvala qilib uzib-uzib ola boshladi. Ayolining mammasini ham chimdib-chimdib olardi u. Ayoli tushmagur uning go'daklarcha jununvashligiga toqat qilar, toqati barobarida qiqirlab kular, xarsang-toshning qarshilik ko'rsatmayotgani, aksincha, unga moyillik bildirayotgani ayolining erkaliklariga o'xshab ketayotgandi. Agar xarsang shu tariqa bo'linib-bo'linib uning qo'liga chiqaversa, yumaloq, dumaloq, baqaloqning haybati-kelbatidan asar qolmasa, xarsang sınıqlarini Sizif o'ynab-kulib, bitta-bittalab, quchoq-quchoqlab cho'qqiga tashib chiqarsa!.. Yaqinginda, boyagina g'azabini bosolmayotgan, eski odati qo'zg'ab dag'dag'a qilishni, ayyuhannos ko'tarib ta'na-dashnomlar yog'dirishni qo'msagandi-ya, achchiq alamlarini kimdan olishini bilmay, osmonlarni, tog'-u toshlarni, hov naridagi dengiz-

ning titratishini ro'kach qilib po'pisalar yog'dirmoqchi edi-ya, yo, alhazar, eh, afsus, eh, g'azab!.. Zudlik bilan hovurdan tushmoq niyatida... g'oyatda past ovozda xirgoyi qilishga o'tdi.

Xarsangning tebranishiga hamohang uning qulog'iga xonish qila boshladi. Uzuq-yuluq xonishi juda uzoq davom etdi, ehtimol xonishlari ohangdor-u so'zsiz edi, eng muhimi... eng muhimi... mo'jiza yuz berdi, mo'jizaki, xarsangtosh badanidan moshday, no'xatday toshchalar, toshbachchalar sachrab-sakrab to'kila boshladi. Qalovini topsang... Ha-ha, xuddi shunday - inson o'z vujudida qandayin kuch-qudrat pinhon ekanini, o'zining nimalarga qodirligini taxmin qilolmaydi-yu, bu bahaybat xarsangning vujudini qaydan anglasin?! Yoriltosh, hey, yoriltosh, o'zingdan xo'p o'rgulayin, ichingga bir qarayin, Sisif inimni ko'rayin, diydoriga to'yayin! Yorilaqol, xarsangtosh!.. Baxtsizlikdan hech kim butkul kafolatlanmagay, baxtdan ham hech kim tugal mosuvo etilmagay... odam zoti butkul bebaxt va badbaxtligicha qolmagay...

\* \* \*

Yuz berayotgan yangiliklar Sizifni tamoman shoshirib qo'ydi. Halovatini yo'qotdi u. Uzoq o'ylab turmay xarsang bo'lagini ikki qo'llab quchoqlab olganicha halloslab, nafasi tiqilib cho'qqiga yetgandagina nima ish qilayotganini to'satdan anglab qoldi. Uni shu ko'ylarga muhtalo qilgan ma'budlarning yetti uxlab tushiga kirmagan ajoyibot yuz bermoqda! Sizif xarsangning, har qalay, bir parchasini ko'tarib cho'qqiga yetib keldi. Cho'qqiga chiqdi! G'irillab esayotgan ajib bir shabada quchoq ochib kutib oldi uni. Bosh-oyoq chirmaldi. Eti ustixoniga yopishgan, jon asari qolganmi-yo'qmi, sezilmaydigan a'zoyi badani shu qadar rohat tuydiki! Azbaroyi

Sizifning ko'zlaridan yosh tirqiradi. Joniga misqollab jon qo'shilayotganini yaqqol his qildi u. Umri bino bo'lib, ne-ne yurt kezib, bunday shabadaga ro'para kelmagandi. Loqaqal mana shu lahzalar haqqi cho'qqini zabt etish ko'yidagi so'ngsiz urinishlari va chekkan zahmatlariga rozi edi u. Cho'qqiga yalanglikda yer bag'irlab nay sasi taraldi, Sizif yosh boladay qiyqirgisi keldi, oyog'ining ostida bir tekis o'sgan mayin maysada o'mbaloq oshib dumalagisi keldi, ko'zlari charaqladi, o'zidan bir necha odim narida, yo'q-yo'q, yonginasida sadafdek, nuqraday, oppoq bulutlardan-da oqroq navrasta qiz mammisini ko'rdi-yu ko'zlari qamashib ketdi!..

\* \* \*

Sizif shamollar, bulutlar yalab-yulqayverganidan uchi navrasta qiz mammisiga o'xshab qolgan simobday oppoq qoyatoshga chuqur ta'zim aylagisi, ikki qo'llab uni ko'zlariga surtgisi keldi, biroq dag'al va toshdek qattiq va jonsiz qo'llarini unga tekkizishni ravo ko'rmadi. Qolaversa ikki qo'llab xarsang parchasini ko'tarib turar, uni juda-juda avaylab va ardoqlab mana shu yaqin atrofga o'rnatishi zarurligini unutmagandi.

Yapaloq tosh parchasini boshi uzra ko'tardi. Sizifdagi quvonchli behalovatlik bulutga ko'chdi, pag'a-pag'a bulut bamisoli sho'x raqsga tushdi, osmon to'zg'idi. Sizif xarsang parchasini oyog'i ostiga qo'yar ekan, damodam o'zi chiqib kelgan yo'lga qarab-qarab qo'yar, ho'-o' qiya-likning qoq belida – so'qmoq yo'l yoqasida qolgan qadr-doni – xarsangtosh tinmay imlab, uni o'ziga chorlayotgandek edi.

\* \* \*

Sizif ehtiroslarini jilovlab ololmayotgan, bir zum tek turmas va nima qilmog'i kerakligini bilmasdi ham. Qo'l-oyoqlari birovnikiday, jonsiz tayoqday, kafti-bar-moqlari akashak bo'lib tosh qotgandi. Harchand xayolini jamlashga urinmasin, marrani zabt etganlik shukuhi zo'r kelayotgandi. Avval oyoqlari, so'ng qo'llari qaltirashga tushdi. Charchoq va toliqishdan emas, yo'q, hayajonning zo'ridan bezgak tutayotgan edi. Yetdim deganda-ya, mana, nihoyat deya hayqiradigan payti yetganda-ya, nahotki, u qo'rqayotgan bo'lsa?! Axir shu onlar orzusida ozmuncha mashaqqatlarga bardosh berdimi?! Ozmuncha!.. Esankirama, Sizi-if-f! Hushingni yig'-g'! Hayqirishga, dunyoga jar solishga hali erta, og'ayni! Hovliqma, bi-rodar! Shodlanganda shoshilma! Shodlanganda shoshilma! Shodlanganda...

### III

Tosh qanchalik baland otilsa, u shunchalar shiddat bilan pastga tushadi. Odam-chi? Sizif cho'qqidan qaytishda osmonga otilgan toshdan-da tezroq tushdi. O'zini to'xtatolmadı - jadal yurib, jadal sirpanib, jadal toyg'a-nib xarsang sari talpindi - u qardron va ajralmas do'stini tark etganday, qardron og'aynisini tag'in yo'qotib qo'yadiganday xavotirda quyundek, seldek oqib tushdi pastga. Bor bo'yi bilan xarsangga yopishganicha uni quchoqlab, nafasini rostlolmay anchagacha tek qotdi...

\* \* \*

Jazo chorasini tayinlagan ma'budlar ma'budining xayoliga kelmagan voqea yuz berdi. Abadulabad xarsangtoshni tepalik sari dumalatish qismatiga muftalo



etilgan Sizif boshiga tushgan jamiki mashaqqat, jamiki uqubatga dosh berdi, xarsangtosh esa dosh bermadi! Bir parcha etdan paydo bo'lgan inson chidadi, sijnilmi-temirmi, metin xarsangtosh chidamadi. U tinimsiz va muttasil ravishda cho'qqi tomon o'rmalayverish, pastga qarab dumalayverish oqibatida mo'rt daraxt tanasi yanglig' yemirilish, sinishga yuz tutuli. Xarsangtosh har dumalaganida undan yapasqi-yapasqi parchalar ajralib tushar, bularning bari Sizifning ko'z o'ngida ro'y berishda davom etar, bularni ko'rgani sari uning xayollari parchalanib, parokanda bo'lib bormoqda edi.

\* \* \*

Xarsangtosh Sizifning ko'ziga haybatli, mahobatli, qo'rqinchli ko'rinadigan zamonlar allaqachonlar ortda qoldi. Sizif unga o'z ismini o'yib yozgach, uning yonidan "Korinf" degan so'zni ilova qilgach, ayniqsa xarsangtosh yumalayvergani, dumalayvergani oqibatida u yemirila-yemirila, parchalana-parchalana vazni yengillashgani sayin Sizif bilan xarsang orasidagi munosabat tubdan o'zgardi. Oradagi raqiblik, g'animlik kayfiyati barham topdi. Sizif endi o'zining inson va kattakon shahar a'yonlaridan ekanligini ko'pda pesh qilmas (allazamonlarda egallagan martabasi unut ham bo'layozgan), xarsangga do'q-po'pisa yog'dirmas, tiliga, oyoq-qo'liga erk bermas, telbaligi tutib, osmonni titrataman, tog'ni sindiraman, dengizni chayqataman deb biyobonni boshiga ko'tarmas... o'zida yuz bergan va berayotgan bunday o'zgarishlar boisini anglab yetish istagi kuchaygani ustiga asosiy maqsad-maslagini ro'yobga chiqarish onlari yaqinlashib qolayotganini ko'ngli sezayotgan, sezgani sayin kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shila borayotgandi.

\* \* \*

Sizif xarsangtoshni cho'qqi sari yumalatish jazosini o'tashga kirishganidan anchagina keyin o'zida hovliqmaslik, shoshma-shosharlik qilmaslik ko'nikmasi shakllana boshlaganini sezgandi. U bir narsaga ishonchi komil, ya'ni xarsangtoshni cho'qqi tepasiga dumalatib chiqish bilan bog'liq mashaqqat – qilayotgan ishlari qanchalar gap-so'z bo'layotgan esa, ular bugun uchun qimmatli hisoblansa, bu mashaqqatlarining oqibati, ya'ni kunlardan bir kun kelib xarsangtoshning cho'qqi tepasidagi yalanglikda qilt etmay turishi abadiylik, manguilik uchun beminnat xizmat qilajagini yaxshi bilardi. Shu o'yda ham u eng ulug', eng buyuk... kerak bo'lsa, zamonlar kelib, butun insoniyat qadr-qimmatini ulug'lash uchun xizmat qiladigan savob amal ekan-u, kerak bo'lsa... shakkoklikka qo'l urishdan qaytmayman, degan falsafani o'zi uchun hayotiy maslakka aylantirib olgandi.

\* \* \*

“Nazdimda, odam bolasi bag'oyat chala” degandi korinflik bir donishmand, Sizif kim ekan u avliyo deb surishtirishni ko'ngliga tugib yurgan kunlarning birida yanayam g'alati hikmat tarqatdi o'sha qariya. Nima emish, inson eng vahshiy, eng qo'rqmas hayvonlarga havas qilib ularning barcha yaxshiliklarini o'zlashtirib olaola, pirovardida, shu yo'l bilan insonga aylangan emish!

Dabdurustdan bu hikmat mohiyatini anglab yetmadi u. Naqadar ajoyib fikr dedi-yu, boshqa munosabat bildirmadi. Huzurimga keltiringlar u avliyoni, yotig'i bilan suhbatlashay dedi mulozimlariga, biroq ul qariya uzoq yillardan buyon xonanishin umrguzaronlikka yuz tutgani, ko'zlari qariyb so'qir, o'zi esa behad bemor-bemajol ekanligini aytishdi.

Mana, o'sha hikmatning mag'zini chaqadigan mavridi keldi – Sizif o'sha mezondan kelib chiqib o'ziga o'zi baho bermoqqa, o'zini o'zi ta'riflamoqqa tutindi. Xo'sh, arslonmi u yoki bo'rimi? Qashqirmi yoki tulkimikan ko'proq? Qarchig'aydir, burgutdir hoynahoy? Bu singari savollarga javob ham topar, illo-billo xarsangtoshligi muqarrar-aniiq! Ha-ha, xarsangtoshning, tog'-toshning, dengiz-u samoda yuzib o'tkuvchi bulutning yaxshiliklarini o'zlashtirganiga yo'q shubha! Bundan chiqdi, har banda yetuk va komillikka yetishmog'i uchun nafaqat vahshiy hayvonotdan, shular qatori tabiatdan ham eng zarur yaxshiliklarni tortib olmog'i, o'zlashtirmog'i darakor. Aks holda, inson irodasi tabiat irodasini o'zlashtirmaguniga qadar unga bas kelolmaydi, uni yengolmaydi.

\* \* \*

“Tushimda baland qoya ustiga chiqib olibman, qo'limdagi tarozini qo'ymay, butun dunyoni tortib sotaman, deya jar solayotganmishman”. Tushini doston qilayotgan kim o'zi? Mening nomimdan so'ylashga kim izn berdi? Cho'qqini zabt etgan men-ku, men! Dengiz mavjlari uzra yalangoyoq yugurgan, parqu bulutlarni momiqday to'zitgan ham o'zim, mana, cho'qqida qo'nim topdim. Cho'qqidaman! Tarozi topsam bas, posangi toshi qo'limda. Mana, oyog'im ostida – cho'qqini tortaman, dengiz mavjlarini, tepamda suzib borayotgan bulutlarni bitta qo'ymay tortib-tortib, qadoqlab-qadoqlab ulashaman, arzon-garov sotaman. Ha-a, chiroyli-bejirim qadoqlayman! Kep qoling, keragicha opqoling! Tog'-u toshdan, yumaloq, dumaloq, baqaloq xarsangtoshdan, dengiz suvidan, bulutlardagi eng yaxshi fazilatlarini oling o'zingizga, aslo kam bo'lmaysiz! Yangi iroda zarur odamlarga, yangisi! Harakatga aylanaajak iroda, iroda, iroda-a! Olinglar, istagancha, kam bo'lmaysiz, yaxshilar!..

\* \* \*

Tushimmi-hushimmi, deb o'yg'a toldi Sizif picha nafas rostlagach. Tushiga ham, hushiga ham o'xshadi. Biroq shu tobda uning shartakiligi, tavakkalchiligi tutdi. Nima ahamiyati bor, tush bilan hushning farqi qoldimi?! Axir men cho'qqidaman, cho'qqini ishg'ol etmoqdaman! Hademay xarsangtoshni batamom olib chiqaman va vassalom! Vassalom! Cho'qqidagi odamning tushi ham, hushi ham haqiqat, uning aytgani aytgan, degani degan. Qani, uning so'zini ikki qiladigan mard so'zamol topilarmikan? Qani qattol, toshbag'ir ma'budlar? Kelsinlar, ko'rsinlar, Sizifning oyog'i yetgan marrani! Necha zamonlardan buyon davom etgan mehnat-u mashaqqatlar evaziga xarsangtoshni, mana, ko'ringlar, bo'lak-bo'laklab bo'lsa-da, belgilangan marraga yetkazib chiqdi!

\* \* \*

Tosh mammi simob tomchisiday oppoq, g'oyatda nozik, lekin odam bo'yidan ancha-muncha baland ekan. Chamaladi, qo'li yetmasligiga amin bo'ldi. Qo'li yetganda-chi? Oq toshdan yasalgan... kim yasagan? Hozirgina sutga chayilgandek... kim chaygan?.. Sizif taxminlarini chamalay turib bir tutam bulut mammi tomon yaqinlashganiga ko'zi tushdi. Kim bilsin, oppoq bulutlar saltanatida shu qadar sayqal topgan, shu qadar nuqraday oqargan chiqar? Bir tutam bulut izidan unga ikki-uch baravar kattalikdagi bulut muz tog'iday bo'lib yaqinlashaverdi. Sizif shoshib qoldi, qo'lga tushgan toshni olib bulutga qarab otdi. Yana va yana otdi. U otgan toshlar dom-daraksiz havoga singib ketdi, bu yoqda esa bulut parchasi yutoqib mammini yalab-yulqay boshladi.

Sizif alamidan cho'k tushib betini tizzalari orasiga bosdi. Boshini ko'tardi, xuddi ko'makka chaqirmoqchi

bo'lgandek pastga – xarsangtosh qolgan tomonga umidvor mo'ltiradi.

\* \* \*

Pastda esa hammasi eski hammom, eski tos holicha takrorlandi-qo'ydi: qiyalik yonbag'ining qoq yarmida to'xtagan xarsangga to'satdan jon kirdi – u Sizifga yordamga oshiqish o'rniga, go'yo cho'qqi tepasida yuz berayotgan voqeadan – Sizifni xarob qilayotgan holatdan xabar topgandek to'satdan pastga qarab dumalay ketdi. Xarsang guldirab-qaldirab dumalab borar ekan, Sizif qulog'iga chalingan mutlaqo o'zgacha shovqindan hushyor tortdi. Nima bo'ldi? Xarsangga nima bo'ldi? Tinchlikmi? Odamning, hatto hayvonning fe'li qadam olishidan ayon, mana, xarsangning dumalashi nima demoqda? Sizif aniq payqadi: xarsang hozirga qadar necha qayta pastga dumalagan bo'lsa, uning shu safardagi quyiga enishi mutlaqo avvalgilariga o'xshamadi. Xarsang zambarakdan otilgan sopqondek emas, yumaloq-dumaloq narsaga ham emas, balki g'alati shakl-shamoyildagi jismga o'xshab ketdi – dam sekinlashdi, dam tezlashdi, hatto bir-ikki joyda taqqa to'xtayotgandek bo'ldi. Haybatli toshning bu tarzda pastga qarab yumalashini Sizif haqiqatda birinchi bor ko'rayotgan edi...

\* \* \*

U shu choqqacha xarsang xususida shuurini to'ldirib tashlagan shubha-gumonlarini o'ylab uyalib ketdi. Haq so'z toshni kesadi deb hisoblardi. Garchi bu aqidasiidan butkul voz kechmagan esa-da, o'rni kelganda, ishonch, e'tibor, mehr-muruvvat haq so'zdan-da kattaroq, qudratliroq kuchga ega ekanligiga iqror bo'ldi. Shubha-gumonni ortgani sayin ko'nglining allaqaysi burchagi-

da pısb yotgan qo'rquv unga tinchlik bermas, bundan kelib chiqadigan halovatsizlik bir mushkuliga o'n mushkul qo'shar, hadık-xavotirda hovliqqani-hovliqqan, nima qilayotganini, xarsang tegrasida harchand girdıkapalak bo'lib yelib-yugurmasin, biror ishi-yumushi unmas, ham qo'rquv, ham hovliqish... qo'rqqandan hovliqqan yomon... Haqiqatda ham, odam hovliqqani sayin vaqt siljımay, bir joyda taqa-taq qotib qoladi.

Bu gap to'satdan yodıga tushgan damlarda Sızif birdan hushyor tortar, o'zining qılıqları beo'xshov, bachkana tuyulib ketar va o'tirgan yo turgan joyida atrofga alanglar, tog' cho'qqisi tomon, pastlik tomon, shox-butoblari qora kosovga aylangan zaqqum daraxtiga, undan narıdagi goh sermavj, goh "to'nını teskari kiyib" tund bo'lib olgan dengız tomon qaranar – meni kimdir kuzatib turgan bo'lsa-chi, degan o'yda birdan og'ir-vazminlashar, aslida ham unga birovlarning nazorati ostida qolish, o'zgalarning nazar-nigohi ostida yashash avval-azaldan juda-juda malol kelardi. Qo'rquv va uyat hissi iskanjasi-da qolib ketardi. Bunday xayollar to'lqinida qo'li ishga bormas, borsa-da, harakatlari harakatga o'xshamas, binobarin, harchand chiranmasin-kuchanmasin, xarsang atayin unga qasdlashayotgandek, turgan joyidan bir chimdim ham siljımasdi. Demak, xarsang ichimda kechayotgan barcha his-tuyg'ularımnı his qiladi, sezadi, kayfiyatımnı ilg'aydi. Sızifni ortiqcha qiynagisi, ortiqcha urıntirgisi kelmagandek, "Bu ahvolda unnamay qo'ya qol" demoqchidek bo'lar, buni Sızif xarsang tomonidan o'ziga ko'rsatilayotgan e'zoz, e'tibor, marhamat o'rnida qabul qilar, hamdardlik uchun xarsangning tosh-metin tanasıga betini qo'rganicha uzoq tin olardi.

\* \* \*

– Kuching yetmasa, kuchanma!..

Sizif darhol boshini ko'tarmadi, alanglab, bo'zrayib ovoz kelgan tomonni izlamadi ham, balki ko'nglining bir chekkasida xarsang tilga kirdi degan xulosaga keldi.

– Xarsang bo'lmasa, kim?.. Tanish, juda-juda tanish ovoz-ku! Yoki o'zi gapirib yubordimi? “Kuching yetmasa kuchanma... Kuching yetmasa kuchanma... kuchanma...” U yana bir necha bor takrorladi hozirgina qulog'iga chalingan hayqiriqni. O'zining ovozigina o'xshab turibdi, lekin u nega bunday dedi?

Ovozi bo'g'ilib chiqdimi? Xirilladimi? Bo'g'ilib aytdimi? Hoynahoy, boshqa odamning ovozida gapirib yuborgandir? Yaqinlaridan birortasining ovozi...

Sizif ham hayrat, ham quvonch aralash qiyqirib yuborayozdi. Yaqin orada u qora qayıqda suzib borayotgan dengizchi cholni ilk safar ko'rgandagina shunday ahvoldaga tushgan, o'shanda ham xuddi hozirgidek hayajonini bosolmay qolgandi. Nahotki, baliqchi chol uni zimdan kuzatish uchun yuborilgan bo'lsa?! Boshini ko'tarmay, yuz-ko'zini yashirib o'tirganidan ham sezganday edi-ya! O' pismiq, o'-o', xunasa!

U hayqirig'idan biyobonni larzaga solguday vajohatda sapchib peshonasini xarsangdan uzdi va to'rt-besh odim jadal nari borib dengiz tomonga ko'zlari qinidan chiqib ketguday o'qrayib qaradi. Dengiz sathi nima demoqchisan, degandek, tim qora – xo'mraygan. Aksiga olib, qora qayıqdan darak yo'q. Sizif ikkala mushtini boshi uzra havolatib o'dag'ayladi. Kuzataveringlar, o'zlaring gapirib o'zlaring quloq solaveringlar! Men o'sha-o'sha Sizifman, Sizif bo'lib qolaman!

U turgan joyidan ortiga o'girildi, dam o'ng, dam so'l tomonga chetlashib, xarsangga sarosar razm soldi. To-

paman, dedi tishlarini g'ijirlatib, peshonasi tirishib ketdi. Topaman! Bu... bu... Sisifning tovushi! Aniq, topdim! Sisif! Qadrdon! Ayt, gapir, yana bir og'iz ovoz ber!.. Bir og'iz!..

\* \* \*

- Ha, men hamisha Sizifligimcha qolaman, ammo-lekin manavi hayot, manavi biyobon o'zgartirmadimi meni? Yo'q, fe'l-xo'yim o'zgardi, endi men boshqacha odamman, boshqacha insonman! Qurmag'ur, o'sha avliyoning gapi to'g'ri - odamlar judayam chala. Chala tug'iladilar, chala yashaydilar va chala holda o'lib ketadilar. Hatto ushbu haqiqatni anglab ham yetmaydilar. Chala odamning shodumonligi, qayg'ulari ham to'kis bo'lmaydi. Ha, xuddi shunday - men odamlar boshqacha odam bo'lishlari kerak deb hisoblayman! Boshqacha odam!..

\* \* \*

- Ovozlaringni sog'indi-im-m...

Bir zumning o'zida Sizif tamoman o'zgardi-qoldi. Xayoliga kelgan o'ydan uning yuragi orqasiga tortib ketdi. Aniq eshitdi axir u, joni o'rtaniblar ketdi - Sisifning o'zginasi, uning qadrdon tovushi edi! Faqat, nahotki, uning shu tobda ko'nglining tub-tubida paydo bo'lgan shubhasi chin bo'lsa?! Sisifni xarsang yutgan! Allaqachon gumdon bo'lgan Sisif!

Sizif nola chekib yubordi:

- Hoy, xarsangtosh, yoriltosh, ichingga bir qarayin, yo'ldoshimni ko'rayin.

Bag'ringa bir bosayin, diydoriga to'yayin. Hoy, yoriltosh, yoriltosh!..



\* \* \*

Ko'ngliga oralagan gumoni Sizifni tamom holdan toydirdi:

– Sisifni xarsang yutgan!.. Xarsang sinib, maydalana boshlagani bois, ha-ha, xuddi shunday – xarsang uqalanib-yemirilib, sinib-sinib tusha boshladi-yu, Sisifning tovushi chiqib qoldi!..

\* \* \*

Uning xayoli to'zg'idi, ayniqsa uchinchi safar xarsang parchalarini cho'qqiga olib chiqqanida avvalgi safardagi xursandlik, shodiyonadan asar ham qolmagan. Aniq esida – ikki bo'lak toshni avvalgi olib chiqqan xarsang parchalari ustiga qaladi. Bu safar jonga rohat bag'ishlovchi mayin esayotgan shabadaga ham, hatto tosh mammining aqldan ozdiruvchi shaffofligiga ham chalg'imadi. Aksincha, u o'zida yuz bera boshlagan ajabtovur va tushuniksiz o'zgarishni anglashga urinayotgandi. Harchand urinmasin, o'ylarini miyaga to'playdigan holda emasdi. O'ylari bulut ustiga mingashgan bulutday, mujmal va rangsiz edilar. Negadir u shu turgan joyida uxlab qolgisi kelayotgandi. Lekin u bunga yo'l qo'yolmas, qo'ygan taqdirda ham ko'zlarining ust pardasi yumilsa-da, ich pardasi yumilmoq istamas edi. "Nima bo'ldi menga?" degan savol shuurida g'ujg'on o'ynar, lekin bu savolga javob topish uchun esa shu arzimas uch so'zni shuurida bir joyga to'play olmayotgandi. Vovaylo urindi, uchala so'z boshining uch tomoniga tarqalib, har tomondan poyma-poy ovoz berishga tushib, parishonligi chandon ohsa-oshdiku, zarracha tiniqlashmadi.

\* \* \*

Parishonlik miyasini qora o'ylarga burkab tashlagan, huning oqibatida, tamoman, ham aqlan, ham jisman halovatini yo'qotgandi. Shuurini qora o'ylar ishg'ol qilgan, shu kayfiyatda, hatto o'zi necha vaqtdan buyon intizor kutayotgan qora qayiqni ko'rishga ham xohish-istagi qolmagandi. Aksiga oldi – dengiz sathida ko'ringan qora qayiq suzib boryaptimi, lapanglab bir joyda jilmay turibdimi, uzoq tikilsa-da, tushunolmadi. Bu paytda u baliqchi choldan shubhasi faromush bo'lgan, xayoli mutlaqo boshqa o'y bilan band edi. O'sha o'y ta'sirida ovozi boricha baqirishga tushdi:

– Vaass!.. Xaas!.. – U og'iz juftladi-yu, aytmoqchi bo'lgan so'zini topolmadi. Dik etib qad rostladi, baliqchi cholning aft-basharasini yanayam aniqroq va tiniqroq ko'rgisi keldi. Afsus, u tog' yonbag'rini, ayniqsa xarsangtoshni tashlab dengiz tomon yo'l sololmaydi, tavakkal qilolmaydi.

Nima qilsa shu turgan joyidan aytadimi, baqiradimi, samolarni larzaga soladimi, lekin... nima bo'ldi, nega aytishga jazm etgan so'zini topolmayapti? – Ssupp!.. Ossu!.. Esimni yo'qotdimmi? Aqlim zaiflashdimi? Menga nima bo'ldi, o'zi?! Nahot shunchalar yaqinim, hamfikir-maslakdoshim ismini yoddan chiqargan bo'lsam?!

– Asop! – deya to'satdan hayqirib yubordi Sizif, nihoyat, bir muddat kalovlanib turgach. Bo'g'zidan otilib chiqdi bu so'z. – Topdim – Aso-op-p! Asop!

Chaqirishga chaqirdi-yu, birdan tilini tishladi. Baliqchi qariya eshitib qolsa, shartta qaddini rostlab Sizif tomonga o'girilsa!.. Bordi-yu u Asop bo'lmasa-chi? Nega baqirasan, boboy, baliqlarni hurkitib yubording-ku, desa nima qiladi? Xijolatpazlikni, mulzamlikni aytmaysizmi! Shuning uchun... Biroq u beixtiyor xayoliga kelgan fikrdan voz kecholmadi.

– Men Korinf shahrini xarsanglardan tiklab, unga mangulik baxsh etdim, evaziga xarsangtosh bilan yuzma-yuz qolish jazosiga mahkum etildim, – dedi Sizif a’yonlik zamonlaridagi ohangda, salobat bilan.

– Ehtimol... – dedi Sisif muloyim istehzo ohangida.

– Suvlar va daryolar ilohi bo’lmish Asop sho’rlikka esa... ko’ryapsan, bepoyon dengiz uzra maqsadsiz sarson kezish jazosi tayinlangan!..

– Qaydam... – Sisif yana tayinli javob qilmadi.

Sizif unda burungi iliqlikni, haroratni tuymadi. Lekin u o’z farazida qoyim edi.

\* \* \*

– Topdimmi? Taxminim to’g’rimi? Ayt, Sisif, nega jim bo’lib qolding, qadrdon, sirdosh?! Aytdim-ku, men ilgari Sizif emasman, fe’lim o’zgardi, men endi tamom boshqa odamman, Sisif! Tushunyapsanmi, boshqa odamman! Men tog’ etagi biyobonida, Asop esa dengizda sarson-u sargardon, shunday emasmi? Adoqsiz va ma’nisiz sarsonlik jazosiga mahkumlarmiz!..

Sizif to’kilib-to’kilib gapirmoqchi edi, biroq Sisifdan javob bo’lmayotganini ko’rib, og’zini juftlaganicha qoldi...

\* \* \*

Kunmidi yo tunmidi, yorug’ edimi yo zimiston, uyquda edimi yo o’ngida – Sizif bu haqda zarracha o’ylab o’tirmadi, shasht bilan oyoqqa qalqdi, u ko’z o’ngida yuz bergan va berayotgan voqealarni anglab yetishga qiynalayotgan, o’zini qo’yarga joy topolmay gangib qolayotgan, hatto dovdarayotgan va xuddi shunday qilsa aql-hushini o’nglab oladigandek o’zidan-o’zi xarsang atrofida dam yugurib, dam ohista yurib gir-gir aylanishga tushdi. “Laka-lum, lak... Laka-lum, lak... – U cho’loqlanib, lapanglab

yuguradigan bo'lib qolgandi. – Lak-lak, lakalum. Lak-lak-lak, lakalum!..” Bu bahaybat yumaloq, dumaloq, baqaloq-dan xavfsirashlari behuda ekan. Qachondir, kunlardan bir kuni bosib, yanchib ketadi degan o'ylari puch ekan, hech qachon, hech zamonda ko'ngli yumshamaydi, men-ga bo'ysunmaydi degan xavotirlari puch ekan – bari ort-da qoldi. Endi esa, aksincha, ha, butkul aksi – xarsang-tosh Sizif uchun, Sizif esa – xarsangtosh uchun yaralgan. Binobarin, Sizif toshdan kechmasligi, uni ko'rarga ko'zi, otarga o'qi yo'qligi beasos, qanday bo'lmasin, kimlar ni-malar deb malomat o'tlarini yog'dirmasinlar, Sizif zim-masidagi buyuk vazifa-burchni ado etish haqida qay-g'urmog'i, ya'ni xarsangni yuqoriga, yuqoriga qarata dumalalashda davom etmog'i, necha yil, necha zamon-lardan buyon cho'qqiga olib boradigan so'qmoq bo'ylab xarsang necha qayta pastga qarab yumalagan bo'lma-sin, bundan qat'i nazar, Sizif qismatiga bitilgan hukmi azaldan yuz o'girmaydi. Har banda manglayiga bitil-gan qismatni ado etmoqlik uchun keladi axir dunyoga.

\* \* \*

U xarsangning yoniga yetib keldi, nafasi bo'g'ilayot-ganiga qaramay picha tin oldi-yu, betini xarsangtoshga bosdi... Ohista cho'k tushdi, chalqanchasiga yotib yongi-nasida, tepasida tog'dek bo'lib turgan xarsangtoshdan ko'z uzmay, termilib qoldi. Yon-veriga o'girilsa, hatto bir zum ko'zini yumsa ham xarsangga nimadir bo'ladi-gandek, u to'satdan harakatga tushib allaqayoqlarga ravona bo'lib qoladigandek ham xavotir, ham ichki bir achinish tuyg'ularidan iztirobga tushgan kayfiyatda yotardi. Sisifni yutsa-yutgandir, meni yutmas... Meni yutmaydi xarsang. Odamni yutadigan holi qolmayapti, uning... Uchovlon – Sizif, Asop, Sisif diydor ko'rishsa-

lar hormi, naq mo'jiza yuz beradi-ku, bu jazo biyoboni shodumonlik biyoboniga aylanadi-ku! Sifini xarsang qornidan, Asopni qora qayiqdan xalos qilsa! Uchovlashib... Qaydasiz, bemehr, mal'un ma'budlar?!

\* \* \*

Sizif qanday yumushga qo'l urayotganini o'zi ham anglab yetmadi, ortiqcha o'ylab ham ko'rmadi – xarsangdan bo'linib tushgan parchani ikki qo'llab quchog'iga bosganicha cho'qqi tomon jadal yo'l oldi. Yuqorilagani sayin yo'l tikkasiga qiyaligi orta borayotganini payqadi. Shunda ham to'xtamadi, ilgarilayverdi. Nafasi qisa boshladi, toliqdi, hordiq chiqarishni ko'zladi, niyatidan qaytdi – yo'lda davom etdi. Qo'l uzatsa yetgudek ko'ringan cho'qqi bu qadar olisligini o'ylab ko'rmagandi. Endi esa o'ylagisi ham kelmadi, balki yo'l yurdi, yo'l yursa ham mo'l yurdi. A'zoyi badanidan ter quymaydigan bo'lib ketgandi. Yo'lida katta-kichik ko'lmaklarni shaloplatib kechib o'tayotganiga hayron bo'ldi. Bir necha bor toyg'anib-qoqilib yiqilay dedi.

Qaraganda moshga toyg'anasan odam, qilga qoqilasani, shabadaga chayqalasan, banda... Quchog'idagi xarsang parchasining zalvori sezila boshladi. Sal bo'sh kelssa, toshning og'irligi uni turishicha pastga qarab tortib ketadigandek edi, biroq Sizifning vujudini qoplagan vajohat, ko'ngliga tukkan niyat, maqsad endi u qasd qilgan irodasining bukilishiga yo'l qo'ymas, uni yo'ldan qaytarolmasdi. Ana shu qat'iyat uning kuchiga kuch, irodasiga iroda qo'shdi.

Sizif cho'qqi tepasiga yetdi, so'nggi kuchlarini jamlab xuddi butun olamga ko'z-ko'z qilmoqchidek xarsang parchasini boshi uzra baland ko'tardi-da, tosh mammining yonginasida ohista yerga qo'ydi. Xarsangni u par-

chalagani yo'q. Uning o'zi parchalanib keta boshladi. Jazoni tayinlagan ma'budlarning ma'budi ham, uni shu biyobonda yakka-yolg'iz qoldirib ketgan ma'budchalar ham o'ylab-netmaganlari muqarrar bunday bo'lishini. Bu yog'iga boshqa chora yo'q, xarsang bo'laklarini bit-ta-bitalab bo'lsa-da, barini cho'qqiga olib chiqadi. Shu yerda undan yumaloq, dumaloq, baqaloq xarsangtosh yasaydi. Ana, qavat-qavat osmonlar, momiq bulutlar, day-di shamollar, tog'-u toshlar, maysalar shohid hammasiga!

U shu o'y, shu xayolda shitob bilan pastga qarab g'izilladi.

\* \* \*

Sizif shoshib qoldi – dastlab kimning diydoriga yetishini o'yladi. Lekin ixtiyor-izn unda emas, binobarin, shu onlarda Asop ham, Sisif ham birdek qadrdon, birdek aziz edilar uning uchun.

Xarsangning biqiniga qulog'ini bosdi. Nazarida, uning ichidan elas-elas qandaydir sas-sado kelayotgandek. Bu ivir-shivir xarsang yutib yuborgan kimsalarning, jumladan, Sisifning tovushi edi. Tovush begona emas, Sisif shu yerda – Sizifning yonginasida, shunday ekan, hade-may u bilan diydorlashadi.

U umid bilan dengiz tomon qaradi. Zaqqum daraxtidan achimsiq kuyindi is kelyapti. Ummon sathi bir tekis, jimir-jimir qilar, hech bir jonzotdan darak yo'q edi. Qayiqchi chol qayerlarga suzib ketdi, yana qachon bu qirg'oqlarda paydo bo'ladi?.. Dengiz tomondan bu kabi savollarni oydinlashtiradigan hech bir belgi, ishora yo'q edi. Lekin Sizif biron lahza umidini uzmedi. Chol qaytib uning ko'z o'ngida paydo bo'lishiga ishonar, ana o'shanda ko'ziga ko'ringan zahoti ovozing boricha chaqiradi. Aso-op, deb hayqiradi! O'ylay-o'ylay yodiga tushirdi

bu ismni, topdi, xuddi xarsangni cho'qqi tepasiga olib chiqqandek sevinib ketdi. Yana xotirasi pand berishidan qo'rqib shu qadar ko'p takrorladiki!.. Asop, Asop, Asop!..

\* \* \*

Sizifning sovuqqonligi Sizifni qattiq o'yga toldirib qo'ydi. Bu nimaning alomati, nimadan darak bermoqda bunday beparvolik? Nahotki, ikki o'rtadagi yaqinlikka putur yetgan, begonaga aylangan bo'lsalar ular?!

\* \* \*

Endi xarsang odatdagidek osonlik bilan yo'lga tushmas, uni joyidan jildirish, ya'ni do'qirlatib dumalatish uchun Sizifdan ancha-muncha kuch talab qilinayotgandi. Tepalik boshlandi. Sizif shikastlangan oyog'ini avaylaydigan, ehtiyotlamagan taqdirda ham uni zo'riqtirishdan naf bo'lmas, shu bois chap oyog'ini xarsang ostiga pona qilib ikkala kafti-yelka aralash xarsangni yuqoriga tomon ilgarilatishga tushdi.

Xarsangning yumaloqligi, dumaloqligidan asar ham qolmagandi. Singan-netgan joylari tufayli u odatdagidek bir tekisda dumalamas – bu hol Sizifning mushkulini og'irlashtirgan, endi xarsangni joyidan jildirish – u yon, bu yoniga ag'darish ancha kuch-quvvat talab qilayotgandi. Lekin xarsang avvalgidan ancha-muncha yengil tortgan – bu jihati Sizifning ishini bir qadar yengillashtirgan edi.

Shu tobda u g'alati holatga e'tibor qildi: o'ng qo'li chapiga nisbatan ojizroq tuyuldi. Axir shikastlangan o'ng oyog'i edi, o'ng qo'li emas-ku! U holda nega o'ng qo'lga chap qo'lichalik kuch kelmayapti?.. U o'ng kaftini, barmoqlarini, bilagi – yelkasigacha nazardan o'tkazdi. Qotib, qurishib ustuxoni qolibdi, xolos. Axir uning o'ng qo'li kuchliroq emasmidi?! O'naqay edimi u yoxud... chapaqaymidi?..

Nahotki, Sizif shuni eslolmasa?! Axir shu esdan chiqadigan narsami?! Odamlarning aksariyati o'naqay bo'larmidi yoki?.. Esida, faqat o'ng qo'limga tayanaman, deb yurardi. Mana, ishongan qo'li pand beryapti. U ikkala kaftini boshi uzra havolatib osmonga qaradi. Panjalari, bilaklariga termilib qolgan Sizifning diqqatini ko'z o'ngidan suzib o'tayotgan pag'a-pag'a oppoq bulut uvadalari tortdi. Zardasi qo'zidi-yu, uni sezdirmaslikka harakat qilganicha xarsangga yopishdi. Ikkala kafti, tizzasi, yelkasiga ko'ksini ham qo'shdi. Xarsang bir siljidi-yu, yarim qadam yuqori ko'tarilib qotdi-qoldi. Sizif xarsangning sinib tushgan joyiga peshonasini qo'ydi, oyoq-qo'llari bo'shashib, harakatdan to'xtadi. O'ng oyog'i, o'ng qo'li, chap ko'zi pand bera boshladi. Shu bois xarsang har safar sinib-parchalanib tushganida sezilarli darajada yengillashayotganidan quvonsa, bunga sayin esa Sizifning qo'l-oyoqlaridagi mador tugab borayotgandek edi. Bordi-yu, qo'l-oyoqlarini mutlaqo qimirlatolmay qolsa-chi? Kuch-qudratiga qo'shilib tajribalari ham ish bermay qolsa?! Oddiy insoniy turmush tarzi-muhiti bo'lganida u mana bunday ishlarning birtortasiga qo'l urish u yoqda tursin, qayrilib qaramasdi. Yakka o'zi bu xarsangni itarib cho'qqi sari dumalatishga urinish emas, hatto shu haqda o'ylashni dahshatli-xatarli yumush sifatida o'ziga ep bilmasidi, tasavvuriga sig'dirolmasidi, inson bolasiga ravo ko'rmasidi. Bu yerda esa... Bu yer, bu ahvolda...

\* \* \*

Sizif o'zi xarsangtosh bilan birgalikda chiqib-tushaverib ochgan so'qmoq yo'l yoqalab pastlayotib xarsangning ikki bo'lak sinig'ini ko'rdi. Kattaroq likopchadek, ichi-tashqarisi billur yanglig' yaltiraydi, qir-



rulari esa qilichning damidek – o'tkir, keskir. Sizif ikkala "likopcha"ni ustma-ust taxladi-da, avaylabgina ko'tarib, og'ir-og'ir qadam bosganicha cho'qqi tomon yo'lga tushdi. U boyagi-boyagi niyatida qoyim – xarsangdan uzilib tushgan bo'laklarni bitta-bittalab bo'lsa-da, cho'qqiga olib chiqadi. So'ngra tobora yengil tortayotgan xarsangni dumalatib, ehtimol, dast ko'tarib cho'qqiga yetkazib borish oson ko'chadi. Xarsangni eson-omon marraga qo'ndirgach, uning siniqlarini uyib xarsang ustiga taxlaydi, g'ishtdek teradi.

Qo'lidagi xarsang siniqlari aytarli og'ir emasligi tufayli shekilli u birmuncha osonlik bilan cho'qqiga yetib bordi. Tosh parchalarini avvalgi safar olib chiqqan siniqlar ustiga qo'ydi. Qilayotgan ishining unumidan mamnunligini yashirmay qushday yengil tortib, ikkala qo'lini boshi uzra ko'tarib, avval osmonga qaradi, so'ng pastga nazar tashladi. Ho'-o', pastlikda xarsangtosh yakka-yolg'iz xuddi tashlandiq matohdek bechora, mahzun bir kayfiyatda qolgandi. Og'ir qayg'uga botgan jondordek ko'rinib ketdi u Sizifning ko'ziga. Qadrdonining yoniga oshiqdi.

\* \* \*

Sizif o'ng chakkasini yerga bosib, uzoq tin olib yotdi. Yer qa'ridan guldiragan, g'o'ldiragan sas kelmoqda, hademay oyoq ostidan sanoqsiz izdihom chiqib keladigandek, dengiz bezovta shovullayapti, hademay to'fon qo'padigandek, tog' cho'qqisining tepasidan kimdir gurzi bilan urmoqda, tog'-u toshni qoziq yanglig' yerga qo'qib tashlaydigandek... Xarsangtoshning ichidan ivir-shivir, ivir-shivir tovush chalinyapti quloqqa, demak, toshning ichi faqat tosh emas, u yerda boshqa nimalardir... Sisif... ehtimol, yana kimlardir bor, Sizifning yuragi sezib

turibdi. Sisif, hademay, diydor onlari yetadi, Sizifning bag'ri to'ladi, to'kis odamga, to'kis irodaga aylanadi. Bu holni hatto xarsangni shu yerga keltirib qo'ygan ma'budlar ham o'ylab ko'rmaganlari aniq, zamonlar kelib, bu xarsangtoshning qa'ri ivir-shivirga to'laligini qandaydir xudobezori bandi Sizif kashf qilishi tushlariga kiribdimi!..

Sizif chap chakkasini yerga berdi. Jimjit. Uzoq poyladi u. Biron shovqin, sas-sado yo'q – jimjit. O'ng tomonini bosdi. Boyagi-boyagi tovushlar, ovozalar eshitildi. Bundan chiqdi, chap qulog'i og'irlashgan... Demak, o'ng ko'zi, o'ng oyog'i va chap quloq... Sizif yerga chalqanchasiga yotib osmonga qaradi. Katta-kichik bulut to'dalari kumushdek oppoq, izma-iz karvon tortib o'tishyapti.

Har bir bulut to'dasi biri biridan g'alati-ajabtovur jondorlarni eslatadi. Sizif qilt etmay turgan bu "jondor"larning aslini hayotda ko'rmagan, ko'plarining nomini ham bilmaydi. U chap ko'zini kafti bilan yopdi.

\* \* \*

Bulutlar karvonining yo'nalishini yaqinda payqab qoldi Sizif. Uvada-uvada bo'ladimi, sidirg'asiga osmonni qoplagan bo'ladimi, charog'on yoxud tund-qoramtir bo'ladimi, qat'i nazar, bulutlar Sizif ishg'ol etishga urinayotgan tog' cho'qqisi tepasida birrov yig'ilib, bami-soli qiz mammini tavof qilgachgina dengiz tomon yo'l olishar ekan. Bulut oqimi yaqinlashgani sayin esa dengiz sathi harakatga tushar – to'lqin izidan to'lqin kelib qirg'oqqa urilar, oppoq ko'piklar favvora yasab havoga sochilar, Sizifning nigohi ilg'amaydigan olislarga borib esa bulutlar o'ynoqi dengiz mavjlari og'ushiga singib ketishardi.

\* \* \*

Sızif xarsangning katta-kichik singan, uchgan joylarini bir sızdra ko'zdan kechirdi. U qanday hodisa yuz berayotganini endi anglab yetgan, biroq uning oqibatini hamon aniq tasavvur qilolmayotgan, bir ko'ngli quvonsa, bir ko'ngli beixtiyor xavotirga tushayotgandi. U xuddi do'stining ko'nglini ko'tarmoqchi, unga tasalli bermoqchidek xarsangning "kifti"ga shapatilab qo'ydi, ikki chekkasiga qulochi yetgudek yapasqi bo'lak sinib tushgan joyini siladi. Xarsangning yumaloqligi, dumaloqligi, baqaloqligiga putur yetganiga termilib qoldi.

– Qani, yo'lga, og'ayni, – dedi Sızif xarsangdan ko'ra o'ziga dalda bo'ladigan ohangda, baland tovushda. Shunday deb xarsangni joyidan qo'zg'atishga chog'landi. Xarsang odatdagidek besh-olti odim joyga yumalab bormadi. Bir yonboshga ag'darildi-yu, to'p etib tushgancha tek qotdi. Sızif kuchiga zo'r berdi – ikki qo'llab, tizzalab, ko'ksi aralash xarsangni ko'tardi. Xarsang yana to'p etib boshqa yonboshiga ag'darildi-da, turaverdi. Xarsang singani sari uning yumaloqligiga putur yetayotgan, shu bois burungiday dumalolmayotgan, lekin uning avvalgi zalvori, og'irligidan asar ham qolmayotgani yaqqol sezilayotgandi. Demak, endi u yumaloqchi-dumaloqchi emas, o'rmalovchi, odamlar singari qadamlab tik yuruvchi ham emas, balki u yon, bu yonga ag'darilib-ag'darilib, to'nkarilib-to'nkarilib harakatlanuvchi, baqaloqligiga ham ancha-muncha putur yetgan – tobora ixcham tortayotgan xarsangga aylangandi.

Sızif sarkash xayollarga chek qo'yib, xarsangni dam u yonboshiga, dam bu yonboshiga ag'dara-ag'dara yo'lning tanobini tortaverdi. Bir payt Sızif avval gurs etgan, ketidan qars-s etgan shovqindan cho'chib tushdi. Ne ko'z bilan ko'rdiki, xarsangning yonboshida Sızifning

bo'y-bastidan chog'roq bo'lagi sinib yotardi. Xarsangning ichi-bag'ri ochildi deb kutgandi u, shu xayolda shoshib yangi siniq joyiga qaradi, biroq xarsangning bag'ri tim qora, qorong'ilik orasida tikanak uchidek yilt etgan zarralar sochilib yotardi.

Sizif shuni ham yaxshilikka yo'ydi – yilt etgan, milt etgan nur bormi, demak, tosh yo'nuvchi mo'ysafid usta-boshi nazarda tutgan xarsangning qalbi mana shudir hoynahoy? Topa bilish deganmidi, ko'ra bilish deganmi, nima degan taqdirda ham Sizif ikki ko'zi bilan ko'rib turibdi!

\* \* \*

U yangi siniq bo'lakni ikki qo'llab tepaga qarata sudrashni mo'ljallagandi. Og'irgina ekan, kichikroq va yengilroq bo'lsa cho'qqiga olib chiqish oson ko'chardi, lekin nachora, boriga baraka, qaytanga xarsang yanayam yengillashgani aniq. Yana bir-ikki marta mana shunday sinib tushsa, u yog'i...

Sizifning bor mushkuli osonlashadi-qo'yadi.

– Marra yaqin, Sisif, shunday emasmi, qadrdon?

Sizif quloq solib kutdi, picha fursat o'tkazib savoliga o'zi javob qildi:

– Shunday...

Sisifning sovuqqonligidan Sizif tutaqib ketdi. Birdan ichi huvillab qoldi. O'zini judayam yolg'iz, hatto chala odam his qildi. Yaqin orada bu qadar xo'rliqi kelmagandi. Sisif ham begonalashibdi, u ham joniga ora kirolmas ekan, u holda... Sizif xarsang sinig'ini ikki qo'llab tutganicha alam bilan uni tepaga qarata tortishga tushdi.

– “Shunday” ham gapmi! Xuddi shunday! Marra yaqin! Ana, qo'l cho'zsam bas! Xarsangning ichi tosh emas, ichi to'la yilt etgan, milt etgan nur! Xarsangni cho'qqi-

ga olib chiqmagan nomard, noshud! Men o'zim, yolg'iz o'zim olib chiqaman! Ma'budlar ko'rib qo'ysinlar, o'shanda, odamlar ko'rib qo'ysinlar, o'shanda! Ha-ha-a, qarab turinglar, shohidi bo'lingla-ar-r!..

\* \* \*

Cho'qqiga yetib borgan Sizif holdan toyib o'tirib qoldi. Biroq u oyoq-qo'li, a'zoyi badani toliqqanidan emas, ruhida kechayotgan holatni tushunolmayotganidan holdan toygandi. Dastlabki safar xarsang bo'lagini olib chiqqanida sevinchi ichiga sig'magan, azbaroyi tortinmay-netmay qichqirgan, hatto xarsangni batamom olib chiqqanida nima deb olamga jar solishini ham chamalab qo'ygan, faqat o'sha safar pastda – tog' yonbag'rida yolg'iz qolgan xarsangning ahvolidan xavotirda hayallamay ortiga qaytgandi. Endi esa... Sizif o'tirgan joyida atrofni kuzatdi, samoda dam suzib, dam tek turib qolayotgan bulut to'dalariga termilib o'tirdi. Nazarida, parqu bulut to'dalari dengiz jilvalariga qo'shilib ketdi. Qora qayiqni, baliqchi cholni ko'rgisi keldi Sizif. Asop... Qizining ahvoli nima kechdi ekan?.. Sisif... Sizif pastda anchagina ixcham tortgan xarsangga razm soldi. Uni dumalatib cho'qqiga olib chiqish o'tirgan joyida juda-juda oddiy, jo'n, hatto arziyas mashg'ulotdek tuyulib ketdi. Shunda Sizif shu choqqa dovur tog' haqida o'ylab ko'rmaganiga hayron bo'ldi.

\* \* \*

Allaqancha daf'a cho'qqi tomon ko'tarilishga uringanlarida emas, mana, cho'qqidan pastga tushayotganida tog' yonbag'rining bu qadar nishabligini his qiladi. Toqqa chiqishdan ko'ra, undan tushish mushkulroq ekanligini bilardi. Biroq u faqat va faqat tepaga qarab

o'rmalash xayolida, harakatida yashadi. Izidan qaytmas qumursqadek, sakkiz-o'n oyoqli o'rgimchakdek o'rmaladi. Xarsangni cho'qqiga tomon dumalatishtan boshqa hech narsani ko'zlamadi, o'ylamadi. Xarsang ham ozmuncha unga bo'ysundimi! Lekin, mana oqibati, mana, ko'rib turibdi u o'z ko'zlari bilan! Va yana bir katta haqiqatni anglab yetayotganidan hayajonini bosolmay qoldi. Xarsangtosh biror marta yuqoriga ko'tarilish chog'ida emas, faqat va faqat pastga tushayotgandagina, pastga qarab dumalash chog'ida-gina sina boshladi. Pastga enayotgan lahzalardagina xarsangning metinligi pand berdi – u sinishga, parchalanishga yuz tutdi. Xarsangtosh cho'qqiga chiqish uqubatlariga emas, tepadan pastga tushish mashaqqatlariga dosh bermadi.

\* \* \*

Tog' yonbag'ri tekis va ravon bo'lmasa nima qilardi Sizif? O'ydim-chuqur bo'lganida, chakalakzor, yulg'unzor qo'plagan yoxud yo'l o'ngirzorlar oralab tushganda-chi? Bu borada Sizifning omadi chopganı aniq, to'ppa-to'g'ri yo'l, qo'l cho'zsa yetgudek marra. To'g'ri, xiyla qiyalik va xarsangning zalvori, og'irligi yo'l qo'ymadi zimmasidagi jazoni ertaroq o'tashga. Lekin u bo'sh kelmadi, barcha mashaqqatga chidadi. Dengizdan, bulutdan, hatto xarsangtoshning o'zidan madad oldi, faqat negadir tog' haqida o'ylamabdi. Xunobi toshganida, alam jon-jonidan o'tib ketgan paytlarda tog'ni o'pirib-qo'porib tashlashi mumkin edi. Yoki xarsang bilan til topishgan kezlarida tog' bilan tillashish haqida bosh qotirmaganiga hayron-u lol qoldi.

\* \* \*

Sizif osmonga ko'z tikdi. Uqraday oppoq va pag'a-pag'a bulut oshiqmay-netmay oqib bormoqda. Sizifning nazarida, bulut juda imillab harakatlanayotgandek tuyuldi. Bu ketishida go'yo vaqt o'tmayotgandek, bulutning imillashi vaqt o'tishini sekinlashtirib qo'yayotgandek edi. Vaholanki, vaqt butkul to'xtab qolmagan, balki mudom o'tib borayotganini Sizif ko'pdan buyon bulut oqimiga qarabgina chamalayotgan – keyinroq esa bulut oqimi bilan dengiz suvining mavjlanishlari orasida pinhona yaqinlik, o'zaro xufiya "bitim" borligini payqab qoldi.

\* \* \*

Xarsang dumalamay qo'ydi. Endi u xuddi to'rtala tomoni teng ko'tarilgan supachadek, bunday jismni dumalatish emas, surish, u yoki bu yoniga ag'darish yo'li bilan tepalikka olib chiqish mumkin, xolos.

Sizif shunga ham rozi va xursand edi. Uning uchun qanday bo'lmasin, xarsang joyida turib qolmasa, bir qadam, bir quloch bo'lsa-da, o'ziga bo'ysunib tepalik sari ilgarilasa bas. Sizif shu niyatda xarsangni joyidan jildirdi. U hali dumaloqligi saqlangan sirtida birmuncha oson dumalar, o'yilib tushgan joyi bilan tap etib tushgan joyidan esa uni yana qo'zg'atish, jildirish uchun Sizifdan bir talay kuch-quvvat, bardosh-iroda talab qilayotgandi.

Xayriyat, xarsang avvalgidan ancha-muncha ixcham tortgan, agar parchalanish davom etsa, u holda Sizifning mashaqqati yanayam ozayar, vazni yengillashgan xarsangni ortiqcha mashaqqatsiz cho'qqiga olib chiqadi-da, undan keyin... ana, keyin...

\* \* \*

Sizif so'laqmonday xarsang bo'lagini cho'qqiga olib chiqqan damda ko'ngliga oralagan g'alati noxushlikni qayta tuydi. Chindan o'sha safar ko'nglida bir g'alati sharpa paydo bo'lgan, lekin Sizif uning qanday va nimaning boisida paydo bo'lgan ko'ngilg'ashlik ekanini anglab yetolmagandi.

Mana, o'sha kayfiyat yana uni o'yga toldirdi. Nahotki, bu xarsangni cho'qqiga olib chiqish bilan bog'liq bo'lsa? Axir necha zamon, necha davrlardan buyon o'ylagani, intilgani, istagani shu edi-ku! Niyatiga yetmoqda-ku, u axir!

Sizif atayin qo'l siltadi-da, adoqsiz o'ylarni o'zidan yiroqlashtirish niyatida xarsangga tarmashdi. Uni bir urinishda ko'tarib tashladi. Yana, yana, yana. Xarsang bir necha odim ilgariladi. Sizifning dimog'ini g'alaba epkini qitiqlayotgandi. Nazarida, shu ketishning o'zida cho'qqiga yetib boradigandek edi. Dengiz tomon umidvor tikildi. Ummon sathi esa deyarli qilt etmas, bunday paytda qora qayiqni ko'rishga umid ham bog'lamas – qora qayiq o'rniga ko'z o'ngida tutab borayotgan qora daraxt e'tiborini tortayotgan – baliqchi chol mingan qayiq esa, odatda, salqin shabada esgan damlarda paydo bo'lardi. Bulutlar esa turfa shakl-shamoyil yasab o'tib bormoqda, demak, vaqt to'xtamagan. Sizifning vaqti o'tmoqda. U ana shu vaqt ichida irodasini ishga solmog'i shart. Irodasi harakatga, harakati irodaga aylanib ketishi shart. Shunga erishsa, bas, har qanday mashaqqatga dosh berishi va mo'ljallagan muddaosiga yetishmog'i oson bo'ladi.

\* \* \*

Xarsangning navbatdagi qasirlab-qisirlab sinishi har safardagidek kutilmaganda yuz berdi. U xarsangni qo'pollik bilan dumalatsmagandi, juda avaylab, ehtiyot-



lab yonboshiga ag'darayotgandi. O'ng yonboshiga aylanayotgan xarsang to'p etib so'l tomoniga ag'darildi. Shu ag'darilishda u pastga qarab sho'ng'iydigandek ko'ringandi, yo'q, to'p etdi-yu, tek qotdi. Xarsang og'ir-og'ir nafas olayotgandek edi. Ha, dedi Sizif ichida, men emas, xarsang holdan toydi.

Odam yengilmadi – tosh yengildi, toshga qo'shilib tog' yengildi, cho'qqi yengildi.

Ma'budlarning ma'budi yengildi. Vaholanki, Sizif hech kimni, hech narsani so'kmadi, turtmadi, ayyuhannos ko'tarmadi. Xarsangning fe'li o'ziga ma'lum, shu bois undan bir qadam ham nari ketmaydi. Faqat tepalikka ko'tarilayotib... ne kunlarni solmadi xarsang Sizifning boshiga?! Holi-qudrati yetmay, uni tutib qololmagan joydan orqaga – pastlikka tomon guldirab-do'ng'illab, qasira-qusurlab tog' ko'chkisidek, ko'klam selidek pastga tomon otilgan damlarda Sizif bilan xarsangtoshning oralig'i uzoqlashib ketar, Sizif ah-h, essiz, deganicha manglayiga qarsillatib shapaloq tortar, qaqqayib turgan joyida ko'ksining ichida nimadir shu-u-uvillab pastga tushib ketar, guldurab-qaldirab pastga hammayoqning to's-to'polonini chiqarib yirtqich va telba buqadek dumalab borayotgan xarsangni nigohi bilan kuzatib qolishdan boshqaga yaramas, biror kori bad yuz bermasin-da deya baralla iltijolar qilar, zum o'tmay esa niyati ijobatga olinganidan boshi osmonda, olishuvda g'olib kelgan bolakayday rostakamiga chapak chalib yuborar, "to'xtadi, xayriyat", deganicha tog'ning etagidagi bo'yradek yalanglik joyga borib harakatdan qolgan telba xarsangdan ku'z uzmay tushib kelar, qaqshatqich va ayovsiz mushtlashuvdan so'ng nafas rostlayotgan qadrdoniga mehribonlik ko'rsatmoqchidek, xarsang tegrasida gir aylanar, chir aylanar, qadrdoni hech bir shikast-rextsiz kelib to'xtaganidan boshi osmonlarga yetar, nazarida

esa, xarsangning butun yuz-ko'zidan ter quyilayotgandek bo'lar, Sizif tosh qotgan kaftlari bilan uning "beti"ni si-lab-siypalar, terlarini, chang-g'uborlarini artib qo'yardi.

\* \* \*

Sizif o'z qo'li bilan tiklagan xarsangtosh tegrasida ohista aylanayotib o'yib yozganlari yodiga tushdi. Izlay boshladi. "Sizif", so'ngra "Korinf"... "Sizif" va "Korinf"... U ost-ust bo'lib qalashgan xarsang siniqlarini ko'tardi, en-kayib qaradi, bironta harfli tosh bo'lagi chiqmadi. O'zi to-polmasa, boshqalar, ya'ni kelajakda bu manzilga qadami yetadiganlar qayerdan topadilar, qayerdan ko'radilar? Axir u ne niyatlarda, ne mashaqqatlarda o'yib tushirgan-di harflarni?! Nahotki, bari zoe ketgan bo'lsa?! Yo'q, yo-zuvlari o'chib ketishi mumkin emas, ularni topadi, zero, odamlar, zamon-u davronlar o'tadi, bulut-u osmonlar, tog'-u dengizlar o'tadi, lekin yozuv qoladi, yozuv!..

\* \* \*

Sizif Korinf qal'asining toshdevori bo'ylab salobat ila odim tashlab borayotib ro'parasida hurmat saqlab qul-luq qilib turgan mulozimlariga bosh irg'ab salomlashdi. Sizif oldinda, mulozimboshi yonboshda yo'lda davom etishdi. Mulozimboshi ado etilgan yumushlarga doir ax-berot berib kelaverdi.

– Qal'a devorini tiklash ishlari nihoyasiga yetayozdi.

Sizif mulozimboshining ovozi tahluka ohangini payqadi.

– Yetdimi, yetayozdimi? – tavoze ila so'z qotdi Sizif. – Fursat allaqachon yetdi chog'i?..

Sizif shunday deb ko'kka ko'z tikdi. Havo ochiq edi. U kunbotar tomon ohista suzib borayotgan oppoq parqu bulutlar to'dasidan bir muddat nigohini uzolmadi.

– Anavilarga qara, – dedi Sizif mulozimboshining bilagidan tutib.

– Bulutga qara deyaqman. – Fursat yetdi emas, al-laqachon o'tdi...

– Shunday-shunday, faqat... faqat... – Mulozimboshi osmonga qarab hech narsani anglamadi, bulutlardan ko'zini uzib, devorning nihoyasida hayhotday qorayib turgan xarsangtosh tegrasida chumolidek g'uj qalashgan ishchilarga, qullarga qaradi. Mulozimboshi o'sha tomonga ikki qo'lini cho'zib yalinchoq ohangda g'udrandi: – Ana shu... ana shu xarsangni jildirishning epi topilmayapti, a'lo hazrat. Bu ta'viya xarsang sharmanda qildi barchamizni, ishoning, a'lo hazrat!

Sizif xarsangtoshga bir nazar tashladi-yu, sapchib orqaga tisarildi.

U – jazo biyobonida Sizifga ro'para qilingan, necha zamon, necha vaqtlardan buyon unga adoqsiz mashaqqatlar, azoblar bergan va alhol uning jonfido birodari, qadrdoniga aylanib ketgan xarsangtosh edi! Faqat uning Sizifga ilk safar ro'para kelgan haybatida – bus-butunligi Sizifning kapalagini uchirib yuborgandi. Shunda ham u sir boy bermadi, zo'raki bo'lsa-da, miyig'ida kuldi. Yonboshda ta'zim qilib turgan sangtaroshlar safida tanish mo'ysafid ustaboshiga nigohi tushdi.

“Dilini topmabsan-da?..” – Bu so'zni Sizif sas chiqarmay, o'zi ham eshitmaydigan ovozda shivirlab aytdi ichida. Favqulodda ustaboshi sangtarosh safdan bir qadam oldinga chiqib chuqur ta'zim bajo keltirdi. Sizif to'xtadi.

– A'lo hazrat, shunday xarsanglar uchraydiki, ularda na dil, na yurak na qalb topiladi. Qodir Olloh ularni ushu bu ne'matlardan benasib etgan bo'lsa ajabmas...

Sizifning chehrasi ochildi, bosh chayqadi.

– Dili, tili topilmaydigan xarsang yo'q olamda, sizlarni sharmanda qilgan bu xarsangning dili ham, qalbi

ham, mana, mening qo'limda! Sizif shunday deb qo'li-dagi xarsang sinig'ini baland ko'tardi, atrofga alangladi. Tevarak-atrofida hech kim, hech zog' yo'q, uning o'zi baland cho'qqining tepasida turardi. Kimsasiz, yolg'iz o'zi turgani ham uni ajablantirmadi. Xuddi u Korinf qal'asi devori qurilishida hozir bo'lmaganday, hech kim bilan savol-javob qilmaganday, o'sha-o'sha ko'tarinkilikda baralla hayqirdi:

– Menkim, Sizif ishg'ol etgan yuksaklikni inson bolasi yetti uxlab tushida ko'rmagan. Eng baland imorat deysizmi, eng baland tog' cho'qqisi deysizmi, ularning hech biri men zabt etgan cho'qqi oldida ip esholmaydi. Hech bir zamon va makonda odam bolasining oyog'i yetmagan balandlikda, mana men – bo'yim daroz, boshim osmon, qad rostlab turibman!..

\* \* \*

Bu damlarda u o'zini kurrayi zaminning eng erkin va ozod bandasi deb bilar, chunki uning oyoqlariga urilgan kishanning uzunligi yerning istalgan chekkasiga dovur borishiga monelik ko'rsatmas, biroq, shu bilan bir vaqtda yer sathidan bir qadam nariga odim bosishiga yo'l qo'ymas, chunki kishan zanjirining uzunligi hisobli edi. Ayni chog'da, u o'zini bepoyon osmonning eng erkin va hur bandasi deb hisoblar, chunki uning bo'yiga urilgan samo kishani osmonlarning istalgan sarhadlariga dovur borishiga yo'l qo'yar, shu bilan bir vaqtda, koinot sarhadlaridan bir baxya bo'lsin, nari ketishiga izn bermasdi. Shunday bir holatda u zaminga tushish istagida betoqatlanguday bo'lsa samo kishani bo'g'zidan tortar, samo sari intilgan taqdirda esa – zamin kishanlari ortiqcha biror qadam tashlashiga yo'l qo'ymas, ya'ni uning erkinligi va ozodligi mana shu ikki kishan uzunligi orasida edi...

\* \* \*

Samoni qoplagan qop-qora bulut ummon sari lashkar tortdi. Manzara vahimali edi. Osmon nimadan g'azabga keldi? Junbisha boisi nimada? Butun samoni qoplagan quyuq, og'ir va haybatli bulut oqimi dunyoning to's-to'polonini chiqarmoqqa shaylangan vajohatda... Sizif ko'ngliga oralagan turfa savollarga javob topib ulgurmadi – osmon to'la bulut dengiz ustiga yetgan joyda to'satdan pastlashdi va ma'shuqasi vasliga yetishgan oshiq yanglig' butun zalvori bilan dengiz ustiga yopirildi. "Ih-ih-h-h!" degan sirli sas taraldi samoga. Buni aniq eshitdi Sizif, o'z qulog'i bilan eshitdi.

Bulut bilan dengiz... Demak, bulut va dengiz... Sizif xayoliga kelgan fikrdan o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi va hardamxayollik bilan dengizning joniga ora kirmoqchi edi, biroq dengiz qirg'oqlariga qadar, o'ynog'i to'fon-u oppoq mavjlariga qo'shib osmon to'la bulut og'ushiga singib ketdi...

\* \* \*

Adoqsizday ko'ringan mashaqqatlar ortda qoldi. Sizif o'zining nimalarga qodirligini ko'rib-bilgani sayin yuz berayotgan voqealarni aqliga sig'dirolmayotgan, xayolining bir chekkasida ko'z – qo'rqqoq, qo'l – botir degan naqlning naqadar to'g'ri ekanligiga imon keltirar, o'ziga o'zi tasannolar yog'dirishdan tortinmasdi. Mehnat mashaqqatidan odam o'lib qolmasligiga ham iqror bo'ldi u. Shunga qaramay, insonga ham ruhiy, ham jismoniy azob-uqubat beruvchi mehnatni oqlashni istamas, oddiy insoniy sharoitda bunday dahshatli-xatarli ishga qo'l ura olmasdi albatta, bu – muqarrar, lekin tanballikka ham o't tushsin, hech bir tanbal banda yuzga kirdim deb ko'ksiga urganmi hech bir zamonda?! Mehnat qilgan yashaydi,

yuzga chiqish ham gapmi, mingga kiradi. Uydek, tog'dek xarsangtoshni yumalatib, dumalatib mana shunday tog' cho'qqilariga olib chiqishni uddalaydi. Baxt – zo'rniki. Baxt – xarsangtoshni yumalata olganniki! Mehnatsevarniki, mehnat mashaqqatlaridan qo'rqmaganniki!

\* \* \*

Sizif bir zamonlar ko'ngliga tukkan niyatini, mana, nihoyat... nihoyat, baralla olamga jar solib aytar fursati keldi! U zarracha tortinmaydi, qisinmaydi, balki ovozi-ning boricha olamga jar soladi: ho-ho-he-ey-y, odamlar-u odamla-ar, eshitmadim demangla-ar! Menkim shahanshoh Eol va malika Enaretning suyuqli o'g'loni, Meroplar sulolasining arzanda kuyovto'rasi, Glavkaning padari, Bellerofontaning mehribon bobosi bo'lmish mahkum Sizif kimsan Zevs tomonidan kaminaga belgilangan jazoyi haqni, nihoyat, nihoyat... sharaf bilan o'tadim, uddaladi-i-m-m! Ha-ha-he-e-ey-y-y! Mana-a, qarangla-ar, shohidi bo'lingla-ar, xarsangtoshni cho'qqiga olib chiqdim, cho'qqini zabt etdim, zafar quchdi-im-m!..

\* \* \*

Sizif ne-ne zamonlardan buyon ko'ngliga tugib, necha qaytalab takror-takror mashqlar qilib qo'yganidek shu taxlit olamga jar solish niyatidan kutilmaganda voz kechdi. Xarsangtosh siniqlarini avaylab-ehtiyotlab taxlab chiqqach, qad rostlab cho'qqida turgan joyidan pastga qaradi-yu, yuragi shuv etib ketdi. Yuragi orqasiga tortib, o'zini xasdek, xazon parchasidek, qilt etib shabada esguday bo'lsa jismi-jasadini osmon-u falakka to'zib ketadigan chang zarrasidek omonat, muallaq sezdi. Shoshilib cho'qqining tepasidan to etagigacha bo'lgan masofaga ko'z yugurtirdi. Bo'm-bo'sh – hech

zog', hech narsa ko'rinmas, hatto tog' yonbag'ri ham qayoqqadir g'oyib bo'lgan – Sizif ko'kda, bulutlar yonida muallaq parvoz etib turgandek – bulutlar vaqt o'tayotganidan xabar, belgi beruvchi deb hisoblab kelardi u shu choqqacha. Endi ko'ryaptiki, bulutlar suruv-suruv, gala-gala, uyur-uyur bo'lib kelib, uyalmay-netmay obdon toshi mammini yalab-yulqayapti... bularning bari Sizifning ko'z o'ngida yuz beryapti, mammi shunga moyildek yal-yal oqarib, yashnab-charaqlab, yanayam ko'zni qamashtirib, gul-gul ochilmoqda – bir jozibasiga o'n joziba qo'shilmoqda.

Qaydandir “gup” etgan shovqin eshitildi, Sizif dengizga yaqin tomonda zaqqum daraxti alanga olib yona boshlaganini ko'rdi. O't qo'yaman, deb baqirib yubordi Sizif dag'dag'a bilan qo'llarini boshi uzra sermab, hasaddan, rashkdan azbaroyi qorayib ketgandi u, bulutga o't qo'yaman, yoqaman! Osmonga qo'shib, mammiga qo'shib kulini ko'kka sovuraman!

– Laka-lum, lak... Laka-lum, lak... – Sizif turgan joyida qo'llarini boshi uzra ko'tarib raqsga tusha boshladi. – Lak-lak, lakalum. Laka-laka, lak-lak, lakalum-m!..

Uning ko'zi tinib, boshi aylandi. Ko'ngli alag'da bo'ldi. Haqiqatda ikki qo'llab mammi poyiga suyanmaganida bulut aralash esayotgan shabadada xasdek allaqayoqlarga uchib ketishi hech gap emasdi.

– Bulutga qo'shilib mammi quchog'ida yonib kul bo'lsam ham mayli, cho'qqidan pastga yumalab, dumalab parcha-purcha bo'lib ketsam ham roziman!.. – Lak-lak, lakalum-m! Lak-laka, lakalum-m!.. Lak-lak, lakalum! Lak-laka, lakalum-m!..

Sizifning qulog'iga musiqiy sas chalindi. Nolakor nag'ma qay tomondan taralayotganini aniqlolmadi u. Musiqa to'xtab qolmasaydi degan xavotirda “Lak-lakalum”ni bas qilmadi. Musiqa g'oyatda nazokat va eh-

tiyotlik bilan xirgoyiga jo'r bo'ldi, bunga sayin Sizifning ilhomini jo'shdi.

- Men osiy banda, - xasta tovushda shivirladi: - Kechirgaysiz... uzrlarim... tavbalarim... iltijolarim...

Nigohi dengizga qadaldi - moviy suv sathi salomga chiqqan kelinchakdek ma'yus va sokin tortgandi. Sizif gandraklab, tubsiz pastlikka qulab tushayozdi - tisarilib borib, tosh mammi poyiga suyandi. Ko'zi qamashdi. O'zini qo'lga olishga urindi. Xarsangtosh siniqlari uyumi tomon qo'lini cho'zdi, qulochini boricha yoydi, bazo'r qad rostlagan yarador askardek oldinga bitta-bitta qadam tashladi.

Shu borishda nimaning o'yladi, nimaning mo'ljalini oldi, murod-maqsadi nima edi, o'ziga-da noayon, lekin, ayni damda, ichida nimadir yilt etdi, azbaroyi uzoq uyqudan cho'chib uyg'ongan odamday sapchib tushdi. Toshqotgan kaftlari bilan yuz-ko'zini qattiq-qattiq ishqadi, suyundi, surgalib tanasidan orqada qolayotgan nogiron oyog'iga og'rinib, kulimsirab qaradi. Zum o'tmay kulimsirash o'rnini alamli chiranish, favqulodda shiddat egalladi va... va... do'sti, qadrdoni, yakka-yagona sirdoshiga aylanib qolgan xarsangni bir hamlada pastga qarab dumalatib yuboradigan vajohatda tosh bo'laklari uyumi ustiga o'zini tashladi...

2015

**Tamom**



*Adabiy-badiiy nashr*

**Xurshid DO'STMUHAMMAD**

# **DONISHMAND SIZIF**

*Roman*

<i>Muharrir</i>	<b>Axtam RO'ZIMURODOV</b>
<i>Badiiy muharrir</i>	<b>Bahriddin BOZOROV</b>
<i>Texnik muharrir</i>	<b>Dilmurod JALILOV</b>
<i>Sahifalovchi</i>	<b>Madina ABDULLAYEVA</b>
<i>Musahhih</i>	<b>Rayhon IBRAGIMOVA</b>

№ 300 SD'N.

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2019-yil 7-iyunda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 /4/ Cambria garniturası.  
Ofset bosma. 3,75 bosma taboq. Nashr tabog'i 5,8.  
Adadi 10000 nusxa. 140-raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida.

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.  
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortul ko'chasi, 60.





ISBN 978-9943-5530-3-3



9 789943 553033